

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI
EKOLOGIYA KAFEDRASI**

Qayd raqami:

“TASDIQLAYMAN”

Nº_____

*Samarqand davlat universiteti o'quv ishlari
bo'yicha prorektori::*

«28» avgust 2018 y.

_____ A.Soliyev

“___” _____ 2018-yil

GIDROBIONTLAR EKOLOGIYASI

FANIDAN

EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI

YO'NALISHI UCHUN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

SAMARQAND – 2018 y.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi tuzilmasi
(Mundarija)

1.	Titul varag'i (OTM nomi, ta'lif yo'naliishi shifri va nomi, fan nomi, "Samarqand - 2018")	
2.	Mundarija	
3.	Fanning annotasiyasi	3
4.	Mualliflar haqida ma'lumot.....	4
5.	Normativ hujjatlar:.....	5
5.1.	Davlat ta'lif standarti.....	5
5.2.	O'quv reja.....	34
5.3.	Ishchi o'quv reja.....	36
5.4.	O'quv dasturi.....	38
5.5.	Ishchi o'quv dasturi.....	45
5.6.	Kalendar- tematik reja.....	56
6.	Ta'lif texnologiyasi:.....	57
6.1.	Mashg'ulotlarning pedagogik texnologiyasi.....	57
6.2.	Mashg'ulotlarning texnologik xaritasi.....	57
7.	Nazorat materiallari:	112
7.1	Topshiriqlar mazmuni.....	112
7.2	ON, YaN uchun testlar.....	112
7.3	Yozma ish va og'zaki nazoratlar savollari (variantlar).....	117
8.	O'quv materiallari:	123
8.1.	Ma'ruza matni.....	123
9.	Amaliyot (seminar va laboratoriya) mashg'ulotlarining ishlasmalari, ularni o'tkazish va qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar.....	183
10.	Tarqatma materiallar (referat mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, baholash mezonlari, horijiy manbalar).....	184
11.	Mustaqil ish mavzulari va uni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.....	188
12.	Kurs ishlari mavzulari va ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar.....	189
13.	BMI mavzulari banki va uni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.....	189
14.	Glossariy.....	190
15.	Ilova:.....	211
15.1.	Ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llamalar.....	211
15.2.	Uslubiy qo'llamalar, uslubiy ko'rsatmalar.....	211
15.3.	Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallari.....	211

3.FANNING ANNOTASIYASI

Suv – bu hayot uchun zarur vosita emas, hayotning o'zidir. Zero tabiatdahar qanday tirik jonzot borki, uning hayotini suvsiz tassavvur qilib bo'lmaydi. Suv va suv resurslaridan foydalanish, uni asrash va muhofaza qilishni rejalashtirish davlat boshqaruvi va tartibga solish faoliyatining eng muhim vosita va mexanizmi hisoblanadi. Yer yuzidagi suv resurslaridan ooqilona foydalanish to'g'risidagi global miqyosda chiqarilgan qarorlarda Markaziy Osiyoning suv havzalari va ularni muhofaza qilishga katta e'tibor qaratiladi. Voholanki bu borada Tojikiston hududida joylashgan tabiiy suv resurslaridan foydalanish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prizidentimiz tutgan yo'li ayniqsa ahamiyatlidir. Gidroekologik muammolar oqibati, ularning asolratlari inson hayotiga mamlakatlarning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotiga borgan sari tahlika solmoqda. Mayjud muammolarni bartaraf etishning yagona yo'li gidrosfera boyliklaridan ooqilona foydalanish, hamda ekologik havfsizlikni ta'minlash choralarini izlashdir.

4. MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

FAYZULLAYEV BURXON FAYZULLAYEVICH

2011 yil 12 sentyabrdan buyon:

Samarqand davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti «Ekologiya» kafedrasi dosent



Tug'ilgan yili:
05.02.1958

Tug'ilgan joyi:
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani

Millati:
O'zbek

Partiyaviyligi:
yo'q

Ma'lumoti:
oliy

Tamomlagan:
1984 yil, Samarqand avlat universiteti

Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:

biolog

Ilmiy darajasi:
Biologiya fanlari nomzodi

Ilmiy unvoni:
Dosent

Qaysi chet tillarini biladi:
rus tili

Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):
yo'q

Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a'zosimi (to'liq ko'rsatilishi lozim)
yo'q

MEHNAT FAOLIYATI

- | | |
|--------------|--|
| 1976-1978 yy | - Harbiy xizmatda |
| 1978-1979 yy | - Samarqand davlat universiteti biousul laboratoriysi preparotori |
| 1979-1984 yy | - Qorako'lchilik instituti laboranti |
| 1984-1989 yy | - "O'zelxozkimyo" Samarqand viloyat boshqarmasi bosh agronomi |
| 1989-1994 yy | - O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi zoologiya instituti aspiranti |
| 1994-1998 yy | - Samarqand tibbiyat instituti ilmiy bo'lim boshlig'i |
| 1998-2000 yy | Samarqand davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik fakulteti ma'naviy-marifiy ishlari bo'yicha dekan o'rinnbosari. |
| 1998-2011 yy | - Samarqand davlat universiteti «Ekologiya va agrokimyo» kafedrasi assistenti |
| 2011 –y h.v. | - Samarqand davlat universiteti «Ekologiya» kafedrasi dosenti |

5.NORMATIV HUJJATLAR:

5.1.Davlat ta'lim standarti

Toshkent davlat texnika universiteta Ilmiy-uslubiy kengashining 4-sonli majlis bayonidan k'yirma

Toshkent sh.

2018 y.

Rais: TDTU ýquv ishlari býyicha prorektor, prof. M.Karimov

Kotib: TDTU ýquv-uslubiy býlim boshlig'i N.Mambetov.

Katnashdilar: 25 kengash a'zosida 17 a'zo

1. SamDU ýquv ishlari býyicha prorektor, prof. N.Eshqobilov.
2. SamDU ýquv-uslubiy boshqarma boshlig'i. dos.X.Qurbanov.

KUN TARTIBI:

1. Oliy va ýcta maxsus ta'lim vazirligining 308-sonli buyrug'iga asosan "5630100 Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim)" bakalavriat ta'lim yýnalishi mutaxassisligi uchun tayyorlangan Davlat ta'lim standartlari va namunaviy ýquv rejalarini tasdiqlash uchun tavsiya etish.

EshITILDI: M.Karimov: Oliy va ýcta maxsus ta'lim vazirligining 308-sonli buyrug'iga asosan "5630100 Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim)" bakalavriat ta'lim yýnalishi mutaxassisligi uchun tayyorlangan Davlat ta'lim standartlari va namunaviy ýquv rejalarini TDTU va SamDU tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur xujjalarni ishlab chiqishda Oliy va ýcta maxsus, kasb-hunar ta'lim tilidagi kollejlar, akademik liseylar hamda umumta'lim muktabrlari, shuningdek turdosh OTM mutaxassislarining bildirgan fikr takliflari inobatga olingan

SO'ZGA ChIQDI: N.Eshqobilov: yukorida nomlari keltirilgan ta'lim muassasalari mutaxassisliklari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlari va namunaviy ýquv rejalarini ýquv jarayoniga zarur va mos keladi deb hisoblaymiz va ularni tasdiqlash uchun Oliy va ýcta maxsus ta'lim vazirligi xuzuridagi Oliy va ýcta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markaziga taqdim etish mumkin.

QAROR KILINDI:

"5630100 Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim)" bakalavriat ta'lim yýnalishi mutaxassisligi uchun tuzilgan Davlat ta'lim standartlari va namunaviy ýquv rejalarini Oliy va ýcta maxsus, kasb-xunar ta'limini rivojlantirish markaziga takdim etilsin.

Rais:

M.Karimov

Kotib:

N.Mambetov

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI VA «SAMARQAND VILOYAT TABIATNI MUHOFA3A QILISH QO'MITASI» BILAN KELISHUV DALOLATNOMASN

Samarkand sh.

2018 yil. « »

Samarkand Davlat universiteti bir tomonidan «Samarkand viloyat tabiatni muhofaza qilish qýmitasi», ikkinchi tomonidan 5630100- Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim) bakalavriat ta'lim yýnalishi bakalavr mutahassisliklari uchun SamDU tomonidan tayyorlangan Davlat ta'lim standartlari va namunaviy ýquv rejalarida Oliy va ýcta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimidagi kollejlar, akademik liseylar hamda umumta'lim muktabrlari shuningdek, turdosh OTM mutahassisliklarining bildirgan fikr va takliflari inobatga olib, hamda ularning zamon talablariga zarur va mos keladi deb hisoblab va ushbu yýnalish va mutaxassisliklarni bitirgan mutahassislar ishlab chiqarish va mehnat bozori talablariga javob berilishini hisobga olib, tasdiqlash uchun Oliy va ýcta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markaziga takdim etish mumkin deb bilamiz.

SamDU rektori

Samarkand viloyat tabiatii



мухофаза килингумитаси
райони Жамолов З.У.

**5630100 Ekologiya va atrof-muxit muxofazasi (fan va ta'lism) bakalavriat ta'lism yunalishi buyicha
bakalavrlearning tayyorgarlik
darajasi yuzasidan davlat ta'lism standartlariga berilgan**

TASRIZ

Takomillashtirilgan **5630100 Ekologiya va atrof-muxit muxofazasi (fan va ta'lism) bakalavriat ta'lism yo'naliishi buyicha DTS tayyorlanishi respublikamizda malakali kadrlar yetishtirib berishda muxim axdmiyatga ega.**

DTS darajasida malakali kadrlar tayyorlash dolzARB masala, DTS yetakchi mamlakatlar standartlari tajribasiga asoslanib ishlab chikilgan. **5630100 -Ekologiya va atrof-muxit muxofazasi (fan va ta'lism) bakalavriat ta'lism yo'naliishi hida ta'lism olishga zarur bo'lgan muammolar kiritilgan.**

DTS talablarida o'qishning me'yoriy muddati, kasbiy faoliyat sohasi va obyektlarning tawsifi, kasbiy faoliyat turlari va moslashuv imkoniyatlari keng yoritilgan. Umumiy malakaviy talablarda kasbiy va ihtisoslik bo'yicha beriladigan bilimlarga, fanlar bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan talablar to'g'ri qo'yilgan. Bloklarga sezilarli darajada o'zgartirishlar kiritilgan.

Kasbiy tayyorgarlikda integrallashgan kurslarga alohida e'tibor berilgan. **Ekologik - Ekologiya nazariyasi, Xayot faoliyati xavfsizligi, Gidrobiologiya kabi nazariy kurs, o'rganilayotgan muammo bo'yicha amaliy kurs, mutaxassislik bo'yicha- Sanoat va shaxar ekologiyasi, Atrof-muxit sifat analizi va monitoringi, Ekologiyaning xuquqiy asoslari kabi kurslarning mavjudligi fanlar o'rtaqidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi.**

DTS malakaviy amaliyot tuzilmasi va bitiruv malakaviy ishlariga berilgan talabalar bilan yakunlandi, uzaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi, DTSni amalga oshirishda baxolash tizimiga va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Yo'naliish uchun tayyorlangan DTS zamon talablariga javob beradi xamda asosiy xujat kabul kilishga xizmat qiladi.

Samarkand davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti

Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish
profesori, biologiya fanlari doktori:

Izzatullayev Z.I.

O'ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI

*O'zbekiston uzlusiz ta'limining
Davlat ta'lim standartlari*

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti

**5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning
tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan**

TALABLAR

Rasmiy nashr

GOSUDARSTVYe NNIY STANDART UZBY KISTANA

**Gosudarstvennyye obrazovatelnyye standarty
nepreryvnogo obrazovaniya Uzbekistana**

Gosudarstvennyy obrazovatelnyy standart vysshego obrazovaniya

TREBOVANIYa

**k neobxodimomu soderjaniyu i urovnyu podgotovlennosti bakalavra po napravleniyu 5630100 –Ekologiya i
oxrana okrujayushchey sredy (nauka i obrazovaniye)**

Izdaniye ofisialnoye

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent-2018

O'ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI

*O'zbekiston uzlusiz ta'liming
Davlat ta'lim standartlari*

Oliy ta'liming Davlat ta'lim standarti

**5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim) ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavrarning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan**

TALABLAR

Rasmiy nashr

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent

SO'Z BOSHI

1. IShLAB ChIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Rivojlantirish markazi;
- O'zbekiston Milliy universiteti
- Samarkand davlat universiteti
- Tashkent davlat texnika universiteti

2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201_ yil «___» _____ dagi
____ - sonli buyrug'i.

Mazkur standart O'zbekiston Respublikasi hududida amalga kiritilishi (amal qilishining to'xtatilishi) va unga o'zgartirishlar kiritilishi to'g'risidagi ma'lumotlar «O'zstandart» agentligi tomonidan nashr etiluvchi ko'rsatkichlarda chop etiladi.

Mazkur standartni O'zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir

II MUNDARIJA

	Bet
1. Qo'llanilish sohasi	1
2. Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar	2
3. Ta'lim yo'nalishining tavsifi	2
4. <i>5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi	3
5. Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar	5
6. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari	19

7.	Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga quyiladigan talablar	29
7.1.	Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishiga quyiladigan umumiyl talablar	29
7.2.	Ta'lim dasturlarining tadbiq etilishi	30
7.3.	Malakaviy amaliyotlarni tashkil etish talablari	30
7.4.	O'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha talablar	31
7.5.	Ta'lim jarayonini o'quv-uslubiy va axborot resurslari bilan ta'minlash talablari	31
7.6.	O'quv jarayonining moddiy-texnika bazasi bo'yicha talablar	32
8.	Bakalavr tayyorlash sifatini baholash	32
9.	Eslatma	33
10.	Davlat ta'lim standartining amal qilish muddati	33
11.	Ilova	34
12.	Bibliografik ma'lumotlar	36

O'ZB KISTON DAVLAT STANDARTI

*O'zbekiston uzlucksiz ta'limining
Davlat ta'lim standartlari*

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti

**5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning
tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan
TALABLAR**

**Gosudarstvennyye obrazovatelnyye standarty
nepregyvnogo obrazovaniya Uzbekistana**

**Gosudarstvennyy obrazovatelnyy standart vyysshego obrazovaniya
TREBOVANIYA**

**k neobxodimomu soderjaniyu i urovnyu podgotovlennosti bakalavra po napravleniyu 5630100 – Ekologiya i
oxrana okrujayushchey sredy (nauka i obrazovaniye)**

**State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan
State Educational Standards of Higher Education**

REQUIREMENTS

**Necessary for content and level of Bachelors in 5630100 – Ecology and Environmental Protection (sciences and
education)**

**Amal qilish muddati «____» _____ 201 yildan
«____» _____ 201 yilgacha**

1. Qo'llanilish sohasi

1.1. Oliy ta'limning mazkur davlat ta'lim standarti (OT DTS) 5630100-Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (*fan va ta'lim*) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.2. Oliy ta'lim muassasasi mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda DTS asosida ta'lim dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb xisoblanadi.

1.3. OT DTSning asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur ta'lim yo'nalishi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda asosiy ta'lim dasturlarini sifatlari ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchi jamoalari;

- ta'lim yo'nalishining asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalar;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi va dekanat);

- bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestasiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

2. Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar

Mazkur standartda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hujjatlarga mos ravishda atamalar va ta'riflardan foydalanilgan.

Kasbiy faoliyat turi – ta'lim yo'nalishiga o'zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat obyektiiga ta'sir qilishning metodologiyasi, metodlari va tavsifi.

Kompetensiya – ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilimlar, amaliy malakalar va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobiliyati.

Mutaxassislik – muayyan kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta'lim dasturlari majmui;

Kasbiy faoliyat obyekti – voqyea, jarayon va faoliyat doirasida harakatga yo'naltirilgan tizim.

Kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlari majmui;

Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari (bakalaviyat dasturi) – talabalarning tarbiyasi va tayyorgarlik darajasi sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv reja, o'quv kursi dasturlari, malakaviy amaliyot dasturi, o'quv jarayoni jadvali va ularga mos ravishdagi ta'lim texnologiyalarini amalga oshirilishini ta'minlovchi o'quv-metodik majmualar.

Fan – ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan ilmiy bilim tizimi.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy tizimi.

Uzlucksiz ta'lim – ta'limning barcha turlarini qamrab oluvchi, malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, u davlat ta'lim standartlari, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini.

Ekologiya – organizmlarning o'zaro va ularni o'rabi turuvchi atrof tabiiy muhit bilan bo'ladigan o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sohasi, unga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi va unga oid ijtimoiy munosabatlarni muvoqiflashtirishga qaratilgan amaliy faoliyat tarmog'i.

Atrof-muhit muhofazasi – tabiatdan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda organizmlar yashash muhitini ekologik xavfsiz darajada ta'minlashga yo'naltirilgan kishilik faoliyatini majmua.

Profil – namunaviy ta'lim dasturining aniq kasbiy faoliyatiga yo'naltirilgan muayyan turi yoki obyekti.

O'quv-o'rganish natijalari – o'zlashtirilgan bilimlar, amaliy malakalar, ko'nikmalar majmui;

O'quv bosqichi – ta'lim dasturlariga mos ilmiy yoki kasbiy faoliyat doirasidagi bilimlar va amaliy malakalarini o'zlashtirish va ko'nikmalarni muayyan muddatda shakllantirishga mo'ljallangan fanlar majmui.

ARM - axborot resurs markazi.

ITI - ilmiy tadqiqot ishlari.

OTM - oliy ta'lim muassasasi.

O'UM - o'quv-uslubiy majmua.

3. Ta'lim yo'nalishining tavsifi

3.1. Ushbu ta'lim yo'nalishiga tegishli DTS da aks etgan umumiy malakaviy **kompetensiyalar** doirasidagi bilimlarga ega bo'lgan, ulardan foydalanadigan va amalda qo'llay oladigan ko'nikmalarga javob beruvchi, barcha

attestasiyalardan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» darajasi va uni tasdiqlovchi davlat namunasidagi rasmiy xujjat beriladi

3.2. Ta'lif dasturi darajasi va o'zlashtirishning me'yoriy muddati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ta'lif dasturi darajasi va o'zlashtirishning me'yoriy muddati

Ta'lif dasturining nomi	Daraja	Ta'lif dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati
Bakalavriat ta'lif dasturi	Bakalavr	4 yil

4. 5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lif) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1. Bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohasi

5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lif) ekologiya qonun-qoidalarini va ularga asoslangan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklash, ya'ni ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan ilm va bilimga oid harakat faoliyat majmuini o'z ichiga oladi.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat majmualari va ularni qayta tiklashga davlat va jamoat reja, dastur va harakat yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- ekologik ilm va ta'lifni turli soha va yo'nalishlarda tadbiq eta olish;
- ekologik tadqiqot va ta'linda yangi zamonaviy metodlarni qo'llay olish;
- davlatning ekologik siyosatini turli tashkilot, muassasa va korxonalarda tadbiq qilishga ko'maklashish;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni iqtisodiyot tarmoqlarida realizasiya qilish;
- ekologik fanlar tizinga kiruvchi barcha fanlarning umumiy va xususiy tomonlarini ochib berish;
- ekologiya va atrof-muhit muhofazasida GIS texnologiyalarini amaliyotda qo'llay olish;
- ekologiya, biologiya va tabiatshunoslik fanlaridan umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'linda dars bera olish;
- olgan nazariy va amaliy bilimlarini ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, salomatlik yo'nalishida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarida qo'llay olish;
- barqaror rivojlanishning ekologik jihatlarini ilm va ta'limga tadbiq etish;
- muqobil energiya, biologik xilma-xillik va chiqindilardan oqilona foydalanishni keng qo'llashda tashabbuskorlik ko'rsatish;
- ekologik turizm va servisni respublikamizda rivojlantirishga xizmat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga keng jalb etish.

4.2. Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari

5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lif) bakalavriat yo'nalishini bitirganlar o'z mehnat faoliyatlarini quyidagi joylarda olib borishlari mumkin:

- ilmiy-tadqiqot institutlari;
- umumiy o'rta maktablarda va akademik litseylarda, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida;
- ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va aholi salomatligi yo'nalishidagi davlat idoralari, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va xalqaro tashkilotlarda.

4.3. Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

- ilmiy-tadqiqot obyektlarida laborant, ilmiy xodim va ish yurituvchi bo'lib ishslash;
- maktab, akademik lisey, kasb-hunar kollejlarida ekologiya, biologiya, ximiya, tabiatshunoslik va atrof-muhit muhofazasiga oid fanlardan dars berish, shuningdek universitet va institutlarda o'quv-metodik faoliyat bilan shug'ullanish;
- Tabiatni muhofaza qilish, Yer resusrlari, davlat kadastri va kartografiya davlat qo'mitalari, Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi tizimidagi idoralar hamda "Ekoharakat" respublika va viloyat bo'linmalarining xodimlari;
- ishlab chiqarish korxonalarida ekologik nazorat, ekspertiza va monitoring xizmatchilar;
- ekologik yo'nalishdagi nodavlat tashkilotlari xizmatchilar, davlat boshqaruvi idoralarida tegishli soha mutaxassislari va h.k.

4.4. Bakalavrlar kasbiy faoliyatining maqsadi va vazifalari

5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim) ta'lif yo'nalihi bo'yicha bakalavr fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbiy faoliyat turlarini bajarishi mumkin:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida: ilmiy tekshirish muassasalarida, xalq xo'jaligining korxona va ilmiy laboratoriylarida kichik ilmiy xodim;

Pedagogik faoliyatda: maktab, akademik litsey va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ekologiya, biologiya, ximiya va tabiatshunoslik fanlaridan dars berish va o'quv uslubiy faoliyat bilan shug'ullanish.

Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishda: tabiatni muhofaza qilish korxonalarida, baliqchilik korxonalarida, qishloq xo'jaligida, qo'riqxonalarda va boshqa shu sohaga tegishli korxonalarida ishlash.

4.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari

5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (fan va ta'lim) ta'lif yo'nalihi bo'yicha bakalavr quyidagi:

Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)	5A630101
Ekologiya (tarmoqlar bo'yicha)	5A630102
Sanoat chiqindilarini saralash (rekuperasiya)	5A630103
Suv resurslarini muhofaza qilish va oqava suvlarni tozalash	5A630104

mutaxassisliklari hamda ta'limning vakolatli organlari tomonidan aniqlanadigan turdosh yo'nalihsilar mutaxassisliklari bo'yicha ikki yildan kam bo'lmasan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirishi mumkin.

Pedagogik faoliyatni olib borganda o'z malakasini har uch yilda oshirib turishi kerak.

5. Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

5.1. 5630100 –Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (fan va ta'lim) ta'lif yo'nalihi bo'yicha bitiruvchi quyidagi umumiylar malakaviy talablarga ega bo'lishi kerak:

a) umumiylar malakaviy talablari:

- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo'lishi; gumanitar-ijtimoiy iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

- Vatan tarixini bilishi; ruhan milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon eta olishi va ilmiy asoslay olishi, milliy istiqlol g'oyasi asosida faol hayotiy o'rinni egallashi;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivoji haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana bilishi;

- insonning insonga, jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va ahloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda hisobga ola bilishi;

- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalinish metodlarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- bakalavriatning mos yo'nalihi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- sog'lom turmush olib borishi haqida ilmiy tasavvurga va e'tiqodga ega bo'lishi, o'zini jismonan takomillashtirishi malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

- bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida jamiyatning rivojlanishiiddagi axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglash, informasion xavfsizlikning asosiy talablariga, jumladan davlat sirini himoya qilish talablariga, rioxva qilishi;

- internet tarmog'idan axbortlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlashi;

- global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlashi;

- so'zlashuvdan kam bo'lmasan darajada bitta xorijiy tilni egallashi;

- mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sog'liqni mustahkamlashdan metodik to'g'ri foydalinish vositalarini egallagan bo'lishi, to'laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta'minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning kerakli darajasini egallashi kerak.

b) umumkasbiy malaka talablari:

Bakalavr:

ta'lif sohasida: umumiylar o'rta ta'lif maktablarida, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, biologiyaga doir darslarni o'ta olishi va to'garak mashg'ulotlarini olib bora olishi;

ilmiy sohada: organizmlarning tabiiy va antropogen omillar ta'siriga moslashish xususiyatlarini ochib berish, atrof-muhit, ekotizimlardagi salbiy o'zgarishlarni tahlil qilish, baholash, boshqarish, bashorat qilish, tabiatdan foydalinishni optimallashtirish masalalarini ilmiy-amaliy tadqiq qilishi, organizmlarning moslashuvi va ularda kechadigan ekologik jarayonlarni o'rganish, atrof-muhit holatini tahlil qilishda qo'llaniladigan asbob-uskunalarini loyihalashda nazariy va amaliy jihatdan ishtirot eta olishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish sohasida: ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish muassasa va korxonalarning boshlang'ich bo'g'ini ishini tashkil etishi va ularni boshqarish haqida tushunchaga ega bo'lishi;

iqtisodiy sohada: ekotizimlarda kechadigan turli hodisa va jarayonlarga qarab kam chiqindili va chiqindisiz, muqobil, tiklanadigan texnologiyalarni loyihalash va amalga tadbiq etishi;

ishlab chiqarish sohasida: ekologiya va tabiatdan foydalanishga taaluqli fanlar va ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'llaniladigan asbob-uskunalaridan foydalanishi va xizmat ko'satishi, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'zlashtirishda olgan bilimlarini amalda tegishli tarmoqlarda qo'llay olishi lozim.

5.2. Ta'lim dasturlari bo'yicha bakalavrлarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

5.2.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha talablar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar qismi bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

5.2.2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar

Bakalavr:

• **olamni bilishda idrok etishning alohida usuli sifatidagi matematika, uning tushuncha va tasavvurlari umumiyligi;**

• **asosiy teoremlar va ketma-ketliklar chegaralari, differensiallashning asosiy qoidalari, o'xshashlikning umumiyligi mezonlari;**

• integrallashning asosiy usul va formulalari, aniq integral xossalari, murakkab funksiyalar differensiallanish;

• axborot, uni saqlash, ishlab chiqish va uzatish borliq bir butun fizikaviy obyekt haqidaligi va uning evolyusiyasi;

• tabiiy ilmlarning fundamental birligi, uning tugallanmaganligi va yanada rivojlanishi mumkinligi;

• tabiatda tartib va tartibsizlikning nisbati, obyektlar tuzilmasining tartibga solinganligi, tartibsiz holatga o'tish va uning aksi;

• ehtimollik – tabiiy tizimlarning obyektiv tavsifi ekanligi;

• informasion jarayonlarni amalga oshirishning texnikaviy va dasturiy vositalari;

• funksional va hisoblash masalalarini yechish modellari, algoritmlash va dasturlash;

• yuqori darajada dasturlash tillari, ma'lumotlar bazasi, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyasi;

• kompyuter grafikasi asoslari;

• simmetriya tamoyillari va saqlanish qonunlari;

• bilishda empiriklik va nazariylik nisbati;

• tabiatdagi holatlар va ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi;

• relyativ mexanika asoslari;

• mexanika, elektr va magnetizm, tebranishlar va to'lqinlar;

• kvant fizikasi, statik fizika va termodinamika, issiqlik-massa almashinushi;

• mexanikada nisbiylik tamoyili, qattiq jism, suyuqlik va gazlar kinematikasi va dinamikasi;

• vakkumda va moddada elektostatika va magneostatika, integral, differensial moddiy tenglamalar;

• elektrodinamikada nisbiylik tamoyili;

• to'lqin jarayonlari kinematikasi;

• eritmalarda reaksiyalar, gidroliz, suvni dissovsiyasivi;

• tuzlar gidrolizi, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va turlari;

• kislota-asos reaksiyalari, bufer tizimlar va ularning xususiyatlari;

• kompleks birikmalar va ularni sifat analizda ishlatalishi;

• kimyoviy metodlar;

• kimyoviy muvozanat va unga ta'sir etuvchi omillar, kolloid birikmalarning xossa va xususiyatlari;

• qattiq jismlar va suyuqlik sirtlarida adsorbsiya;

• Koinot tuzilishi, Quyosh tizimi, sayyoralar **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

• kompleks o'zgaruvchilar va kompleks o'zgaruvchi funksiyalarini;

• matematik model, ekotizimlarda kechayotgan tabiiy va sun'iy hodisa va jarayonlarni modellashtirishni;

• muayyan jarayon uchun ehtimoliy modellarni, qurilgan model doirasida hisoblar olib borishni;

• informatika tushunchasi, maqsadi va vazifalarini;

• axborot to'plash, uzatish, qayta ishslash va jamg'arish jarayonlarining umumiyl tavsifini;

• internetda ishslash, ulardan ekologiya va tabiat muhofazasiga oid saytlarni topish, ma'lumotlarni to'plash va saqlashni;

• ekologik veb-saytlarni ochish va ularning ish faoliyatini ta'minlashni;

• turli darajadagi dasturlashtirish tilini, ma'lumotlar jamg'armasini, dasturiy ta'minot, dasturlashtirish texnologiyasi va kompyuter grafikasini;

• funksional va hisoblash topshirig'ini yechish modelini;

- yuqori tartibli hosila va differensiallarni;
- klassik mexanikada holat tushunchasi, harakat qonunlari, tenglamasi, saqlanish qonunlari, termodinamikaning uch qonunini;
- holat termodinamik funksiyasi, fazaviy muvozanat va fazaviy o'zgarishini;
- muvozanatsiz termodinamika unsurlari, klassik va kvant statikasini;
- kinetik hodisalar, zaryadlangan zarralar tizimi, kondensasiya holatini;
- fizikaning ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga tegishli qonunlari va qonuniyatlarini;
- kimyo fanining asosiy tushunchalari, uning maqsadi, obyekti va predmetini;
- atom-molekula ta'lomitini;
- Mendeleyevning elementlarni davriy tizimini;
- Yer qatlamida kimyoviy elementlarning tarqalish qonuniyatlarini;
- kimyoviy elementlar valentligini;
- Yer sayyorasining rivojlanish tarixi va geoxronologik jadvalini;
- Yer qobiqlari, geografik qobiq va uning vertikal tabaqlanishi – atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera va ularning xususiyatlarini;
- geografik qobiqning gorizontal tabaqlanishini;
- tabiiy geografik qonunyatlarini;
- inson va atrof tabiiy muhit, tabiat va jamiyat munosabatlarini;
- tabiiy-hududiy majmular va ulardan foydalanishni;
- tabiiy jarayonlar va ularning xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- obyektlarning miqdoriy va sifat munosabatlarini ifodalash uchun matematik simvollardan foydalanish;
- eksperiment ma'lumotlarini ishlab chiqishning asosiy usul va yo'riqlaridan foydalanish;
- sodda differensial tenglamalarni analitik va raqamli yechishni tadqiq etish;
- hisoblash texnikasi imkoniyatlarini dasturlashtirish va undan foydalanish hamda dasturiy ta'minot;
- eksperimental ko'satichilar yig'indisining son va miqdor tavsiflash;
- taqsimlanish qonunlari va statistik ma'lumotlarni tuzish;
- ma'lumotlar ishonchligini mezoni, dispers, korrelyasion va regress analizni, tajribalarni rejalashtirish;
- tajribaviy ma'lumotlarni qayta ishslashning asosiy usullarini qo'llay olish internetda ishslash, ulardan ekologiya va tabiat muhofazasiga oid saytlarni topish;
- ma'lumotlarni to'plash va saqlash;
- ekologik veb-saytlarni ochish va ularning ish faoliyatini ta'minlash;
- muqobil energiya manbalaridan foydalanishning fizik imkoniyatlari va ulardan amalda foydalanish yo'llari;
- biologik jarayonlarda organik birikmalarini o'mni va tasniflash;
- biosfera va geosferada sodir bo'layotgan jarayon va hodisalarning kimyoviy jihatlari;
- atmosfera havosi ifloslanishining kimyoviy baholash metodlari va ularni qo'llash yo'llari;
- suv obyektlarining kimyoviy ifloslanishi va ularni analitik yo'l bilan baholanish;
- tuproqlarni kimyoviy ifloslanishi va uni aniqlash yo'llari, geokimyo va biokimyo tushunchasi, umumiyligi va xususiy tomonlari;
- umumiy Yer bilimining ekologik jihatlari – mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyati ***haqidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

5.2.3. Umumkasbiy fanlar bo'yicha talablar

Bakalavr:

- tirik organizmlarning umumiy xossalari;
- tirik va notirik materiyaning fundamental birligi to'g'risida, tirik sistemalarni tashkil etish;
- organizmni funksional birligi, sistemalarning o'zaro ta'siri va bog'liqligi;
- mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvonlarni klassifikasiya qilish qoidalari;
- yerda tirik organizmlarni paydo bo'lishining asosiy nazariyalari;
- evolyusion qarashlar va evolyusion konsepsiyalarni taraqqiyoti, evolyusiya nazariyasi, evolyusion sistematik nazariyani paydo bo'lishi;
- prokariot va eukariot organizmlarda hujayra tuzilishi, ularning o'xshashliligi va farqlari;
- tirik hujayraning kimyoviy tarkibi va uni hayotiy jarayonlarida biokimyoviy reaksiyalarning ahamiyati;
- irsiyat va o'zgaruvchanlikning qonunlari va mexanizmi;
- bakteriya va viruslarning tuzilishi, ko'payishi, sistemaktikasi va fiziologiyasi;
- yuksak va tuban o'simliklarning tashqi va ichki generativ organlarining tuzilishi, ularni kelib chiqishi va taraqqiyoti;
- o'simliklarning kelib chiqishi, evolyusiyasi va boshqa tirik organizmlar bilan evolyusion bog'liqligi;
- o'simliklarning yashash muhitida tarqalishi;
- hayvon organizimining anatomik tuzilishi va ularni o'zaro ta'sirlanish mexanizmi;

- hayvon organizimining hayotiy jarayonlarida nerv va gumoral sistemalarining ahamiyati;
- umurtqali va umurtqasiz hayvonlarda sistematik guruhlar vakillari;
- tirik organizmlarning ekologik guruhları;
- Yerning har xil geografik zonalari flora va faunası;
- tirik organizmlarga atrof-muhitning abiotik, biotik va antropogen omillarning ta'siri;
- biosferada mikroorganizmlar, o'simlik va va hayvonlarning roli;
- biosferadagi modda almashinuvi;
- hujayraning kimyoviy tarkibi, gormonlar, nuklein kislotalar, vitaminlar, uglevodlar, yog'lar, oqsillar, fermentlar va modda almashinuvi;
- o'simliklarda sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlar;
- odam va hayvonlar organizmidagi organlar tizimi xususiyatlari va ularda kechadigan fiziologik jarayonlar;
- biologik jarayonlarni fizikaviy asoslari;
- tirik organizmlar va ularda kechadigan biologik jarayonlardan texnologik asos sifatida foydalanish;
- ekotizimlar biologik komponentlarining abiotik va biotik omillar bilan bog'liqligi;
- biosfera evolyusiyasi va biosferada moddalar almashinuvi;
- Yerning koinotda va quyosh sistemasida joylashishi;
- gidrosfera, litosfera, atmosfera va uni xossalari;
- monitoring milliy sistemasini tashkil etish;
- ekotizimlar chidamliligi va o'zini qayta tiklash xususiyati;
- tabiiy va tabiiy-antropogen landshaftlar;
- «tabiat-jamiyat» tizimining o'zaro uzviy bog'liqligi va koevolvusiyasi;
- tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning qonunlari, qoida va tamoyillari;
- ekologik-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi asoslari **haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak:**
- tirik organizmlarning har xil guruhlari orasidagi evolyusion bog'lanishlar;
- biologik sistemalarda matematik modellashtirishning asosiy prinsiplari;
- hujayralarni tuzilishi va taraqqiyotining asosiy qonunlari;
- tiriklikning xususiyatlari, o'simlik va hayvonlar evolyusiyasining asosiy bosqichlari;
- organizmlar va jamoalarни o'rganishda biologik, fiziologik va ekologik metodlardan foydalanish;
- Respublika va dunyo tuproq turlari morfologiysi, tarkibi va klassifikasiyalash xususiyatlari;
- biosferaning bir butunligiga inson faoliyati ta'siri natijalari;
- insonning biososial tabiatni xususiyatlari;
- yuqori va tuban o'simliklarni yig'ish va fiksasiya qilish yo'llari;
- o'simliklarning gullashi biologiyasining asosiy metodlari;
- hayvonlarni yig'ish va kuzatishning asosiy metodlari;
- o'simlik va hayvonlarning asosiy guruhlarini aniqlash;
- hayvonlar jamoalarini o'rganishning sodda metodlari;
- organizm, to'qima va hujayrani o'stirish metodlari;
- tuproqning hosil bo'lishi omillarining roli va ahamiyati;
- organik moddalar mineralizasiyasida mikroorganizmlarning ishtiroy etishi;
- tirik organizmda bo'ladigan tabiiy va patologik jarayonlarni o'rganishda fiziologik izlanish metodlari;
- asosiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni;
- uglevod, oqsil, yog'lar, nuklein kislotalar, vitaminlar, garmonlar va fermentlar tuzilishi va funksiyasi;
- o'simliklarda kechadigan fiziologik jarayonlarni mohiyatini;
- hayvon va odam organizmida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarning mohiyatini;
- omillar ekologiyasini;
- populyasiya mohiyatini, undagi jarayonlarni;
- organizmlarda kechadigan biologik jarayonlarni biofizik mohiyatlarini;
- gen va hujayra muxandislik enzimologiyasi va ekobiotehnologiyani maqsad va vazifalarining ayrim tadqiqot usullarini;
- biosferaning biologik mahsulorligi, insoniyatning ozuqa resurslar bilan ta'minlanishi;
- flora va fauna turlar tarkibining o'zgarishi, ekotizim barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlar, ekotizimdagи jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari;
- ekotizimda ozuqa zanjiri va trofik aloqalar;
- atrof-muhitni monitringi mezonlari;
- kompyuter programmalari vositasida ekotizimlar xolatini kuzatish va taxsil qilish;
- tabiatdan foydalanishning ekologik prinsiplari;
- suv va yer resurslarini baholash usullari;
- tuproq eroziyasiga qarshi kurash va eroziyaga qarshi tadbirlar;
- sug'oriladigan territoriyalarning suv-tuz balansini hisoblash usullari;
- atrof-muhit va insonning fizik, kimyoviy va biologik hodisalarning zarali ta'siridan muhofaza qilishning vositalari va usullarini **bilishi va foydalana olishi**;
- o'simliklar va xayvonlar kolleksiyalarini yig'ish;
- eksperimental hayvonlarni kuzatish, qarash va muloqotda bo'lish;

-o'simliklarni o'stirishda mustaqil laboratoriya tajribalarini qo'yish;
 -dala sharoitida o'simlik va hayvonot dunyosini vakillarini aniqlash;
 -o'simlik turlarining botanik tavsifini va sistematik holatini bilish;
 -tabiatda mustaqil ekologik kuzatishlar;
 -o'simlik va hayvonlarning aniqlagichi bilan ishlash;
 -qishloq xo'jalik o'simliklarini morfologik xususiyatlari va urug' orqali aniqlash;
 -o'simliklarning vegetativ ko'paytirish yo'llaridan foydalanish;
 -biologik jarayonlar va xodisalarni o'rganishda fiziologik uslublardan foydalanish;
 -optik, o'lchaydigan va boshqa asbob-uskunalaridan foydalanish;
 -o'qitishda texnik vositalardan foydalanish;
 -tanlangan mavzu bo'yicha kasbiy faoliyatda bilimlarni amaliyotga tadbiq etish;
 -tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhini tayyorlay bilish va referatlarni yoza bilish;
 -kompyuter texnikasidan va informasion sistemalardan foydalanish;
 -biologik materiallarda turli xil makromolekulalarni sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash;
 -o'simliklardiagi biologik jarayonlar va hodisalarni o'rganishda fiziologik uslublardan foydalanish;
 -odam va hayvonlar fiziologiyasini o'rganishda asbob va uskunalar bilan mustaqil ishlash;
 -tajribalarni rejalash va modellash;
-biotexnologik jarayonlarga qo'llaniladigan asbob-uskunalarini ishlatisht;
 -organizm va jamoalarini o'rganishda biologik, fiziologik va ekologik usullardan foydalanish;
 -eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlashning usullaridan foydalanish;
 -suv ekotizimlarining mahsuldarligi va biomassasini aniqlashni har xil usullardan foydalanib baholash;
 -tuproqdagagi jarayonlarni har xil uslublar orqali o'rganish va tahlil qilish, tuproq xaritalarini o'qish;
 -atrof-muhit ifloslanishi mezonlarini ishlab chiqish;
 -atrof-muhit ekologik monitoringini o'tkazishda ekologik normativlardan foydalanish;
 - geosistemalarni analitik tadqiq qilish va landshaftlar holatini baholash;
 -yer va suv zahiralariga tabiiy omillar va antropogen omillar ta'sirini baholash va ular holatini bashorat qilish;
 -tabiat muhofazasi bo'yicha tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

5.2.4. Ixtisoslik fanlari bo'yicha talablar

Bakalavr:

- omillar ekologiyasi, chekllovchi omillar, ekologik omillar, tolerantlik tushunchasi, biogeokimyoiyik sikllar, ekologik taxmon (nisha), fotodavriylik, adaptasiya prinsiplari;
 - populyasiyalar ekologiyasi, statik va dinamik ko'rsatkichlari, populyasiya zichligi, populyasiya hayotchanligi, gomeostazi, populyasiyaning: maydonga oid, yoshga oid va jinsiga oid tuzilishi, populyasiyaning genetik geterogenligi;
 - ekologik tizimlar tuzilmasi, oziq zanjirlari, energiya oqimi, biogen moddalar aylanmasi, ekologik piramidalar, mahsuldarlik, ekotizimning rivojlanishi, suksessiya va klimaks tushunchalari;
 - biosferaning tuzilishi, evolyusiyasi;
 - ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ekologik tadqiqotlarni o'tkazish zarurati;
 - ekologik metodlar haqidagi ta'limot – ekologik metodologiya;
 - atrof-muhit muhofazasini muhofaza qilish masalalari tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollari;
 - ekologik inqirozlarning kelib chiqishi va ularni bartaraf qilish yo'llari;
 - o'simliklar va hayvonlar ekologiyasining asosiy muammolari;
 - organizmlarning yashash muhitiga moslashish xususiyatlari;
 - o'simlik va hayvonlarning hayotiy shakkllari;
 - shahar ekologiyasi faoliyatining xususiyatlari;
 - suv xavzalarining o'z-o'zini biologik tozalanishi;
 - organizmlarning ekologik omillarga adaptasiyasi;
 - ochiq ekologik sistemalarning xususiyatlari;
 - ekologiyada izlanishlar jarayonida eksperimental va ilmiy usullardan foydalanish;
 - kam chiqindili energiyadan hamda zahira saqlovchi texnologiyalarni yaratishning zamonaviy yo'llari;
 - suv havzalarini tozalash uslublari;
 - atrof-muhit va aholining o'zaro bir-biriga ta'siri;
 - ijtimoiy muammolarni hal qilishda ekologik qonunlarning ahamiyati;
 - barqaror rivojlanish;
 - ekologik ekspertiza haqida tasavvurga ega bo'lishi.
- ekologik siyosat va hamkorlik tushunchasi, mazmuni va mohiyatini;
 - O'zbekistonning ekologik siyosati nimalardan iborat ekanligini;
 - ekologik munosabatlarni tartibga solish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda geosiyosiy ish yuritishning avzal tomonlarini;

- ekologiya va atrof muhit muhofazasi borasida respublikamizning xalqaro hamkorligini;
- O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar va ularning ekologik sohadagi ishlarini;
- transchegaraviy tabiiy resurslardan foydalanish va regional xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini;
- jamiyat va tabiat, din va tabiat, jamoa va tabiat, inson va tabiat munosabatlarini tartibga solishning zamonaviy holatini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- turli tabiiy sferalar, iqtisodiyot tarmoqlarida atrof-muhit muhofazasining dolzARB muammolari va ularning yechimini topishning zamonaviy yo'llari;
- atrof-muhit muhofazasining tadqiqot metodlari mazmuni va mohiyati;
- tabiatdan foydalanishning zamonaviy tadqiqot metodlari;
- real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik sharoitdan kelib chiqqan tarzda ekologik tadqiqot metodlarini tanlash va ularni olib borish yo'llari ***haqida ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

6. Ta'lIM dasturining mazmuni va komponentlari

6.1. 5630100 –Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (fan va ta'lIM) ta'lIM yo'naliishi bo'yicha bakalavrлarni tayyorlashning ta'lIM dasturi ta'lIMning kunduzgi shakli bo'yicha 4 yil o'qishga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi vaqt taqsimotiga ega:

Nazariy ta'lIM va amaliy ta'lIM	136 hafta
Malakaviy amaliyot	24 hafta
Attestasiya	16 hafta
Bitiruv malakaviy ishi	5 hafta
Davlat attestasiyasi	3 hafta
Ta'tillar	32 hafta
Jami	204 hafta

6.2. Talaba haftalik o'quv yuklamasining maksimal hajmi 54 soat, shundan auditoriyadagi o'quv yuklamasi –30(32) soat, qolgan soatlar hajmi mustaqil ta'lIM uchun ajratiladi.

6.3. Joriy, oraliq va yakuniy attestasiyalarni hisobga olgan holda ta'lIM dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun xtaftalik o'quv yuklamalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6.4. Ta'lIM dasturini o'zlashtirishda bir qator masalalar yoki integrallashtirilgan kurslar muammolari bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi ko'zda tutiladi.

6.5. 5630100 –Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (fan va ta'lIM) ta'lIM yo'naliishi bo'yicha ta'lIM dasturining zaruriy mazmuni

6.5.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning zaruriy mazmuni «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar» bloki bo'yicha bakalavrлar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

6.5.2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar

6.5.2.1. Oliy matematika

Asosiy algebraik tuzilmalar, ayrim fazoviy va chiziqli ifodalar; analitik geometriya, chiziqlar va sirlarning differensial geometriyasi, topologiya elementlari; mantiqiy hisoblash, grafalar, algoritmlar nazariyası, tillar va grammatikalar, avtomatlar, kombinatorika; differensial va integral hisoblash, funksional tahlil elementlari va differensial tenglamalar; tasodifiy jarayonlarning modellari, farazlar tekshirish, yuqori tartibdagи o'xshatishlar tamoyili, eksperimental ma'lumotlarga ishlov berishning statistik metodlari.

6.5.2.2. Informatika va axborot texnologiyalari

Informatika tushunchasi, maqsadi va vazifalari; axborot to'plash, uzatish, qayta ishslash va jamg'arish jarayonlarining umumiy tavsifi; informasion jarayonlarni amalga oshirishning texnikaviy va dasturiy vositalari; funksional va hisoblash masalalarini yechish modellari; algoritmlash va dasturlash; yuqori darajada dasturlash tillari, ma'lumotlar bazasi, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyasi; kompyuter grafikasi asoslari; internetda ishslash, ulardan ekologiya va tabiat muhofazasiga oid saytlarni topish, ma'lumotlarni to'plash va saqlash; ekologik veb-saytlarni ochish va ularning ish faoliyatini ta'minlash. Tabiat va jamiyatda kechayotgan va ekologik xavfsizlikka ta'sir qilayotgan jarayon va hodisalarni modellashtirish yo'llari, metodlari va amaliy tadbiqlari.

6.5.2.3. Fizika

elektr va magnetizm: vakuumda va moddada elektostatika va magneostatika, integral va differential ko'rinishdagi Maksvell tenglamalari, moddiy tenglamalar, kvazistasionar toklar, elektrodinamikada nisbiylik tamoyili;

tebranish va to'lqinlar fizikasi: garmonik va nogarmonik ossillyator, spektral yoyimaning fizikaviy manosi, to'lqin jarayonlari kinematikasi, me'yoriy modlar, to'lqinlar interferensiyasi va difraksiyasi, Furey optikasi elementlari;

kvant fizikasi: korpuskulyar-to'lqin dualizmi, noaniqlik tamoyili, kvant holatlari, superpozisiya tamoyili, harakatning kvant tenglamalari, fizikaviy kattaliklar operatorlari, atomlar va molekulalarning energetik spektri, kimyoviy bog'lanish tabiat;

statik fizika va termodynamika: termodynamikaning uch qonuni, holat termodynamik funksiyasi, fazaviy muvozanat va fazaviy o'zgarish, muvozanatsiz termodynamika unsurlari, klassik va kvant statikasi, kinetik hodisalar, zaryadlangan zarralar tizimi, kondensasiya holati.

6.5.2.4. Umumiyligining va noorganik kimyo

Umumiyligining va noorganik kimyo fanining asosiy tushunchalari; atom-molekula ta'limoti; kimyoning asosiy stixeometrik qonunlari; yer qatlamida kimyoviy elementlarning tarqalishi; atomlarning tuzilishi; D.I.Mendeleyevning elementlar davriy qonuni va davriy sistemasi; asosiy va qo'shimcha guruhchasi elementlari, kimyoviy bog'lanish va ularning asosiy turlari: kovalent, ion, metall, vodorod; kimyoviy elementlar valentligi; kimyoviy termodynamika va kinetikaning asosiy masalalari; gomo va geterogen kimyoviy reaksiyalar tezligi haqida tushuncha; massalar ta'siri qonuni; kimyoviy reaksiyalar tezligiga ta'sir qiluvchi omillar. Eritmalar konsentrasiyasini ifodalash va hisoblash usullari, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tiplari.

→ Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Talabalar bilimini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Ko'l deb nimaga aytildi?
- 2.Suv oekti deb nimaga aytildi?
- 3.Ko'llar kattaligiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
- 4.Ko'l havzasining kelib chiqishiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
- 5.Ko'lning qirg'og'iga nima deyiladi.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Ko'l suvi massalarinng o'zgarish sabablari.
2. Ko'l qirg'og'i gidrobiologiyasining inson uchun ahamiyati.
3. Ko'llarni ifloslanish manbalari va ularni bartaraf qilish yo'llari.

M A ‘ R U Z A – 3.

Mavzu: Gidroekologik rejim va jarayonlar.

R E J A

1. Ko'llar suv balansining qismlarga bo'linishi.
2. Ko'llarda suv sathining o'zgarishi.
3. Ko'l suvining oqimi.

TAYaNCh IBORALAR.

Kirish qismi, chiqish qismi, suv almashinishi, suv sathining o'zgarishi, ko'l suvining oqimi, oqadigan ko'llar, filtrasiya, oqmaydigan ko'llar, ko'l suvining ko'tarilishi va pasayish intensivligi, suv bug'ining kondensasiyası, antropogen chiqindi suvlar.

1. KO'LLARDAGI SUV BALANSINING QISMLARGA BO'LINISHI.

Ko'lning chuqurligi – ko'lning har joyida u har xil.

Maksimal chuqurlik

O'rtacha chuqurligi

Ko'rsatib o'tilgan barcha morfometrik hususiyatlari ko'ldagi suv sathining balandligi va o'lchamiga bog'liq bo'ladi.

KO'LLARNING SUV BALANSI.

Suv balansining tenglamasi. Har qanday ko'llarning suv balansi 2 qismga bo'linadi. 1) kirish qismi, 2) chiqish qismi.

1) Kirish qismini atmosfera yog'inlari, er yuzasidan oqib keladigan suvlar, ko'lning suv yuzasidan suv bo'g'ining kondensasiyası, er ostidan oqib keladigan suvlar tashkil qiladi. Er yuzasidan oqib keladigan suvlar tabiiy (daryo suvlari) va antropogen (chiqindi suvlar masalan; ekinlar sug'orishdan chiqqan suvlar, sanoat yoki kommunal) suvlar tashkil qiladi.

2) Chiqish qismini (oqadigan ko'llar) – er yuzasidan oqib ketadigan suvlar er tagidan oqib ketadigan suvlar (filtrasiya), ko'l suvi sathidan suvning bug'lanishi tashkil qiladi. Er yuzasidan oqib chiqadigan suvlarga daryolar orqali oqib chiqadigan va xo'jalik ehtiyojlari uchun yig'iladigan suniy suv havzalariga oqib chiqadigan suvlar kiradi. Ko'lning suv balansi undagi suv zahirasining o'zgarishi bilan belgilanadi.

Oqmaydigan ko'llar uchun ham suv balansi shu tenglama bilan hisoblanadi, faqat chiqish qismida ko'ldan chiqib ketadigan suv ko'rsatilmaydi. Misol tariqasida Kaspiy ko'li suv kirish va suv chiqish balansi birday bo'lgan. 1930-1941 yillarda vaziyat keskin o'zgargan, ya'ni suv sathi kamayishi hisobiga bug'lanish ham kamaygan. Keyingi yillarda ham Kaspiyga suvning kelib tushishi undan suv chiqib ketishiga nisbatan kam bo'lib qolavergan va bu holat 1977 yilgacha davom etgan.

1978 yildan boshlab Kaspiy dengizining suvi ko'tarila boshladi. 1978-1986 yillarda suv sathi 1,2 m. ko'tarildi. Bu atmosfera yog'inlarining Volga daryosi atrofidagi rayonlarda va Kaspiy dengizi ustida birmuncha ko'payganligidir deb izohlanadi. 1978-1989 yillarda suv sathining ko'tarilishi 1,4 m.ga etdi va so'nggi yillarga kelib ko'tarish intensivligi ancha pasaydi.

KO'LLARDAGI SUV BALANSINING STRUKTURASI.

Ko'llarda suv balansining strukturasi deganda suv balansi tenglamasidagi suv kirish va chiqish o'rtasidagi nisbat tushuniladi. Bunda tenglamaning ikkala tomonida ham yog'in va parchalanishning ulushi qo'shib hisoblanishi kerak.

KO'LNING SUV ALMASHINISHI.

Ko'lning suv almashinishi unga tashqaridan keladigan suvning undan chiqib ketadigan suvgaga nisbatan ahamiyati bilan xarakterlanadi.

2. KO'LLARDA SUV SATHINING O'ZGARISHI.

Ko'llarda suv sathining o'zgarishi uning eng asosiy hususiyati bo'lib hisoblanadi. Suv sathining maydoni deganda, suv hajmining qonuniy o'zgarishi hamda suv oqimi va to'lqinining xususiyati tushuniladi. Ko'lning suv rejimi uning gidroximik, gidrobiologik, issiqlik va boshqa komponentlarining o'zgarishlari bilan birgalikda uning qonuniy o'zgarishini shakllantiradi va bunga ko'lning gidroekologik rejimi deyiladi. Ko'ldagi suv sathining o'zgarishi uning xo'jalik ahamiyatini ham aniqlaydi. Sug'orish, sanoat va kommunal maqsadlarda foydalanish ham shunga bog'liq bo'ladi.

Suv sathining o'zgarishi uning kelib chiqishiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

1) Ko'ldagi suvning umumiy hajmi, massasining o'zgarishi bilan aloqador bo'lgan o'zgarishi, ya'ni suv rejimini tashkil qiluvchilarning o'zgarishi.

2) Ko'ldagi suv umumiy xajmi, massasining uzgarishi bilan boglik bo'lmanan o'zgarish, ya'ni umumiy suvhajmining ko'lda qayta taqsimlanishi tufayli kelib chiqqan o'zgarish.

Birinchi guruh o'zgarish avvalambor iqlimi sabablarga bog'liq bo'ladi, jumladan yog'inlar natijasida ko'lga quyiladigan daryolar suvini oshishi va ko'l atrofidagi hududlar umumiy namligining oshishi. Suv sathining bunday o'zgarishi ko'p yillik va mavsumiy bo'lishi mumkin. Ikkinchchi guruhga ko'ldagi suvning shamol ta'sirida ko'tarilishi va joydan-joyga ko'chishi kiradi.

3. KO'L SUVINING OQIMI.

Ko'ldagi suvning oqimiga sabab shamol, ko'lga quyiladigan daryolarning oqimi, suvning minerallanishi va haroratining noto'g'ri taqsimlanishi hamda atmosfera bosimidir. Shamol ta'sirida yuzaga keladigan oqimga dreyf oqimi deyiladi. Shamolning tezligi va shamol ta'sirida yuzaga keladigan oqimning tezligi o'rtaqidagi bog'liqlik quyidagi formula bilan topiladi,

bu erda K-shamol koeffisienti odatda, bu koeffisient ko'llar uchun 0,01-0,02 ga teng bo'ladi. Ko'llarda shamol ta'sirida yuzaga keladigan oqimning tezligi 0,5 m/s gacha etadi. Shamol tingandan so'ng ko'lning suvi yana o'z holiga qaytadi va seysh oqimini hosil qiladi. Bunday oqimning tezligi katta bo'lmasada qisqa joylarda 1 m/s ga etadi. Ko'lga quyiladigan daryolar gravitasion oqimni hosil qiladi. Bunday oqimning tezligi quyiladigan daryolar oqimining tezligiga bog'liq bo'ladi va daryolarning quylish joyida 1-2 m/s ni tashkil qiladi. Ko'l suvining harorati har joyda har xil bo'lishi sababli zichlik oqimi vujudga keladi, jumladan qirg'oqqa yaqin joylarda suv harorati ko'lning o'rtaqidagiga nisbatan yuqori bo'ladi. Haroratning bunday taqsimlanishi gorizontal sirkulyasiyani vujudga keltiradi va bunda oqim Kariolis kuchi ta'sirida soat strelkasi harakatiga qarama-qarshi harakat qiladi. Bunday okimga kariolitik okim deyiladi. Suvning sovishi davrida qachonki suvning harorati qirg'oqlarga yaqin joylarda ko'lning o'rtaqidagiga nisbatan past bo'lsa, bunda soat strelkasi yo'nalishida gorizontal sirkulyasiya vujudga keladi. Bunday oqimlarning tezligi masalan, Ladoga ko'lida m/s, Baykal ko'lida m/s ni tashkil qiladi.

Materiklardan okeanlarga oqib kelayotgan suvning bir qismi ma'lum vaqt mobaynida telefning chuqur qismlarida to'planib, ko'llarni hosil qiladi.

Ko'llarning katta-kichikligiga, chuqurligiga, suvning ximik tarkibiga temperatura rejimiga ko'ra nihoyatda har xilligi, daryolar bilan bog'langan yoki bog'lanmaganligi tirik organizmlar hususiyatini faqat ekologik sharoit yaratadi. Biroq tirik organizmlar hususiyatini faqat ekologiya bilan izohlab bo'lmaydi. Chunki ekologiyaning o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri ularning tarixiy rivojlanishi jarayonida turlicha bo'lgan. Ko'llar odatda uzoq turmaydi, shuning uchun ulardagi ekologik sharoit ta'siri organizmlar shaklinigina o'zgartiradi, lekin bu jarayon tur hosil bo'lishigacha davom etmaydi. Boshqa ko'llarda hayot sharoiti yaqqol zonalikkiga ega. Ko'llar quyidagi zonalarga bo'linib, a) organizmlari juda kam zonalar, b) organizmlar keng tarqalgan zonalar.

O'zbekiston hududida ko'llar nisbatan kam bo'lib, ular notekis joylashgan. Jumhuriyatimizda joylashgan ko'llarning aksariyati kichik bo'lib maxalliy ahamiyatga ega. O'zbekiston hududidagi ko'llar xavzasining (kotlovinasining) paydo bo'lishi jihatidan bir xil emas, lekin ularning ko'pchiligi tekislik qismida daryo vodiylarida joylashgan qayir ko'llardir. Aksincha, jumhuriyatimiz tog'li qismidagi ko'llar esa to'siq (tug'on), morena va tektonik ko'llardir.

O'zbekiston hududidagi ko'llar soni (5360 ta ko'l) 100 % desak, shuning 56,5 % i uning tekislik qismida, 43,5 % i tog'lik qismida joylashgan. Lekin suv yuzasi maydonining kattaligi jihatidan tekislikdagi ko'llar kup bo'lib, 67 % ni tashkil etadi. O'zbekiston hududining tekislik

va tog'li qismidagi ko'lllar notekis qismining 1000-2000 m. balandliklarida (82 ta ko'l mavjud), kamroq, 2000-3000 m. baland qismida esa ko'proq (165 ta) ko'l mavjud, 3000 m. dan baland qismida esa ko'p (2083 ta) ko'l joylashgan. Lekin bu ko'lllar maydoni kichik bo'lib, ularning eng muhimlari Isfayram daryosi havzasidagi Yashil ko'l, Chirchiq havzasidagi Shovurkul, Nixnach, Karataka, Chotqol 1, Chotqol 2 ko'li, Shoximardon yaqinidagi Qubbonkul, Oxangaron havzasidagi Arashan, Sherobod havzasidagi Kambeshbuloq ko'li, Shurkul, Korakul, Xojobkul, Farg'ona vodiysidagi Axsikentkul, Damkul, quyi Amudaryodagi Sarikamish, Karp, Ziykul, Abilkul, Okkul, Zokirkul va boshqalar. Bu ko'lllar kichik bo'lib, maydonining kattaligi bir necha 100 hektardan 10 km² gacha etadi.

O'zbekiston hududidagi eng katta tektonik yo'l bilan vujudga kelgan ko'l – Orol dengizidir.

Orol dengizi – Turkistondagi eng katta ko'l bo'lib, suv sathi 53,4 m. balandda bo'lganda maydoni 66,1 ming km², eng keng joyi 292 km, o'rtacha sho'rligi 10-14 % ni tashkil etadi. Suv hajmi 1062 km³ edi. Orol ko'lining hamma qirg'oqlari bir xil emas. Uning shimoliy-sharqi, sharqi va janubiy qirg'oqlari tekis va past. Aksincha, g'arbiy qirg'og'i baland va tik. Chunki Orolning g'arbiy qirg'og'iga Ustyurt balandligini sharqi jarligi tik tushgan. Ba'zi erlarda Ustyurtning jarliklari Orol dengizidan 190-195 m. balandlikda turadi. Orolda 313 dan ortiq katta va kichik orollar mavjud. Ularning eng kattalari Ko'korol, Vozrojdenie, Borsakelmas orollaridir. Bu orollarning maydoni Orol suv sathining pasayishi munosabati bilan kattalashib bormoqda. 1961 yil Ko'koroliniki 216 km². Borsakelmas oroliniki 135 km² edi.

1961 yilgacha (suv sathi 53,4 m. bo'lganda) Orol dengiziga 38,6 km³ Amudaryo suv va Sirdaryo 13,2 km³ suv kelib quyar edi. Orol yuzasiga tushayotgan yog'inlardan esa yiliga 5,8 km³ suv vujudga kelar edi. 1975 yilga kelib 10,6 km³, 1985 yili 2,4 km³. 1986 yili 0,4 km³ suv quyilgan. Oqibatda 1961 yildan boshlab Orol suv sathi yiliga 40-70 sm. atrofida pasaya boshladи. 1992 yilga kelib uning suv yuzasi 15,3 m.ga pasaydi. Suv hajmi qisqarib 302 km³ tushib, aksincha sho'rligi ortib 34-37 % ga ko'tarildi. So'nggi yillarda Orol suv sathini ma'lum yuzada saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlarning ko'rilishi tufayli Amudaryo va Sirdaryo yana Orolga ko'proq suv quya boshladи. Orol dengiziga har yili (1991) 32-33 km³ atrofida suv quyilishi kerak. Orol suv sathining pasayishi juda katta salbiy oqibatlarga olib keldi; bu xol tevarak iqlimiga salbiy ta'sir etmoqda. 1961 yil Muynoqda yanvarning o'rtacha harorati -4,4° edi, hozir -8,3°. Natijada Orol bo'yida bahorgi sovuq tushish 10-12 kunga cho'zilib, kuzgi sovuq tushishi 10-12 kun erta boshlanmoqda.

MUSTAXKAMLASh UChUN SAVOLLAR.

1. Ko'lning suv balansi qanday qismlardan iborat:
2. Ko'lda qanday oqimlar mavjud.
3. Suv sathining o'zgarishi kelib chiqishiga ko'ra qanday qismlarga bo'limadi.

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu 4. Ko'llarning issiqlik va tuz balansi.

Vaqt: 80 min.	Talabalar soni: 21 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli - ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	<p>87. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 88. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 89. Ma'ruza matnini tarqatish 90. Ma'ruzani Power Point taqdimoti bo'yicha olib borish. 91. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord 92. Ko'llarning issiqlik stratifikasiyasi. 93. Ko'llar suvining mineralanishi.</p>
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi: O'quv fani to'g'risida umumiylashtirishni berish</i>	

Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - Gidroekologiya (GE) fanining ahamiyati va vazifalari, uni o'quv fanlar tizimida tutgan o'mni bilan tanishtirish; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash; - GE nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritish; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash shakllarini ochib berish; - GE tarixi bilan tanishtirish; - GE predmeti tasnifini berish; - GE vazifa va usullarini tushuntirish; - GE boshqa fanlar bilan aloqasi ochib berish 	O'quv faoliyat natijalari: <ul style="list-style-type: none"> - GE fanning ahamiyati va vazifalarini ifodalaydilar; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlaydilar; - GE nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritadilar; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash mezonlari va shakllarini yozib oladilar; GE kelib chiqish tarixini aytib beradilar; GE predmetini tasniflaydilar; GE vazifalari va usullarini aytib beradilar; GE ning boshqa fanlar bilan aloqasi tartibli ravishda oolib beradilar
Ta'lism usullari	Ma'ruba, pinbord, aqliy hujum
Ta'limi tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim vositalari	Ma'ruba matni, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus xona
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor - so'rov.

Ma'lumotli kirish - ma'ruzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	ta'lim oluvchilar
	ta'lim beruvchi	
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daq.)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Taqdimot bo'yicha ekranga fanning tuzilmayi-mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tavsif beradi, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarni tushuntiradi.</p> <p>Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari</p> <p>(№ 1.1 ilova) bilan tanishtiradi.</p> <p>Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.</p> <p>1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi.</p> <p>1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishni taklif etadi va bilimlarni faollashtiradi. (№ 1.2 ilova) Aqliy hujum usuli qoidasini (№ 1.3 ilova) eslatadi. Barcha aytilyayotgan takliflarni yozuv taxtasiga yozib boradi. Ushbu ish mashg'ulot yakunida tugatilishini ma'lum qiladi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (50 daq.)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruba matnini tarqatadi va uning rejasи, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi.</p> <p>2.2. Slaydlarni Power Pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jalg qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi; berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.</p> <p>2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'limgan</p>	<p>O'qiydilar.</p> <p>Tinglaydilar, jadval va chizmalarini daftarga ko'chirib oladilar.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar.</p>

	va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinboard) kiritadi (№1.4 ilova).	Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Talabalar bilimini tezkor savol-javob orqali baholaydi (№1.5 ilova).</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi (№1.6 ilova). va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

Illova 1.1

BAXOLASH MEZONLARI

Nº	Nazorat turi	Ball	Nazorat ishi	Uy ishi	Mustaqil ish	Darsda faolligi	Amaliy ish
1	JN-1	16	3	2	3	4	4
2	JN-2	19	3	3	3	4	6
3	ON-1	35	7	7	7	7	7
4	YN	30	30				

Illova 1.2

Talabalar bilimini faollashtirish uchun tezkor savollar

- Ko'l suvi sho'rligining forel klassifikasiyasi?
- Ko'llarning mineralanish bo'yicha klassifikasiyasi?
- Suv sho'rligiga gidrobiontlarning moslanishi?
- Ko'l suvining issiqlik stratifikasiyasi.

Illova 1.3

Aqliy hujum qoidasi:

Hyech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma, hamma aytigan g'oyalalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaqa chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni "jo'sh urishiga" ruxsat ber!

Illova 1.4

Пинборд (инглизчадан: *pin*- маҳкамлаш, *board* – ёзув таҳтаси) мунозара усуллари ёки ўқув сұхбатини амалий усул билан мослашдан иборат.

Ta'lim beruvchi:

→ Taklif etilgan muammoni echishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.

→ Ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'lmasan) yozadilar va yozuv taxtasiga birkirtadilar.

→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruholaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

→ Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Illova 1.5

Talabalar bilimini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Issiq ko'llarda suvning harorati qancha bo'lishi kerak?
- 2.Sho'r suvli ko'llar deb nimaga aytildi?
- 3.Ko'lllar kattaligiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
- 4.Ko'l havzasining kelib chiqishiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
- 5.Ko'lning qirg'og'iga nima deyiladi?

Illova 1.6

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Dunyodagi eng katta ko'llarni tavsiflab chiqing.
2. Suv obektlari va gidroekologik xodisalar tugrisida.
3. Kullar, ularning joylanishi, turlari va axamiyati.

M A ' R U Z A – 4.

Mavzu: Ko'llarning fizik-geografik xususiyatlari, suv va issiqlik rejimi, minerallanish xususiyatlari, mahofaza qilish choralarini.

R E J A.

- 1. Ko'llarning issiqlik bilansi.**
- 2. Ko'llarning issiqlik stratifikasiysi.**
- 3. Ko'llarning minerallanish bo'yicha klassifikasiyalanishi.**
- 4. Ko'llarning tuz balansi**
- 5. Ko'llarning hidrobiologik hususiyatlari va suv massasi.**

TAYANCH IBORALAR..

Issiqlikning kirish qismi, issiqlikning chiqish qismi, to'g'ri yo'nalishi, teskari yo'nalishi, gomotermiya, polyar, tropik, rap ko'llar. Oligotrof ko'llar, evtrof ko'llar, distrof ko'llar, mizotrof ko'llar. Epilimnion, gipolimnion, metalimnion.

1. KO'LNING ISSIQLI BALANSI.

Ko'lning issiqlik balansiga kelib qo'shiladigan eng asosiy energiya bu Quyosh radiasiyasidir. Bundaen tashqari, issiqlik almashinishda atmosferadan kelib qo'shiladigan issiqlik, daryo oqimidan va er osti suvlaridan keladigan issiqlik, suvning parchalanishida va muzlanishida ajraladigan issiqlik. Ko'llarda issiqlik quyidagilarga sarflanadi. Quyosh nurining qaytarilishiga, atmosferada issiqlik almashinishiga, suv bilan chiqib ketadigan issiqlik. Bir qismi esa erga singadigan suv bilan ketadi. Ko'lga kelib qo'shiladigan va undan chiqib ketadigan issiqlik orasidagi farqqa qarab ko'l suvining issiqlik balansi o'zgaradi.

Eng ko'p issiqlik suvning bug'lanishi bilan chiqadi. Daryo oqimi bilan keladigan va chiqib ketadigan issiqlik miqdori daryolarning kattaligiga bog'liq bo'ladi.

2. KO'LLARNING ISSIQLIK STRITIFIKASIYASI.

Suv havzalarining issiqlik stratifikasi yasi quyidagilarga bo'linadi:

- 1) To'g'ri yo'nalishli – bunda suv harorati suv tubidan yuqoriga qarab ko'tarilib boradi.
- 2) Teskari yo'nalishli – bunda harorat suv tubidan yuqoriga qarab pasayib boradi.
- 3) Gomotermiya – bunda suv chuqurligiga qarab harorat bir tekisda taqsimlanadi.

F.A.Forel hamma chuchuk suv havzalarini quyidagi 3 guruhga ajratadi.

- 1) Polyar yoki sovuq ko'llar – bularda yil davomida harorat 4 S dan kam bo'ladi va teskari yo'nalishda bo'ladi.
- 2) Tropik yoki issiq ko'llar – bularda yil davomida harorat 4 S dan yuqori bo'ladi va to'g'ri yo'nalishli bo'ladi.
- 3) Mo'tadil iqlim sharoitidagi ko'llar – bularda yozgi harorat 4 S dan yuqori to'g'ri yo'nalishli harorat stratifikasiyasida, qishda esa harorat 4 S dan past va teskari harorat stratifikasiyasida bo'ladi.

3. KO'LLARNING MINERALLANISH BO'YICHA KLASSIFIKASIYALASH.

Ko'llarning suvi minerallanish bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Chuchuk suvli ko'llar – suvdagi tuz miqdori 1% dan kam.
2. Tuzli ko'llar – suvdagi tuz miqdori 1 dan 25% gacha.
3. Sho'r suvli ko'llar – 25% dan yuqori.

Sho'r suvli ko'llarni ba'zida mineralli ko'llar ham deb ataydi. Suvdagagi tuz miqdori juda ko'p bo'lgan ko'llar Rap ko'llar deyiladi. Namlik yuqori bo'lgan zonalardagi ko'llarning suvi kam minerallashgan bo'ladi. Bunday ko'llarga Baykal, Onej, Ladoga ko'llari kiradi. Ular suvidagi tuz miqdori 100 mg/l dan kam. Namlik kam bo'lgan zonalardagi ko'llarning suvida esa minerallanish darajasi yuqori bo'ladi. Masalan; Sevan ko'lida sho'rlik darajasi 0,7%, Baxashda 1,2-4,2%, Issiqko'lida 5-8%, Kaspiyda 10-12%. 60 yillarda Orolorda sho'rlik darajasi 14-15% bo'lgan, 1991 yilda esa bu ko'rsatkich 30% ga etgan. 2000 yilga borib 50-80% ni tashkil etgan. Eng sho'r suvlar juda quruq iqlimli ko'llarda bo'ladi Elton va Biskunchak ko'llarida sho'rlik darajasi 200-300% ga teng. Sho'rlikning eng yuqori darajasi O'lik dengizida uchraydi.

4. KO'LLARNING TUZ BALANSI.

Bunda

- er usti qismidan tuzning kelishi va ketishi
- er tagidan tuzning kelishi va ketishi
- atmosfera yog'inlari bilan tuzning kelishi
- ko'l yuzasidan tuzning shamol bilan uchib ketishi.
- tuzning ko'l tubiga cho'kishi
- ko'l suvida ma'lum vaqt davomida tuz miqdorining o'zgarishi

Tuz balansining hamma komponentlari vazn birligi (kg) da ifodalanadi.

5. KO'LLARNING GIDROBIOLOGIK HUSUSIYATI VA SUV MASSASI.

Boshqa suv obektlari singari ko'llar ham suv organizmlariga, ya'ni gidrobiontlarga boy. Suv organizmlarining oziqlanish (trofik) sharoitiga ko'ra ko'llar quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1) Oligotrof ko'llar – oziq moddalarini kam va organik moddalar ko'p bo'ladigan, ularni xosil qilish natijasida ko'plab kislород ajraladigan va suvning yuza qatlamida ko'p darajada kislород bo'ladigan ko'llar.

3) Distrof ko'llar – bu ko'llar suvida organik moddalar miqdori shunchalik ko'pki, ularning to'liq parchalanmasligi natijasida suv organizmlari uchun zararli holga kelib qolgan.

4) Mizotrof ko'llar – o'rtacha trofik muhitga ega bo'lgan ko'llar.

Uncha katta bo'limgan ko'llarda tabiiy evollyusiya davomida botqoqlanish jarayon quyidagi ketma-ketlikda boradi oligotrof – mezotrof – distrof ko'llar – botqoqlik.

Ko'llarda ko'p yillar davomida ko'p miqdorda suv to'planib qoladi va bunga suv massasi deyiladi. Suv massalarini bir-biridan ajratish uchun xizmat qiladigan ko'rsatkichlar ularni fizik, ximik va biologik ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi. Fizik ko'rsatkichlarga suvning harorati zichligi, elektr o'tkazuvchanligi, loyqaligi va tiniqligi kiradi. Ximiyaviy ko'rsatkichlariga – minerallanishi, alohida moylarning bo'lishi, gazlarning bo'lishi kiradi.

Asosiy suv massasi quyidagi modifikasiyalarga bo'linadi.

- 1) Yuza qatlam suv massasi – bu qatlamda suv harorati ancha isigan bo’lib, epilimnion deyiladi.
- 2) Chuqur qatlam suv massasi – bu juda kuchli va bir xil suvdan tashkil topgan qatlam bo’lib gipolimnion deyiladi va suvi ancha sovuq bo’ladi.
- 3) Oralig suv massasi – bu qatlamda suv harorati keskin ko’tariladi va metalimnion deyiladi.
- 4) Ko’l tubi suv massasi – bu qatlam ko’l tubidagi yupqa suv massasidir. Bu qatlam suvining yuqori darajada mineralлаshganligi va o’ziga xos suv organizmlari bilan ajralib turadi.

MUSTAXKAMLASh UChUN SAVOLLAR.

1. Issiqlik balansi qanday qismlardan iborat?
2. Issiqlik klassifikasiysi qanday tiplarga bo’linadi?
3. Sho’r suvli va chuchuk suvli ko’llar.
4. Ko’lda botqoqlanish jarayoni qanday tartibda boradi?

O’quv mashg’ulotida ta’lim texnologiyasi modeli

Mavzu 5. Daryolar, ularning tarqalishi va turlari.

Vaqt: 80 min.	Talabalar soni: 21 ta
<i>O’quv mashg’ulotining shakli</i>	Ma’lumotli - ma’ruza
<i>O’quv mashg’ulotining tuzilishi</i>	<p>94. O’quv kursi va mashg’ulot mavzusiga kirish</p> <p>95. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum</p> <p>96. Ma’ruza matnni tarqatish</p> <p>97. Ma’ruzani Power Point taqdimoti bo’yicha olib borish.</p> <p>98. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord</p> <p>99. Daryolarning turlari va er yuzida tarqalishi.</p> <p>100. Daryo o’zani va botig’ining paydo bo’lish xususiyatlari.</p>
<i>O’quv mashg’ulot maqsadi:</i> O’quv fani to’g’risida umumiyo tasavvurlarni berish	<i>O’quv faoliyat natijalari:</i> <p>- GE fanning ahamiyati va vazifalarini ifodalaydilar;</p> <p>- GE o’quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o’quv-uslubiy adabiyyotlarni sharhlaydilar;</p> <p>- GE nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritadilar;</p> <p>- GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash mezonlari va shakllarini yozib oladilar;</p> <p>GE kelib chiqish tarixini aytib beradilar;</p> <p>GE predmetini tasniflaydilar;</p> <p>GE vazifalari va usullarini aytib beradilar;</p> <p>GE ning boshqa fanlar bilan aloqasi tartibli ravishda oolib beradilar</p>
<i>Ta’lim usullari</i>	Ma’ruza, pinbord, aqliy hujum
<i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta’lim vositalari</i>	Ma’ruza matni, kompyuter
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Maxsus xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og’zaki so’rov: tezkor - so’rov.

Ma’lumotli kirish - ma’ruzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar

1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daq.)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarни etkazadi. Taqdimot bo'yicha ekranga fanning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tavsif beradi, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlarni xususiyatlarini tushuntiradi.</p> <p>Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari (№ 1.1 ilova) bilan tanishtiradi.</p> <p>Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.</p> <p>1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi.</p> <p>1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishni taklif etadi va bilimlarni faollashtiradi. (№ 1.2 ilova) Aqliy hujum usuli qoidasini (№ 1.3 ilova) eslatadi. Barcha aytidayotgan takliflarni yozuv taxtasiga yozib boradi. Ushbu ish mashg'ulot yakunida tugatilishini ma'lum qiladi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar. Tushunchalarni aytadilar
2-bosqich. Asosiy (50 daq.)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi va uning rejasini, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi.</p> <p>2.2. Slaydlarni Power Pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jabol qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi; berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.</p> <p>2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'lmagan va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinbord) kiritadi (№1.4 ilova).</p>	O'qiydilar. Tinglaydilar, jadval va chizmalarini daftarga ko'chirib oladilar. Savollar beradilar. Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Talabalar bilimini tezkor savol-javob orqali baholaydi (№1.5 ilova).</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi (№1.6 ilova). va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

Illova 1.1

BAXOLASH MEZONLARI

Nº	Nazorat turi	Ball	Nazorat ishi	Uy ishi	Mustaqil ish	Darsda faolligi	Amaliy ish
1	JN-1	16	3	2	3	4	4
2	JN-2	19	3	3	3	4	6
3	ON-1	35	7	7	7	7	7
4	YN	30	30				

Illova 1.2

Talabalar bilimini faollashtirish uchun tezkor savollar

5. Er yuzidagi katta daryolarning xususiyatlari?
6. Zonal va azonal daryolar?
7. Daryo suvi oqim tezligini aniqlash?
8. Daryolarning morfologik va morfoietrik xossalarii?

Aqliy hujum qoidasi:

Hyech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma, hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaga chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni "jo'sh urishiga" ruxsat ber!

Пинборд (инглизчадан: *pin-* маҳкамлаш, *board* – ёзув таҳтаси) мунозара усуллари ёки ўқув сухбатини амалий усул билан мослашдан иборат.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'limgan) yozadilar va yozuv taxtasiga birkirtadilar.

→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib):

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgilarni bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

→ Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Talabalar bilimini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Daryo ozani deb nimaga aytiladi?
- 2.Daryo o'zanining shakllari nechta turga bo'linadi?
- 3.Daryo oqimi qanday o'lchanadi?
- 4.Jo'shqin daryolar deb qanday daryolarga aytiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Daryolarning gidrobiologik xususiyatlari.
2. Daryo basseyning torayish sabablari.
3. Daryolarning ahamiyati va ularni muhofaza qilish choralar.
- 4.O'zbekiston daryolarining ekologik holati

M A ‘ R U Z A – 5.

Mavzu: Daryolarning gidroekologik xususiyatlari.

R E J A.

- 1. Er yuzasida daryolarning tarqalishi va eng yirik daryolar.**
- 2. Daryolarning turlari va oqimi.**
- 3. Daryo morfologiyasi va morfometriyası.**

TAYANCH IBORALAR.

Suv rejimi, suv bilan to'yinishi, muzlik rejimi. Irmoqlarning doimiyligi. Daryo sistemasi. Daryo basseyni. Gidrografik tuzilish. Frud kattaligi. Jo'shqin daryolar. Sokin daryolar. Erkin tushish tezligi.

1.ER YUZIDA DARYOLARNING TARQALISHI VA ENG YIRIK DARYOLAR.

Daryo – bu o'zining aniq shakllangan oqimiga ega bo'lgan katta o'lchamdag'i suv oqimidir. Daryolarga odatda basseynning maydoni 50 km^2 dan kam bo'lмаган yirik suv oqimlari kiritiladi. Kichik o'lchamdag'i katta bo'lмаган suv oqimlari agar ular vaqtinchalik yoki sun'iy suv oqimlari bo'lsa daryo hisoblanmaydi. Daryoning eng asosiy hususiyati bu uning oqimidir. Oqim bu keng ma'noda suvning undagi moddalar va issiqlik bilan irmoqlardan yig'ilishidir.

Er yuzining hamma daryolarida bir vaqtning o'zida 2115 km^3 suv oqadi, bu Er yuzidagi umumiy suv miqdorining 0,0002%ni tashkil qiladi. Shunga qaramasdan daryo oqimi moddalar va suv almashinishing eng muhim elementi, quruqlik va gidrosferaning turli obektlari o'rtaсидаги о'заро aloqani belgilaydigan asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Er yuzida eng katta daryo bu Amazonka daryosi bo'lib, uning havzası 6915 km^2 ni, eng uzun daryo Nil daryosi bo'lib, uzunligi 6670 km ni tashkil qiladi. Eng suvi ko'p daryo ham Amazonka bo'lib, unda 6930 km^3 suv bor va bu Er yuzidagi barcha daryolar suvining 16,6%ni tashkil qiladi.

2. Daryolarning turlari.

Daryolar turli belgilarga qarab turlarga bo'linadi, masalan, kattaligi, oqim sharoiti, to'yinish manbasi, suv rejimi, muz rejimi, irmoqlarining doimiylik darajasi va boshqalar. Kattaligiga qarab daryolar o'rtacha va kichik daryolarga bo'linadi. Basseynining maydoni 50000 km^2 dan katta bo'lgan daryolar, katta daryolar, 2000 dan 50000 km^2 gacha bo'lganlari o'rtacha, 2000 km^2 dan kichik bo'lgan kichik daryolar deyiladi. Katta daryolarning basseyni bir nechta geografik zonalarda joylashgan. Bunday daryolarning hidroekologik rejimi shu geografik zonalardagi daryolarga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun ular yarim zonaldir.

O'rtacha daryolar basseyni bitta geografik zonada joylashgan va shu zonaning hidroekologik rejimiga to'g'ri keladi va zonal daryolar hisoblanadi. Kichik daryolar bitta geografik mintaqaga hududida joylashadi. Lekin shu mintaqadagi katta daryolarning hidroekologik rejimidan farq qiladi va shuning uchun azonal hisoblanadi.

Oqim sharoitiga qarab daryolar tekislik yarim tog' va tog' daryolariga bo'linadi. Tekislik daryolariga shartli ravishda Frud kattaligi kiritilgan. Frud kattaligi 0,1 dan kichik bo'lsa tekislik daryolari, 0,1-1,0 bo'lgan daryolarga yarim tog' daryolari, 1,0 dan yuqori bo'lgan daryolarga tog' daryolari kiradi. Tekislik va yarim tog' daryolarida suv sokin oqadi, tog' daryolarida esa suvning oqimi jo'shqin harakterga ega.

Suv bilan to'yinish bo'yicha daryolar qor, yomg'ir, muzlik va er osti suvlariga bo'linadi. Suv rejimi bo'yicha yoki yil davomida oqimning tarqalish xarakteri bo'yicha daryolar bahorda suv bilan to'ladigan, yilning issiq qismida to'ladigan va toshqinli daryolarga bo'linadi.

Daryolar suvining oqimiga qarab sokin va jo'shqin daryolarga bo'linadi. Buni aniqlash uchun Frud G_2 kattaligi kiritilgan. Bunda – oqim chuqurligi – suv erkin tushishining tezlanishi – oqim tezligining kritik belgisi qilib 1 olingan. Agar 1 bo'lsa oqim kritik holatda, 1 bo'lsa oqim jo'shqin, 1 bo'lsa oqim sokin bo'ladi. Jo'shqin oqim tog' daryolariga, sokin oqim esa tekislik daryolariga xosdir.

3.Daryolarning morfologiysi va morfometriyasи.

Daryoning irmog'i bu daryoni suv bilan ta'minlaydigan quruqlikning bir qismidir. Irmoqlar er ustki va er ostki bo'lishi mumkin. Daryo basseyni bu o'sha daryo sistemasini o'z ichiga oladigan quruqlikning bir qismi.

Daryo basseynining morfometrik xarakteristikasi quyidagilardan iborat. Basseyн maydoni, basseyн uzunligi, basseyning maksimal kengligi, basseyning o'rtacha kengligi, suv bilan ajratilgan qismining uzunligi, o'rtacha kengligi.

Daryoning asosiy fizik-geografik va geologik xarakteristikasi quyidagilardan iborat.

1. Daryo basseynning mintaqada joylashish holati, ya'ni okeandan uzoqlik masofasi, basseyн markazi va chetki nuqtalarining kengligi va uzunligi.

2. Geografik zonalligi va balandligi.

3. Tuprog'inining geologik tuzilishi fizik va suv xossalari, gidrogeologik sharoiti.

4. Relefi – basseyнning o'rtacha balandligi va o'rtacha qiyaligi bilan ifodalanadi.

5. Iqlimi – atmosfera sirkulyasiyasining xarakteri, harorat rejimi va havo namligi, atmosfera yog'inlarining miqdori va rejimi, bug'lanish.

6. Tuprog'i va o'simliklar qoplami umumiy maydonining necha foizi o'rmon bilan qoplanganligi, tuprog'inining tiplari.

7. Daryo sistemasi xarakteri.

8. Boshqa suv obektlarining mavjudligi va hususiyati, ko'llar, botqoqliklar, muzliklar shular jumlasiga kiradi.

Har qanday basseyнning muhim xususiyatlaridan biri uning xo'jalik faoliyati natijasida qayta tuzulishi darajasidir. Bunda basseyн yuzasining sun'iy qayta tuzilishini farq qilish zarur. Bunga o'rmonlar tashkil qilish, erlarni haydash, sug'orish va quritish meliorasiyasini kiradi. Daryo basseyning gidrografik sun'iy qayta tuzish ham muhimdir. Bunga suv omborlari tashkil qilish, qazish, oqova suvlarni boshqarish va boshqalar kiradi. Basseynda ko'llar, botqoqliklar va o'rmonlarning bo'lishi maxsus koeffisientlarda ifodalanadi

- Bunda - ko'llar, botqoqliklar, o'rmon va muzliklar bilan band bo'lgan maydon – basseyнning umumiy maydoni – yoki foizda yoki ma'lum birlikda ifodalanadi.

DARYO SISTEMASI

Basseyn hududidagi suv yig'iladigan irmoqlar jumladan, vaqtinchalik irmoqlar, jilg'alar, kanallar va suv havzalari ya'ni ko'l suv ombori hamda alohida suv obektlari, ya'ni botqoqlik muzliklar yig'indisi basseyнning gidrografik sistemasini tashkil qiladi. Tabiiy va sun'iy irmoqlar yig'indisi irmoqlar sistemasi deyiladi. Gidrografik sistemaning bir qismiga daryo sistemasi deyiladi. Daryo sistemasiga okean, dengiz yoki ko'llarga quyiladigan asosiy daryo va unga kelib qo'shiladigan hamma irmoqlar kiradi.

DARYO BOTIG'I VA O'ZANI.

Daryo botig'i kelib chiqishiga qarab tektonik, muzliklardan kelib chiqqan va erozion bo'lishi mumkin. Ko'ndalang kesimga ko'ra daryo botig'i V – shaklida, trapesiya shaklida quti shaklida va hokazo bo'lishi mumkin.

Daryo botig'inining tubi uning o'zanini belgilaydi, qaysikim daryoning eng pastki suv bilan to'lgan qismi, o'zanning shakli to'g'ri, ilon izi, tarqoq bo'lishi mumkin. O'zanning asosiy morfometrik hususiyati quyidagilar; o'zanning ko'ndalang kesimi, maydoni, o'zanning eni, maksimal chuqurligi. Barcha jilg'a, soy, daryo, vaqtli oqar suvlar va ko'llar quruqlikning gidrografik tarmog'ini hosil qiladi.

Gidrografik tarmoqning katta qismi kichik daryolardan iborat. Ularning umumiyl sonini hisoblab bo'lmaydi: chunki vaqtli oqar suvlar va doimiy oquvchi jilg'alar hamda kichik daryolar o'rtasida aniq chegara yo'q va ularni ajratish qiyin. Bosh daryoga kelib quyiladigan daryolar birinchi darajali irmoqlar, bu irmoqlarga quyiluvchi daryolar esa ikkinchi darajali irmoqlar deyiladi. Irmoqning tartib raqami uning bosh daryodan qancha uzoqda ekanligini bildiradi, biroq uning kattaligi haqida xech qanday ma'lumot bermaydi. Har bir daryoda birinchi darajali deb hisoblanuvchi juda kichik irmoqlar bor, vaholanki katta daryoda ikkinchi, uchinchi va x.k.

darajali irmoqlar deb hisoblanishi mumkin. Shu sababli daryolar kata-kichikligiga qarab bo'linadigan sistema ham mayjud.

Daryolarda suvning oqishiga sabab, ular o'zanining nishab ekanligi va o'zanga muttasil suv oqib kelib turishidir. Har bir suv oqimida suvning harakati turbulentdir. Uning istalgan nuqtasidagi tezligi va yo'nalish doim o'zgarib turadi. Oqimni ta'riflashda 2-5 minutdag'i o'rtacha tezlikdan foydalaniлади. Daryo suvlarini harakatining turbulentligi muhim hidrologik va geomorfologik oqibatlarga olib keladi.

Daryo ishining xarakter va intensivligi oqim kuchiga bog'liq. Oqim kuchi suv massasi bilan tezlik kvadrati ko'paytmasining yarmiga teng, ya'ni; $F=(mv^2)/2$.

Bu nisbat daryoning hamma qismida bir xil bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, agar daryo boshida suv massasi kamroq bo'lsa, u daryoni quyi qismiga tomon orta boradi, ya'ni oqim tezligi shu yo'nalishda kamayadi. Oqim tezligining kamayishiga sabab daryo o'zani qiyaligining kamayishidir.

Daryoning quyi qismiga tomon tezlik suv massasining ortishiga qaraganda tezroq kamaya boradi. Shuning uchun ham o'zan qiyaligi bilan suv massasi o'rtasidagi nisbat to'g'ri chiziqli oddiy to'g'ri ko'paytirish bo'lmay, darajali ko'paytirishdir. Daryo o'zanining qiyaligi geologik jihatdan bir xil tuzilgan birday kamaymaydi, balki botiq chiziq tarzida bo'ladi va u normal qiyalik profili deyiladi. Normal qiyalikning nazariy egri chizig'i daryoning yuqori qismlarida tikroq, quyi qismlarida esa gorizontal yuzaga urinma tarzida bo'ladi.

Daryolarning ko'ndalang profili ularning suv massasi ko'p bo'lgan quyi qismidan boshlab shakllanadi. Eroziya jarayoni daryo o'tadigan yuqori oqimiga tomon yo'naltiriladi, buni regressiv eroziya deyiladi.

Daryo normal qiyalik profilini hosil qilgunga qadar tagini o'ya boradi. Bunday chuqurlama eroziya daryo dengizga quylishi joyidagi sathidan pastda ro'y bermaydi. Shuning uchun daryoning dengizga quylaverishidagi sathi eroziya bazasi deb ataladi. Dunyo okeani sathi barcha daryolarning so'nggi eroziya bazasi hisoblanadi. Ko'l – daryo sistemalarida ko'llar mahalliy eroziya bazasi hisoblanadi. Daryo sistemasi suv yig'adigan territoriya daryo havzasini yoki daryoning suv yig'ish maydoni deyiladi. Bir havza ikkinchisidan suvayirg'ich bilan ajraladi. Suvayirg'ichlar tog'li o'lkalarda tizmalarning qirrasidan o'tadi va aniq ifodalangan chiziq hosil qiladi. Nam etarli bo'lмаган зоналарда suvayirg'ichlar butunlay yoki qisman oqimsizdir.

Har bir daryo sistemasi oqar suv ishining natijasi bo'lib, joy geologik va geomorfologik hususiyatlari ta'sirini o'zida aks ettiradi. Daryo sistemasi ham, joyining geologik va geomorfologik hususiyatlari ham o'z-o'zidan rivojlanish va shuningdek tashqi ta'sir, chunonchi, to'rtlamchi davr materik muzi bosishlari, dengiz transgressiyalari, notehtonik xarakatlar va hokazolar natijasida vaqt davomida o'zgaradi.

Daryo manbai – daryo boshlanadigan joy bo'lib daryo rejimida katta ahamiyatga ega. Daryolar manbai sersuv ham va kam suv ham bo'lishi mumkin. Ko'l va muzliklar sersuv manba hisoblanadi. Ulardan oqib chiquvchi daryolar boshidayoq katta bo'ladi. Ko'l va muzliklar bunday daryolar rejimida yo etakchi, yoki katta rol o'ynaydi. Buloqlar, jilg'alar yoki kichikroq ko'llardan iborat manbalar kamsuv manba bo'ladi. Bunday hollarda daryo boshida suv kam bo'lib, daryo rejimi havzasining tabiiy sharoitiga bog'liq bo'ladi.

Daryo o'zani – daryoning boshlanish joyidan quyiga qarab og'irlik kuchi ta'sirida suv oqa boshlaydi va tagini uyib, daryo o'zanini hosil qiladi. Daryoning rivojlanish jarayonida o'zanning shakli va ko'ndalang profili o'zgaradi. Profili shakllanib bo'lмаган дарёларда дарё о'зани vodiyl tagiga keladi. Profili shakklangan daryolarda suv massasi bilan oqish tezligi o'rtasidagi nisbat bir muncha muvozanatga kelsa, daryo o'zanining shakli ham ancha turg'un bo'ladi. Bu turg'unlik daryodan meandralar hosil qilib, oqish natijasida vujudga keladi. Bir qarashda daryo ikki nuqta orasidagi masofada to'g'ri chiziqli yo'nalish bo'yicha oqishi kerakdek tuyuladi. Aslida esa daryo suvi har doim turbulent notekis harakatda bo'lganidek hech qachon to'g'ri chiziq yo'nalishi bo'yicha oqmaydi. Daryo hamma vaqt burilib-burilib ya'ni meandralar hosil qilib oqadi. Oqimning bir tekis emasligi daryo o'zanini gox u gox bu tomonga buradi.

Daryoning suv sarfi; daryo o'zanining bo'ylama va ko'ndalang profili bilan suv oqimi o'zaro bog'liqdir. Daryodagi suvning tezligi a) daryoning yuqori qismidan quyi qismi tomon; b) daryoning ko'ndalang qismida istalgan joyda bir qirg'oqdan ikkinchi qirg'oqqa tomon va v) suv yuzasidan daryo tagiga tomon o'zgaradi. Daryoning tezligi odatda oqim bo'ylab yuqoridan pastga tomon kamayib boradi, bunda tezlik qiyalikka qarab avvaliga tez, so'ngra esa sekin kamayadi. Daryolar dengiz va ko'lga quyilgan bu erda inersion oqimlar hosil qiladi. Daryo oqiziqlari g/m^3 bilan hisoblanadi. Daryoning qattiq oqiziqlari suvda muallaq oqib yuradigan va daryo tagida yumalab yuradigan jins zarrachalaridan iborat. Daryolar suvi loyqaligi zonal tarqalgan. Bir daryoning ikkinchi daryoga ko'l yoki dengizga kelib quyiladigan joyi quyar joy deb ataladi. Quyar joyda o'ziga xos jarayonlar ro'y beradi. Bu jarayonlar daryo suvi bilan daryo quyiladigan suv havzasining o'zaro ta'siri hamda qattiq oqiziqlarning etkazilishi bilan bog'liqdir. Quyar joy hususiyati materiklar harakati hususiyatiga ham bog'liq. Daryo oqimi bilan dengiz suvi harakatlarining o'zaro nisbatiga, qirg'oqlar shakliga va quruqlikning balandligi bilan dengiz tagining chuqurligi farqiga qarab deltalar turli shaklda rivojlanadi.

DARYOLARNING TO'YINISHI

Yog'inlar daryo suvlaringin asosiy manbaidir. Daryolarga suv kelib quyilishi ularning to'yinshi deyiladi. Daryolar to'yinshining to'rt manbai bor; bular – yomg'ir suvlari, qor suvlari, muzlik suvlari va grunt suvlardir. Turli tabiat zonalari va mintaqalarida hamda tog'lik o'lkalarning balandlik mintaqalarida bularning har birining salmog'i turlichadir. Bu manbaalarning daryolarni to'yintirishdagi roli mavsumlar bo'yicha ham o'zgarib turadi.

Grunt suvlari bir muncha o'ziga xos rol o'ynaydi; ular ko'pchilik daryolar oqimining barqarorligini ta'minlaydi va ular suv sathining boshqaruvchisi hisoblanadi.

Daryolarning suvdorligi daryo o'zaniga kelib quyiluvchi yalpi suv miqdoriga bog'liq. Masalan: uzunligi 2534 m. bo'lgan Ural daryosining o'rtacha yillik suv sarfi atigi $360 \text{ m}^3/\text{sek}$, vaholanki uzunligi 2260 km. bo'lgan Zombezi daryosining Viktoriya sharsharasi yonidagi, ya'ni quyar joyidan 1200 km. yuqoridagi suv sarfi $1400 \text{ m}^3/\text{sek}$ ga teng.

DARYOLARNING XIMIYA VIY REJIMI

Suv daryoga kelib quyulguncha yoki er ustida yoki gruntda ancha masofani bosib o'tadi. Har ikala holda ham u tuzlarni eritadi. Shuning uchun daryo suvlari, garchi ularda tuz kam bo'lmasada, eritma hisoblanadi. Daryo suvida tuzlarning nisbatan kam bo'lishiga sabab oqar suvning almashinib turishdi, yog'inlar, qor, muz suvlarini kelib quyilishi, bioximik jarayonlar prosesslar ta'siri va daryo suvlaringin yaxshi yuvilgan yuza grunt suvlaringin quyilishi sababdir. Suv oqimidan tashkari sanab o'tilgan omillarning barchasi zonaldir. Demak, daryolarning gidroximik hususiyatlari ham zonallik hususiyatiga ega.

MUSTAHKAMLASh UChUN SAVOLLAR.

1. Er yuzidagi eng yirik daryolar qaysilar?
2. O'rta Osiyoning eng yirik daryolari.
3. Dayorlarning fizik-geografik xarakteristikasi nimadan iborat?
4. Daryo o'zani qanday shakllarga ega?

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu 6. Suv omborlari, ularning tarqalish va turlari.

Vaqt: 80 min.	Talabalar soni: 21 ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'lumotli - ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	101. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 102. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 103. Ma'ruza matnnini tarqatish 104. Ma'ruzani Power Point taqdimoti bo'yicha olib borish. 105. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord 106. Suv omborlaring kelib chiqish tarixi. 107. Suv omborlaring gidroekologik xususiyatlari.
O'quv mashg'ulot maqsadi: O'quv fani to'g'risida umumiylashtirishni berish	

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyat natijalari: <ul style="list-style-type: none"> - Gidroekologiya (GE) fanining ahamiyati va vazifalari, uni o'quv fanlar tizimida tutgan o'mni bilan tanishtirish; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash; - GE nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritish; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash shakllarini ochib berish; - GE tarixi bilan tanishtirish; - GE predmeti tasnifini berish; - GE vazifa va usullarini tushuntirish; - GE boshqa fanlar bilan aloqasi ochib berish
Ta'lismi usullari	Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum
Ta'limi tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus xona
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor - so'rov.

Ma'lumotli kirish - ma'rzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	ta'lim oluvchilar
	ta'lim beruvchi	
→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'limgan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib):

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgililar bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgililar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

- Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Talabalar bilimini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Er osti iffat suvlarining joylashishi?
- 2.Issiq buloqlarning paydo bo'lishi?
- 3.Er osti suv gorizontlarining hosil bo'lishi?
- 4.Er osti suvlarining minerallanish xusuyaitlari?

Mustaqil ish topshiriqlari.

- 1.Er osti suvlarining inson hayotidagi o'mni va hamiyati?

- 2.Er osti suvlarining ifloslanish manbalari?
- 3 Er osti suvlarini muhofaza qilish choralari?
- 4.Qushimcha chuchuk suv zahiralarini takomillashtirish?

M A ‘ R U Z A – 9.

Mavzu: Gidrobiontlarning ekologik guruhlari, ulardan foydalanish usullari va muhofaza qilish choralari.

R E J A.

- 1. Er osti suvlarining joylashuvi va er ostida tarqalishi**
- 2. Er osti suvlarining paydo bo'lishi**
- 3. Er osti suvlarining fizik va kimyoviy xossalari**

TAYANCH IBORALAR

Gidrodasiya, digradasiya, infiltrasiya, kondensasiya nazariyasi, daydi suvlar, iffat suvlar, kondensasion nazariya, infiltrasion nazariya, zarrabilsimon ko'rinish, tabaqalar oralig'idagi bosimli suvlar, bosimsiz suvlar, skvajina, artizian havzasi, chuchuk suvlar, sho'rxok suvlar, namakob suvlar, umumiyl kislotali agressivlik, sulfatli agressivlik, karst suvlar.

1. Er osti suvlarining joylashuvi va er ostida tarqalishi.

Suv – tabiatdagi eng bebahoz hazina mo'jizasi, qolaversa arning eng keng tarqalgan mineral moddasi. Darhaqiqat, jamiki jonzotning tirikligi, hayotning mavjudligi suv – tabiat in'om etgan eng bitmas tiganmas hazina tufaylidir. Shuning uchun mashhur olim A.P.Korjinskiy suv arning eng qimmatli tabiiy va foydali qazilmasi bo'lib, usiz insoniyat na yashay oladi, na rivojlanadi degan edi.

Suv – bu dengizlar, ko'llar, daryolar inson qo'li bilan yaratilgan suv omborlari, suv – turli shaklli bulutlar, yomg'ir tomchilar, qor, muzlar. Suv er yuzasida va er ostida mavjud. Barcha o'simlik va hayvonlar ham asosan suvdan iborat. Sahro cho'llarning ham o'z go'zalligi mavjud, sababi oz bo'lsada yashirin holatda bo'lsa-da suv bor. U er ostida bo'lib uni ko'zga ko'rinnmas okean, beshinchchi okean, yashirin hazina deyish mumkin.

Er osti suvlar quruqlikdagina emas, balki er yuzasida dengiz va okean suvlarini tubida, qatlamlar ostida ham mavjuddir.

Dune okeani suvining hajmi har xil manbalarda turlicha, o'rtacha 1,3-1,4 mlrd.km³ni tashkil qildi. Er osti suvlar asosan arning qattiq qobig'i ichida – er po'stida, tog' jinslari asosida ularning tarkibida va yoriqlarda joylashgan, sababi ko'pgina tog' jinslari, qushlar, qumtoshtolar va boshqalar o'ziga xos g'ovaklari va bo'shliqlarga ega bo'lib, ular orqali suv bemalol suzilib oqaveradi. Ular yaxlit suv massasini tashkil etmaydi. Er osti suvining afzalligi shundaki, u odamlar tashnaligini qondiribgina qolmay, balki inson aqli tufayli ekinzorlarni bog'-rog'larni ham yashnatib kelmoqda. Er osti suvlarining paydo bo'lishi, yotish sharoitlari, harakatlanish qonunlari, zapaslari, xo'jalikdagi mohiyatini, atmosfera va er yuzasi suvlar bilan o'zarobog'liqligini «Gidroekologiya» fani o'rganadi. Gidro-suv, geo-er, logos-fan so'zlar birikmasidan tashkil topgan.

2. Er osti suvlarining paydo bo'lishi.

Gidroekologiya geologiya fanining maxsus sohasi bo'lib hisoblanadi. Gidroekologiyaning asosiy vazifasi beshinchchi okeanni, ya'ni er osti suvlar – yashirin xazinani o'rganishdan iboratdir.

Akademik D.Sh.IIerbakovning fikricha oldiniga suv Er planetasini tekis qalinlikda qoplagan. Keyin cho'kmalarda dengiz va okeanlar paydo bo'lgan, daryolar oqa boshlagan, keyinchalik dastlab paydo bo'lgan qoyatoshlar ustini uvalanuvchi cho'kindilar qoplagach, suv asta sekin er ostiga singib borgan.

Gidrodasiya – suvda eriydigan modda zarrachalarining suv molekulalari bilan bog'lanish jarayoni.

Digradasiya – mineral va tog' jinslarining suvsizlanish jarayoni.

Er osti suvlarining paydo bo'lishi to'g'risida olimlar qadim zamonlardan beri fikr yuritgan, olimlarning asosiy fikr va ba'zan fantastik qarashlari bilan bir qatorda, ma'lum darajada to'g'ri tushunchalar ham bor. Masalan: Mark Vituviy Paliy er osti suvlarini yog'in suvlarining er bag'riga shimilishi natijasida hosil bo'lgan deb fikr yuritgan. Keyinchalik bu fikr ko'pchilik olimlar tomonidan rivojlantirildi va hozirda bu fikr infiltrasiya deyiladi. Boshqa bir guruh mutaxassislar er osti suvlarini atmosfera tarkibidagi suv bug'larining kondensasiyalanishidan hosil bo'ladi deb hisoblaydilar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Aristotel ham (III asr) er osti suvlarini kondensasiya hodisasi natijasida hosil bo'ladi deb faraz qilgan. Biroq u atmosfera havosi tog' jinslari yoriqlari orasiga kirib, u erda kondensasiyalanib suvga aylanadi deb hisoblangan. Shu sababdan bu nazariya **kondensasiya nazariyasi** nomini oldi.

Yog'in suvlarining er qatlamlari orasiga sizib kirishi va atmosfera havosidagi suv bug'larining kondensasiyalanishi hisobiga hosil bo'lgan er osti suvlarini hozirda daydi suvlar deyiladi.

XX asr er osti suvlarini er po'stlog'ining chucur qismlarida ham hosil bo'lishligi haqida gipoteza tarqala boshladi. Bu E.Zyuse gipotezasidir. Bunga asosan olovli magmaning tarqalishida gazsimon mahsulotlar ko'p bo'lib, magmaning asta-sekin sovushida ular ajralib chiqadi. Gazsimon mahsulotlar oralarida suv bug'lari joylashgan va magmaning harorati pasaygandan so'ng suv bug'lari kondensasiyalanadi va suv tomchisiga aylanadi. Bular buloqlar shaklida er yuzasiga chiqadi. Bunday suvlar er osti iffat suvlarini deyiladi.

Er osti suvlarining paydo bo'lish masalasini 1 chi marta rus fizik tuproqshunosi A.F.Lebedev (1907-1919) yillardagi tajribalarida deyarli to'g'ri echib bergen A.F.Lebedev 1907-1919 yillar davomida sinchiklab o'tkazgan eksperimental tekshirish natijasida hozir ham o'z mohiyatini yuqotmagan nazariy qoidani ishlab chiqdi. U er osti suvlarini paydo bo'lishini kondension va infiltrasion nazariyalar orqali tushuntirdi.

Atmosfera haroratining sutkalik keskin o'zgarishi bu jarayon uchun katta qulaylik yaratadi. **Infiltrasiya** nazariyaga binoan atmosfera yog'inlari er qatlamlariga sizib kiradi va er osti suvlarini uchun manba vazifasini o'taydi. Bu nazariyani ham Lebedev asoslagan.

Atmosfera yog'inlarining erga sizib kirish tezligi bir xil bo'lmay maxalliy sharoitga, yog'inning miqdoriga, turiga va er po'stlog'idagi qatlamlarning litologik tuzilishiga bog'liq.. Atmosfera yog'inlari ko'p bo'lsa, u gravitasjon suv shaklida tuproqda to'xtalib sekin oqa boshlaydi va bug'lanish bo'lmaydigan chuqurlikkacha kirib boradi. Shu tariqa er osti suvlarini ta'minlab turiladi. Daryo o'z etaklarida nuroq materialni ko'p miqdorda qoldirib ketadi va uning o'zani sekin-asta ko'tarila boradi.

Bizga uch xil holatdagi suv ma'lum; bug', qattiq (muz), suyuq holatdagi. Er osti suvlarini sathidan to er yuzasigacha bo'lgan qatlamda tog' jinslarining mayda, hatto ko'zga ko'rinishda bo'shliqlarini suv bug'lari egallaydi. Ular yuqorida pastga tomon o'tib kondensasiyalanadi va fizik bug'li svuni hosil qiladi. Qattiq va muz holatidagi suvlar er po'stida asosan doimo muzloq jinslar qalinligida (1,5 km.gacha chuqurlikda yotadi) uchraydi.

Er osti suvlarining yuza suv deb ataladigan turi er yuzasining uncha chucur bo'lмаган aerasiya zonasida ma'lum maydonlarda zarrabisimon ko'rinishda hosil bo'ladi. Yuzasuv yog'ingarchilik davrlarida yuqolib ketishi ham mumkin. Aksariyat qumli massivlarda dengiz va okean sohillarida hamda orollarda suv singib o'tishi yoki atmosfera yog'inlarini shimilishidan paydo bo'ladi.

Er yuzasidagi suv tuproqqa singishi bilanoq urning chucur qismigacha svuni nihoyatda sust o'tkazadigan qatlampacha bora oladi, so'ngra shu qatlam ustida to'planib grunt suvlarini deyiladigan suvli qatlamni hosil qiladi. Shu boisdan grunt suvlarini atmosfera bilan mustahkam munosabatdadir. Uni muttasil to'ldirib turadigan manbaa er usti suvlarini va atmosfera yog'inlari hisoblanadi.

Grunt suvlarining sathi er yuzasiga nisbatan turli chuqurliklarda daryo, ko'l, kanal va dengizlar yaqinida 0-1 metr, cho'lu-sahrolarda va tog'li rayonlarda 10 metrgacha bo'ladi. Iqlim va suv sathining o'zgarishi bilan birga suv tarkibi va harorati ham o'zgaradi. Aksariyat daryolarin grunt suvlaridan ta'minlanadi, chunki grunt suvlarining oqimi daryo o'zaniga yo'nalgan va sathi

daryodagi suv sathidan balandroq bo'ladi, aks holda daryolar tog'dan kelayotgan suvni erigan qorlar, yomg'ir suvlarini yig'ib qurg'oq, namga tashna joylarga olib ketadi.

Grunt suvlari deyarli hamma erlarda har xil qalilinkda va har xil chuqurliklarda tarqalgan. Er yuzasining sathi suv sathidan past bo'lsa, suvning burg'ulash skvanjinasidan buloqqa o'xshab bir maromda miltillab chiqishi asta qaynayotgan suvni eslatadi, ba'zida kuchli favvoralar ko'rinishida otilib chiqadi va tabiiy fontan hosil qiladi. Bunday suvlar fanda tabaqalar oralig'idagi *bosimli suvlar* deyiladi. Agar tabaqalar orasidagi suv sathining bosimi atmosfera bosimiga teng bo'lsa, ular tabaqalar orasidagi *bosimsiz suvlar* deyiladi.

Bosimli suvlar – ko'pincha grunt suvlari gorizontidan quyida joylashadi va o'ziga xos (er yuzasidagi suv havzasiga quylishini yoki er yuzasiga chiqish) sharoitlari bilan xarakterlanadi.

Ahamiyati beqiyos bo'lgan bunday bosimli er osti suvi 1 chi bor Fransiyaning Artua viloyatida *skvajina* orqali chiqarilgan. Shu boisdan bosimli er osti suvi mavjud bo'lgan qatlamlarning suvi artezian suv va mazkur suvlar tarqalgan rayonlarni *artezian havzasi* deb atash qabul qilingan.

3. Er osti suvlarining fizik va kimyoviy xossalari

Er osti suvlarining fizik xossalari ularning tiniqligi rangi, ta'mi va harorati kiradi. Tabiiy suvlar tiniq yoki loyqa bo'lib, loyqa suvlarda mineral va organik birikma zarralari ko'p bo'ladi. Tiniq suvda xech qanday zarralar aralashmasi bo'lmaydi. Er osti suvlar ayrim hollarda temir, vodorod sulfid qo'shilishidan to'q zangori tusda, botqoqlikda esa organik kislotalar ta'sirida sariq tusda bo'ladi.

Er osti suvlar asosan xidsizdir. Vodorod sulfid suvlaridan palag'da tuxum, organik kislotalarda botqoq hidri keladi.

Er osti suvlarining harorati suvli gorizontning yotish chuqurligiga, geografik joylashishiga qarab turlicha bo'ladi. Haroratiga qarab suvlar quydagilarga bo'linadi; juda sovuq - +5⁰S, sovuq, - +10⁰S, iliq - +18⁰S, iliqroq - +25⁰S, issiq - +37⁰S, qaynoq - +40⁰S. Suvning harorati uning tarkibidagi tuz va gazlar miqdorining oz-ko'pligiga ta'sir etadi. Er osti suvlarida doim ko'p yo oz miqdorda tuzlar, gazlar va boshqa birikmalar erigan holatda bo'ladi. O'rta Osiyo hududida tarqalgan grunt suvlarining tarkibida erigan tuzlar ko'p miqdorda bo'lganligi uchun ular juda ham sho'rdir.

Er osti suvlar tarkibida erigan tuzlarning umumiyligi miqdoriga qarab quydagilarga bo'linadi; chuchuk suvlar (erigan tuzlar 1 g/l gacha), sho'rroq suvlar (erigan tuzlar 1 g/l dan 10 g/l), sho'r suvlar (erigan tuzlar 10-50 g/l), namakob suvlar (erigan tuzlar 50 g/l dan ko'p).

Er osti suvlarida erigan tuzlarning qurilish materiallarini emirish hususiyatiga *agressivlik* deyiladi.

Suv tarkibida oltingugurtli tuzlar miqdori ko'p bo'lsa, betonni emiradi. Betonga nisbatan er osti suvlarining agressivligi quydagi turlarga bo'linadi.

1. *Umumiy kislotali agressivlik* – vodorod ionlari konsentrasiya miqdori bilan baholanadi. Agar RN miqdori qumdag'i suvlarda 5 dan kam bo'lsa, u agressiv hisoblanadi.

2. *Sulfatli agressivlik* – SO₄ ion miqdori bilan aniqlanadi. Agar uning miqdori 200 mg/l dan oshsa, portlandsementga, 4000 mg/l bo'lsa, sulfatga chidamli betonlarga agressiv hisoblanadi.

3. *Emiruvchi agressivlik* – gidrokarbonat ion miqdori 0,4-1,5 mg=ekv.dan oshganda sodir bo'ladi.

4. *Karbonat kislotali agressivlik* – SO₂ 3 mg/l dan oshganda ta'sir etadi.

5. *Magnitli agressivlik* – sementning turi va sortiga qarab magnit ion miqdori 750 mg/l dan oshganda yuzaga keladi.

Er osti suvlarining agressivligi suvning kimyoviy tahlili natijalarini GOST SN 249-62 talablari bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

Er ostida hosil bo'lgan bo'shliq – karstlardagi suvlar karst suvlarini deyiladi. Bu suvlar tog' jinslarida gorizontal va vertikal yo'nalishda xarakat qilib, tutash oqimlar hosil qiladi.

MUSTAHKAMLAsh UChUN SAVOLLAR.

1. Er osti suvlar qanday paydo bo'ladi?

2. Nima uchun er osti suvlar er yuzasiga ko'tariladi?
3. Er osti suvlarining harakati va oqimi qanday sodir bo'ladi?

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu 10. Muzliklar va ularning gidroekologik xususiyatlari.

Vaqt: 80 min.	Talabalar soni: 21 ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'lumotli - ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	<p>129. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 130. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 131. Ma'ruza matnnini tarqatish 132. Ma'ruzani Power Point taqdimoti bo'yicha olib borish. 133. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord 134. Muzliklarning turlari va hosil bo'lish xususiyatlari. 135. Materik va orol muzliklari, qor chegaralarining paydo bo'lishi.</p>
O'quv mashg'ulot maqsadi: O'quv fani to'g'risida umumiy tasavvurlarni berish	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - Gidroekologiya (GE) fanining ahamiyati va vazifalari, uni o'quv fanlar tizimida tutgan o'mni bilan tanishtirish; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash; - GE nazariya va amaliyat sohasidagi yutuqlarni yoritish; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash shakllarini ochib berish; - GE tarixi bilan tanishtirish; - GE predmeti tasnifini berish; - GE vazifa va usullarini tushuntirish; - GE boshqa fanlar bilan aloqasi ochib berish 	O'quv faoliyat natijalari: <ul style="list-style-type: none"> - GE fanning ahamiyati va vazifalarini ifodalaydilar; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlaydilar; - GE nazariya va amaliyat sohasidagi yutuqlarni yoritadilar; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash mezonlari va shakllarini yozib oladilar; GE kelib chiqish tarixini aytib beradilar; GE predmetini tasniflaydilar; GE vazifalari va usullarini aytib beradilar; GE ning boshqa fanlar bilan aloqasi tartibli ravishda oolib beradilar
Ta'lim usullari	Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus xona
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor - so'rov.

Ma'lumotli kirish - ma'ruzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daq.)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Taqdimot bo'yicha ekranga fanning tuzilmay-mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tawsif beradi, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini tushuntiradi.</p> <p>Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari</p> <p>(№ 1.1 ilova) bilan tanishtiradi.</p> <p>Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar.

	<p>1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi.</p> <p>1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishni taklif etadi va bilimlarni faollashtiradi. (№ 1.2 ilova) Aqliy hujum usuli qoidasini (№ 1.3 ilova) eslatadi. Barcha aytilayotgan takliflarni yozuv taxtasiga yozib boradi. Ushbu ish mashg'ulot yakunida tugatilishini ma'lum qiladi.</p>	Tushunchalarni aytadilar
2-bosqich. Asosiy (50 daq.)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi.</p> <p>2.2. Slaydlarni Power Pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jalg qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi; berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.</p> <p>2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'limgan va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinbord) kiritadi (№1.4 ilova).</p>	<p>O'qiydilar.</p> <p>Tinglaydilar, jadval va chizmalarni daftarga ko'chirib oladilar. Savollar beradilar.</p> <p>Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Talabalar bilimini tezkor savol-javob orqali baholaydi (№1.5 ilova).</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi (№1.6 ilova). va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar.</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p>

Illova 1.1

BAXOLASH MEZONLARI

Nº	Nazorat turi	Ball	Nazorat ishi	Uy ishi	Mustaqil ish	Darsda faoliigi	Amaliy ish
1	JN-1	16	3	2	3	4	4
2	JN-2	19	3	3	3	4	6
3	ON-1	35	7	7	7	7	7
4	YN	30	30				

Illova 1.2

Talabalar bilimini faollashtirish uchun tezkor savollar

1. Abadiy muzliklar qanday hosil bo'ladi?
2. Qor qatlaming paydo bo'lish mexanizmi?
3. Firn muzliklar deb nimaga aytildi?
4. Kar muzliklar deb nimaga aytildi?

Illova 1.3

Aqliy hujum qoidasi:

Hyech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma, hamma aytigan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaga chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aylisa, undan ham yaxshi yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni "jo'sh urishiga" ruxsat ber!

Пинборд (инглизчадан: *pin-* маҳкамлаш, *board* – ёзув таҳтаси) мунозара усуллари ёки ўқув сұхбатини амалий усул билан мослашдан иборат.

Ta'lim beruvchi:

- Taklif etilgan muammoni echishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.
- Ommaviy to'g'ri aqly hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'limgan) yozadilar va yozuv taxtasiga birkirtadilar.

→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgilarni bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

- Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Talabalar bilimini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Xionosfera deb nimaga aytildi?
- 2.Muzliklar qanday klassifikasiyalanadi?
- 3.Muzliklarning paydo bo'lismi xususiyatlari?

Mustaqil ish topshiriqlari.

- 1.Abadiy muzliklarga antropogen ta'sirlarning xususiyatlari?
- 2.Muzliklarni muhofaza qilish chora tadbirlari?
- 3.Er yuzi iqlimida global isishning muzliklarga ta'siri?

M A ' R U Z A – 10.

Mavzu: Ichimlik suv resurslarining etishmaslik sabablari va ularni ifoslantiruvchi manbalar. Muhofaza qilish choralar.

R E J A

- 1. Muzliklarning er yuzida tarqalishi va turlari.**
- 2. Muzliklarning paydo bo'lishi va ahamiyati**
- 3. Muzliklarning to'ynishi va tasnifi**

TAYANCH IBORALAR.

Materik muzlinishi, tog' muzlanishi va muzliklari, muzlanish energiyasi, qor chegarasi, muzliklarning to'ynishi, qor ko'chkisi, firn, morena, xarakatlanuvchi morena, tag, ustki, ichki morenalar, muzlik sikllari, birlamchi muzliklar, tog' tepasidagi muzliklar, vodiy muzliklari, Alp tipidagi muzliklar, O'rta Osiyo tipidagi muzliklar, aysberglar.

1. Muzliklarning er yuzasida tarqalishi va turlari.

Atmosferadagi nam qutubiy mintaqalarda dengiz sathida mo'tadil va issiq mintaqalarda esa troposferaning o'ita hamda yuqori qatlamlarida asosan qattiq holda bo'ladi. Bu erlarda yog'in, qor yil bo'yini erimay to'plana boradi va muzga aylanadi. Erdagi xionosfera (grekcha – xionos – qor demak) deb atalmish doimiy qor va muzliklar sferasi ana shunday hosil bo'ladi. Xionosferani dastlab V.M.Lomonosov ajratib uni sovuq atmosfera deb atagan. Xionosfera

terminini fanga 1939 yil S.V.Kalesnik kiritgan. Xionosferaning maydoni uncha katta emas – salkam 16 mln.km² bo’lib, quruqlik yuzasining atigi 11% ini tashkil qiladi.

Muz qobig’idan nihoyatda ko’p salkam 30 mln.km³ suv to’plangan bo’lib, bu suv barcha daryo va ko’llar suvini birga qo’shgandagidan ham bir necha baravar ko’pdir. Bu suvning 28 mln.km³ Antarktidaga to’g’ri keladi.

MDHda muzliklar bilan qoplangan maydon 82 ming km² bo’lib, buning 20% ga yaqini tog’ muzliklariga qolgan qismi esa – Arktika orollaridagi materik muzliklariga to’g’ri keladi. Muzliklarning umumiy hajmi juda katta agar bu muzlar erisa Dunyo okeanining sathi 50-60 m.ga ko’tarilgan bo’lur edi.

2. Muzliklarning paydo bo’lishi va ahamiyati.

Qor chegarasi (chizig’i) deb shunday balandlikka aytildiği, bu balandlikda qattiq yog’inlarning yillik kelimi ularning yillik sarfiga tepa-teng bo’ladi. Ya’ni, yilliga qancha qor yog’sa, shuncha eriydi. Bu chegaradan pastda yil davomida erib ketishi mumkin bo’lgan qordan ko’ra kamroq qor yog’adi, o’z-o’zidan ma’lumki, bu erda qor to’planmaydi; balandda harorat pasaya borishi sababli qorning akkumulyasiysi uning ablyasiyasiga yoki erishiga qaraganda katta bo’ladi. Binobarin, qorlarning yoz paytidagi quyi chegarasining qor chizig’i deb qabul qilish mumkin. Qor chegarasining balandligi va muzlanishning jadalligi geografik kenglikka hududning iqlimiga, joyning orografiyasiga va muzliklarning o’z-o’zidan erishiga bog’liqdir.

Muzlanish xarakteri, er po’stining xionosfera bilan tunashish xarakteriga bog’liqdir. Muzlanish ikki xil tipda bo’ladi:

3. Materik muzlanishi
4. Tog’ muzlanishi yoki muzliklari.

Materik muzlanishida qor chegarasi bevosita materik yuzasiga Antarktida yoki yirik orollar (Grenlandiya) yuzasiga tutashgan joylarda paydo bo’ladi. Tog’ muzliklari tog’lar xionosfera ichiga kirib borganda paydo bo’ladi. Bu ikkala tip orasida Arktika orollariga xos o’tkinchi (oraliq) muzliklar bor. Bularda tog’ muzliklari ham, materik muzliklari xususiyatiga ega bo’lgan muz gumbazlari ham bor. Doimiy qor va muzliklarning paydo bo’lishi, uchun havo harorati past va yog’inlar ko’p bo’lishi zarur. Qor chizig’ining balandligi ham muzliklarning rivojlanishi ham har ikkala omilning nisbatiga bog’liqdir.

Qorning to’planishi va uning muzga aylanishi hamda muzliklarning harakati tezlanishi ham sustlashishi ham mumkin. S.V.Kalesnik va P.A.Shumskiy muzlanish energiyasi, ya’ni qorning qor chegarasidan yuqoridagi kelimi va sarfi hajmi haqidagi tushunchani fanga kiritdilar.

Muzliklarga quyiladigan asosiy manba bu muzlik oblastiga yog’adigan qorlardir. Ba’zan qishda yoqqan qor erib, muzlikning to’yinishida qor suvlari ishtirok etadi.

Muzliklarga qor bo’ronlari ham ko’plab qor keltiradi. Shamol uchirib yurgan qor shamolga teskari tomonda, muzlik hosil bo’lishi uchun ayniqsa qulay bo’lgan pastkam erlarda to’planib qoladi.

Juda ko’p muzliklarning to’yinishida baland tog’ yon bag’irlaridan tushuvchi qor ko’chkilari ham muhim manba bo’lib hisoblanadi. Ma’lumki, qor ko’chkilari ba’zan 50-75 mln.km³ gacha qor keltiradi.

Tog’ yon bag’irlaridan sirg’anib tushuvchi va o’z yo’lida uchragan yangidan-yangi qor massalarini birga olib tushuvchi qor ko’lami, qor ko’chkisi deb ataladi. Qor ko’chkisi qiyaligi 15°dan ortiq bo’lgan yon bag’irlarda vujudga kelishi mumkin. Tog’ relefining qor qulab ketmaydigan joylarida yoki barcha relef shakllari muz ostida ko’milib qolgan rayonlarda qor to’planib, firnga (zich qorga) so’ngra esa muzlikka aylanadi.

Uzoq vaqtidan beri bosilib yotgan va zinchlangan, o’zaro birikkan muz uchqunlaridan iborat qor firn deb ataladi. Uning zinchligi 0,4 g/sm³ dan 0,7 g/sm³ gacha bo’ladi. Firn qatlamlari tuzilgan; har qaysi qatlam har gal yoqqan qorga to’g’ri keladi va boshqa qatlamlardan zinch parda qobig’i bilan ajralib turadi. Firn qo’yi qatlamlarida muzlikka gletcher muziga aylanadi. Muz donador tuzilishda bo’ladi.

Muzliklar ham harakat qiladi. Sust muzliklar sutkasiga 20-80 sm yoki yiliga 100-300 m harakat qiladi, faqat Ximolay tog'laridagi muzliklarning tezligi sutkasiga 2-3 m yoki yiliga 700-1300 m.

Muzlik harakat qilganda uning tanasida zo'riqish vujudga keladi, bu esa muzlikda yoriqlar hosil bo'lishishiga olib keladi. Muzlik tor vodiyan keng vodiya o'tganda bo'ylama yoriqlar orqali ajralib ketadi. Muz quyosh nuri, yomg'ir va shamol ta'sirida erishi natijasida muzlik yuzasida uyiqlar va chuqurliklar hosil bo'ladi.

Muzliklarning ishi ham daryolar ishi kabi;

- 1) Eroziya
- 2) Transportirovka, ya'ni jinslarning olib ketilishi
- 3) Akkumulyasiyadan iborat bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga muzliklarning ishlari daryolar yo'q joylarda – baland tog'larda va doimiy sovuq o'lkalarda bo'ladi.

Taxminan muzliklar Antarktidada yiliga salkam 0,1 mm. qalinlikdagi qatlamni sidirib ketadi. Muz ichiga kirib qolgan va muz yuzasidagi barcha mineral jinslar – g'o'la tosh, qum va gillar morena deb ataladi.

3. Muzliklarning to'yinishi va tasnifi.

Muzlik orasidagi va muzlik bilan birga harakatlanuvchi jinslar morena deb ataladi. Morenalar; tag, ustki, ichki morenalarga bo'linadi.

Tag morena muz gilining tag qismida hosil bo'ladi. Ustki morena atrofini o'rab olgan yon bag'irlardagi qoyalarning uvalanib tushgan zarrachalaridan hosil bo'ladi. Muzlik yonlarida tag va ustki morenalar qo'shilib yon morenalarni hosil qiladi.

Tog' yon bag'irlaridagi shakli kresloga o'xshash chuqurliklar karlar deb ataladi. Muzlik sikllari deb yassi tog' yon bag'irlarida emas, vodiyning boshlanishidagi karlarga aytildi. Muzliklar erozion yoki tektonik vodiyan pastga silib tushayotganda bu vodiylarni o'yib, ularda uzun tog'orasimon shakllar hosil qiladi. Bunday vodiylar troqlar deb ataladi.

Muzliklarning zonallik hususiyati iqlim klassifikasiyasida aks etgan. Muzliklarning rivojlanish jarayoniga asoslanib, ularning genetik klassifikasiysi tuzilgan. Amerikalik sosiolog V.G.Xobbs ishlab chiqqan klassifikasiya eng ma'qul va istiqbollidir. Bu klassifikasiya asosida muzliklarning bosqichma-bosqich rivojlanishi yotadi.

Quyidagi klassifikasiyaga V.G.Xobbs va S.V.Kalesniklar klassifikasiyasi asos qilib olindi.

I-sinf. Birlamchi muzliklar. Ular muzlanishning progressiv fazasi boshida vujudga keladi, kam uchraydi va keng maydonlar ularni bir-biridan ajratib qo'yan. Bu sinfga muzliklarning quyidagi 4 tipi kiradi.

1. Kar muzliklari
2. Vulqon konusidagi muzliklar
3. Tog' tepasidagi muzliklar
4. Osilma muzliklar

II-sinf. Vodiy muzliklari.

To'yinshi kuchaygan sari muzlanish ham tobora rivojiana boradi, birlamchi muzliklarning soni ko'payib, ularning har qaysisi kattalashadi va ular tog' tepalari va karlardan vodiya tushib keladi va vodiy muzligiga aylanadi. Muzliklarning bu tipi – mo'tadil mintaqaning tog'li o'lkalardagi eng xarakterli muzlik shakllaridir. Odatda, ular quyidagi tiplarga bo'linadi;

1. Oddiy vodiy tipidagi yoki Alp tipidagi muzliklar.
2. Murakkab vodiy tipidagi yoki Kavkaz tipidagi muzliklar.
3. O'rta Osiyo tipidagi muzliklar
4. Ximolay tipidagi muzliklar

III-sinf. Muzlik komplekslari. Muzlanish sharoitining tobora yaxshilanishi shunga olib keladiki. Ayrim muzliklar kengaya borib, bir-biriga qo'shilib ketadi va qisman o'ziga xoslik xususiyatini yuqotadi. Bu hodisa mo'tadil zonalarning shimoliy chekka qismlarida qutb yoki

qutbiy mintaqalarda, ayniqsa ularning sernam mintaqalarida ro'y beradi. Bu erda muzlik komplekslarining quyidagi tiplari hosil bo'ladi;

1. Muzlik platasi yoki Skandinaviya tipidagi muzlanish
2. Tog' oldi muzliklari yoki Alyaska tipidagi muzliklar.
3. Shpisbergen tipidagi muzlanish

IV- sinf. Orol tarzidagi muzliklar va materik muzliklari. Bu muz qoplami juda katta, yaxlit va qalin muzlardan iborat bo'lib, ular orollarni hatto butun materik Antarktidani qoplab yotadi.

Barcha joylardagi harorati 0°C dan past bo'ladigan qutbiy zonalarda quruqliklardan dengizga tomon bo'lgan oqim muzliklar orqali ro'y beradi. Dengizga etib boradigan kichikroq muz massalarini suv to'lqini sindirib yuboradi va ular suvda erib keladi. Materikdan siljib keluvchi va juda katta relief muzliklari dengizda uzoq-uzoqlarga kirib borib, g'oyat katta muzlarga ajralib ketadi. Dengizda suzib yuruvchi bu muzlar muz tog'lari yoki aysberglar deyiladi.

Shimoliy yarim sharda aysberglar Grenlandiya bilan Severnaya zemlya, janubiy yarim sharda esa Antarktidada paydo bo'ladi. Dengiz oqimlari aysberglarni o'rtacha geografik kengliklardan hatto 36° kengligacha olib ketadi va ular bu erda erib ketadi.

Antarktida aysberglari g'oyat katta bo'lib, uzunligi 100 km. suv betidan bo'lgan balandligi 100, 300, hatto 500 m. keladi. Arktika aysberglarining esa balandligi 70 m., uzunligi bir necha km. keladi, yuzasi do'ng notejis bo'ladi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR.

6. O'rta Osiyodagi eng katta muzliklar qaerda joylashgan.
7. Muzliklardi havo haroratining quruqlikdagi havo harorati bilan mutanosibligi qanday boradi?
8. Muzliklar qanday ahamiyatga ega?

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu 11. Chuchuk suv resurslari va ularning gidroekologik xususiyatlari.

Vaqt: 80 min.	Talabalar soni: 21 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Ma'lumotli - ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	<p>136. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 137. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 138. Ma'ruza matnnini tarqatish 139. Ma'ruzani Power Point taqdimoti bo'yicha olib borish. 140. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord 141. Chuchuk suvlarning ba'zi joylarda etishmaslik sabablari. 142. Chuchuk suv resurslarini muhofaza qilish choralarini</p>
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i> O'quv fani to'g'risida umumiylashtirishni berish	

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyat natijalari: <ul style="list-style-type: none"> - Gidroekologiya (GE) fanining ahamiyati va vazifalari, uni o'quv fanlar tizimida tutgan o'mni bilan tanishtirish; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash; - GE nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritish; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash shakllarini ochib berish; - GE tarixi bilan tanishtirish; - GE predmeti tasnifini berish; - GE vazifa va usullarini tushuntirish; - GE boshqa fanlar bilan aloqasi ochib berish
Ta'lismi usullari	Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum
Ta'limi tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus xona
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor - so'rov.

Ma'lumotli kirish - ma'rzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	ta'lim oluvchilar
	ta'lim beruvchi	
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daq.)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Taqdimot bo'yicha ekranga fanning tuzilmayv-mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tawsif beradi, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlарini tushuntiradi.</p> <p>Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari</p> <p>(№ 1.1 ilova) bilan tanishtiradi.</p> <p>Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.</p> <p>1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi.</p> <p>1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishni taklif etadi va bilimlarni faollashtiradi. (№ 1.2 ilova) Aqliy hujum usuli qoidasini (№ 1.3 ilova) eslatadi. Barcha aytilyayotgan takliflarni yozuv taxtasiga yozib boradi. Ushbu ish mashg'ulot yakunida tugatilishini ma'lum qiladi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (50 daq.)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi va uning rejasи, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi.</p> <p>2.2. Slaydlarni Power Pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jalg qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi; berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.</p> <p>2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'limgan</p>	<p>O'qiydilar.</p> <p>Tinglaydilar, jadval va chizmalarini daftarga ko'chirib oladilar.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar.</p>

	va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinboard) kiritadi (№1.4 ilova).	Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Talabalar bilimini tezkor savol-javob orqali baholaydi (№1.5 ilova).</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi (№1.6 ilova). va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

Illova 1.1

BAXOLASH MEZONLARI

Nº	Nazorat turi	Ball	Nazorat ishi	Uy ishi	Mustaqil ish	Darsda faolligi	Amaliy ish
1	JN-1	16	3	2	3	4	4
2	JN-2	19	3	3	3	4	6
3	ON-1	35	7	7	7	7	7
4	YN	30	30				

Illova 1.2

Talabalar bilimini faollashtirish uchun tezkor savollar

- 1.Chuchuk suv resurslari Er yuzasida qanday taqsimlangan?
- 2.Chuchuk suvlarni ba'zi joylarda etishmasligi nimaga bog'liq?
- 3.Chuchuk suv resurlarini ifoslantiruvchi qanday manbalarni bilasiz?
- 4.Chuchuk suv resurslarini muhofaza qilishning qanday choralari ishlab chiqilgan?

Illova 1.3

Aqliy hujum qoidasi:

Hyech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Taqnid qilma, hamma aytigan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaqa chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Пинборд (инглизчадан: *pin*- маҳкамлаш, *board* – ёзув тахтаси) мунозара усуллари ёки ўқув сухбатини амалий усул билан мослашдан иборат.

Ta'lim beruvchi:

- Taklif etilgan muammoni echishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.
- Ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

- Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'limgan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

- Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarni bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgilarni bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lif beruvchi:

→ Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Ilova 1.5

Talabalar bilimiini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Ichimlik suvlar qanday kimyo viy tarkibga ega bo'lishi kerak?
- 2.Ichimlik suvlarining ta'mi qanday bo'lishi kerak?
- 3.Ichimlik suvlariga qanday gigienik talablar qo'yiladi?

Ilova 1.6

Mustaqil ish topshiriqlari.

- 1.Chuchuk suvlarning Er yuzida taqsimlanishi.
- 2.Ichimlik suv bilan ta'minlanishi davlat sanitariya nazoratining vazifalari.
- 3.Ichimlik suvlarini sifat jihatdan baholashda davlat standartlarining roli.

M A ' R U Z A - 11.

Mavzu: Chuchuk suv resurslari va ularning gidroekologik xususiyatlari - 2 soat.

R E J A

1. Suvning organik hayotdag'i va kishilik jamiyatidagi ahamiyati.
2. Chuchuk suv resurslarining geografik joylanishi.
3. Chuchuk suvning ba'zi joylarda tanqislik sabablari.
4. Suv resurslarining ifloslanish sabablari.

Tayanch iboralar.

Ichki suv resursari gidrosfera, chuchuk suv resurslari, chuchu sularning tanqisligi, ifloslanishi manbalari, oqava suvlarni tozalash usullari.

1. Er kurrasidagi sularidan iborat qobiq gedrosfera deb ataladi va unga sayyoramizdag'i hamma suvlar – okean, dengiz, ko'l, daryo, muz, botqoqlik va 5 km chuqurlikgacha bo'lgan er osti suvlar kiradi.

Er yuzasidagi suv miqdorining 93, 96 % ini sho'r okean va dengiz suvlari, 4,12% ini erosti suvlar, 0,0001% inigina chuchuk daryo suvlarini tashkil etadi xalos.

Xalq xo'jaligining turli sohalari o'simliklar, qishloq xo'jalik ekinlari va umuman insoniyat uchun zarur bo'lgan chuchuk suvning miqdori cheklangan bo'lib, 84mln, 827,2 ming km³ ni tashkil qildi. Bu butun gedrosferadagi umumi suv miqdorining 6% i demakdir. O'sha chuchuk suvning 60,0mln, km³ er osti suvlariga 24,0mln, km³ muz va qorlarga, 750ming km³ ko'llarga, 75ming km³ tuproqdag'i suvlarga to'g'ri keladi. Dunyodagi barcha daryolar bir yilda okeanlarga okeanlarga 45ming km³ suv olib keladi. (D.P. Nikitin, Yu.V. Novikov, 1986)

Gidrosferadagi suv doimo harkat qilib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib aylanib yuradi. Quyosh nurining ta'sirida er yuzasidan har yili 520ming km³ suv bug'lari otmosferaga ko'tariladi va to'yinib, qondensasiyalanib, 520ming km³ suv yog'in tariqasida yana er yuzasiga qaytib tushadi.

Er yuzasiga qaytib tushgan suvni bir qismi yana bug'ga aylanadi, bir qismi erga shimalib, grunt suvlarini hosil qildi, bir qismi esa daryolar orqali dengiz, okeanlarga qo'yiladi. Erga shimalgan suv ma'lum vaqtadan so'ng yana bug'ga aylanadi.

Er kurrasida suvning beto'xtov aylanishi natijasida dunyo okeanlarining suvi 3000 yilda, er osti suvi 5000 yilda, muzliklar 8000 yilda, ko'llar 7 yilda, tuproqdag'i namlik esa bir yilda, daryo suvlarini 31 sutkada bir marta almashinib, yangilanib turadi.

2. Qishloq xo'jaligida, sanoatda, kommunal-maishiy xo'jalikda va boshqa sohalarda gidrosferaning faqat 2%ini yoki 28,25 mln km³ni tashkil etuvchi chuchuk daryo, ko'l aktiv suv almashinish zonasidagi er osti suvlari, muzliklardagi suvlardan foydalanilmoxda, xolos. Biroq chuchuk suv resursining 85% i (240 mln km³) xozircha inson juda kam foydalanayotgan muzlik larga to'g'ri keladi.

Ko'rinish turibdiki, kishilarning xo'jaligi uchun zarur bo'lgan daryo, ko'l va er osti chuchuk suvlari miqdori juda kam. Bu chuchuk suvning rigional etishmasligidan tashqari global etishmaslik xavfining vujudga kelishiga sabachidir. Buning ustiga chuchuk daryo suvlari sayyoramiz bo'yicha noteks taqsimlangan. (3-jadval)

Dunyo aholisining 72% i yashaydigan Evro Osiyoda umumiylar suvning 31%iga yaqini oqadi. Agar Evropada jon boshiga yiliga 4,4 ming m³, Osiyoda 6,24 ming m³, Afrikada 13,1 ming m³ oqim to'g'ri kelsa, Janubiy Amerikada 51,5 ming m³ oqim to'g'ri keladi. Er kurrasi bo'yicha esa har bir kishiga yiliga o'rtacha 11 ming m³ daryo suvi to'g'ri keladi.

Mamlakatlardan bo'yicha ham suv resurslari noteks joylashgan. Agar Hindistonda jon boshiga yiliga 3,4-3,1 ming m³ to'g'ri kelsa, bu miqdor Narvegiyada-108,8 ming m³ tashkil qiladi. MDH da er osti suv resurslari ko'p bo'lib, jon boshiga yiliga o'rtacha 18,1 ming m³ suv to'g'ri keladi. Lekin MTHning sharqiy rayonlarida bu ko'rsatkich 500-1000 m³ni tashkil etadi.

Er kurrassining ekvatorial qismida, shimoliy yarim sharning o'rtacha va subtropik mintaqalarida suv resurslari ko'p. Janubiy Amerika va Janubiy Afrikada bir kishida yiliga 25-51,5 ming m³ oqim to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich shimoliy yarim sharning subtropik va o'rtacha mintaqalarida 25 ming m³ dan ortiqdir.

Kishilik jamiyatining faoliyatini suvsiz tasovvur etish mumkin emas. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab chuchuk suvdan foydalangan va u vaqtarda toza suvning etishmasligi sezilmagan. Aholining tez o'sishi, sanoatning rivojlanishi, shaharlar sonining ko'payishi, sug'orma dehqonchilik maydonining kengayib borishi tufayli chuchuk suvga bo'lgan talab tobora orta bordi. Hozirda chuchuk suvga bo'lgan talab shunchalik ortib ketdiki, hatto sanoatlashgan ba'zi rayonlarda uning etishmasligi sezilmoqda.

Suvdan xo'jalikda foydalanishni ikki guruhg'a bo'lish mumkin:

1. Tabiiy manbalardan suv olib foydalanish yoki suv iste'mol qilish. Bunga sanoatni, aholini, maishiy komunal xo'jalikni va qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash kiradi.

2. Tabiiy manbalardan suv olmasdan foydalanish. Bunga kema qatnovi, gidroenergiya olish, baliqchilikda foydalanish, yog'och oqizish kiradi.

3. Dunyodagi 50 dan ortiq mamlakatlarda hozir chuchuk suv etishmaydi. Germaniya, Belgiya, Gollandiya, Angliya, Fransiya, Daniyada, AQSh, Meksika, Yaponiyada, Afikaning bir qator davlatlarida, Yaqin Sharq mamlakatlarda va boshqa davlatlarda chuchuk suv tanqisligi sezilmoqda.

Aholisi 4 mln bo'lgan Gongkong Xitoydan quvurlar orqali chuchuk suv keltirib ichmoqda.

Dunyodagi ba'zi davlatlarda chuchuk suvning etishmasligining asosiy sabablari qo'yidagilardir:

1. Xalq xo'jalik tarmoqlari va aholining tez o'sishi tufayli chuchuk suvga bo'lgan talabning intensiv holda o'sishi sababli suv resurslarining ko'p sarflanishi.

2. Daryolarning suv yig'adigan havzalaridagi o'simliklarni qirqish, erlarni haydash, botqoqliklarni quritish va boshqalar tufayli suv to'planishining qisqarishi.

3. Chuchuk suv resurslarining sanoat, maishiy-kommunal, qishloq xo'jalik va boshqa chiqindi, oqava suvlari bilan ifloslanishi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR.

- 1.Gidosferaning necha foyizini chuchuk suvlari tashkil qiladi?
- 2.Dunyo mamlakatlari bo'yicha daryo suvlari oqimini ifodalab bering.
- 3.Suvdan xo'jalikda foydalanish qanday guruhlarga bo'linadi?
- 4.Ba'zi mintaqalarda chuchuk suvning etishmaslik sabablari nimadan iborat?

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu 12. Ochiq yuza suv havzalarini muhofaza qilish.

Vaqt: 80 min.	Talabalar soni: 21 ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'lumotli - ma'ruza
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	143. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 144. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 145. Ma'ruza matnni tarqatish 146. Ma'ruzani Power Point taqdimoti bo'yicha olib borish. 147. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord 148. Ochiq yuza suv havzalarining gidroekologik xususiyatlari. 149. Ochiq yuza suv havzalarida vodoprovod inshootlarini tashkil qilish.
O'quv mashg'ulot maqsadi: O'quv fani to'g'risida umumiylashtirishni berish	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyat natijalari: - GE fanning ahamiyati va vazifalarini ifodalaydilar; - GE o'quv fani tuzilishini va tavsya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlaydilar; - GE nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritadilar; - GE fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash mezonlari va shakllarini yozib oladilar; GE kelib chiqish tarixini aytib beradilar; GE predmetini tasniflaydilar; GE vazifalari va usullarini aytib beradilar; GE ning boshqa fanlar bilan aloqasi tartibli ravishda olib beradilar
Ta'lim usullari	Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus xona
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor - so'rov.

Ma'lumotli kirish - ma'ruza sinining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Taqdimot bo'yicha ekranga fanning tuzilmayi-mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tawsif beradi, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini tushuntiradi. Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari (№ 1.1 ilova) bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi. 1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishni taklif etadi va bilimlarni faollashtiradi. (№ 1.2 ilova) Aqliy hujum usuli qoidasini (№ 1.3 ilova) eslatadi. Barcha aytilyotgan takliflarni yozuv taxtasiga yozib boradi. Ushbu ish mashg'ulot yakunida tugatilishini ma'lum	Tinglaydilar, yozib oladilar. Tushunchalarni aytadilar

	qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (50 daq.)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi.</p> <p>2.2. Slaydlarni Power Pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jalg qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi; berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.</p> <p>2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'limgan va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinbord) kiritadi (№1.4 ilova).</p>	O'qiydilar. <p>Tinglaydilar, jadval va chizmalarini daftarga ko'chirib oladilar. Savollar beradilar.</p> <p>Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Talabalar bilimini tezkor savol-javob orqali baholaydi (№1.5 ilova).</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi (№1.6 ilova). va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar.</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p>

Illova 1.1

BAXOLASH MEZONLARI

Nº	Nazorat turi	Ball	Nazorat ishi	Uy ishi	Mustaqil ish	Darsda faolligi	Amaliy ish
1	JN-1	16	3	2	3	4	4
2	JN-2	19	3	3	3	4	6
3	ON-1	35	7	7	7	7	7
4	YN	30	30				

Illova 1.2

Talabalar bilimini faollashtirish uchun tezkor savollar

1. Abadiy muzliklar qanday hosil bo'ladi?
2. Qor qatlaming paydo bo'lish mexanizmi?
3. Firn muzliklar deb nimaga aytildi?
4. Kar muzliklar deb nimaga aytildi?

Illova 1.3

Aqliy hujum qoidasi:

Hyech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma, hamma aytigan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaqa chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni "jo'sh urishiga" ruxsat ber!

Illova 1.4

Пинборд (инглизчадан: *pin-* маҳкамлаш, *board* – ёзув таҳтаси) мунозара усуллари ёки ўқув сухбатини амалий усул билан мослашдан иборат.

Ta'lim beruvchi:

- Taklif etilgan muammoni echishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.
- Ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varaq'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'lмаган) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

- Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Monitoring va baholash

O'tilgan mavzu bo'yicha og'zaki so'rov, tezkor savol-javob qarab 1-2 ballgacha baholanadi

Illova 1.5

Talabalar bilimini baholash uchun tezkor savollar

- 1.Sanitariya muhofaza mintaqasi deb nimaga aytildi?
- 2.1-sanitariya muhofaza mintaqasining vazifalari nimadan iborat?
- 3.Markazlashgan vodoprovod inshootlariga qanday talablar qo'yiladi?

Illova 1.6

Mustaqil ish topshiriqlari.

- 1.Sanitariya muhofaza mintaqalariga davlat standarti talablarini izohlab bering.
- 2.Oqova chiqindi suvlarin tozalash usullari nimadan iborat?
- 3.Ochiq yuza suv havzalarini muhofaza qilish choralar.

M A ' R U Z A - 12.

Mavzu: Ochiq yuza suv havzalarini muhofaza qilish - 2 soat.

R E J A

- 1.Suv havzalarining sanitariya muhofaza mintaqalari.
 - 2.Iflos chiqindi oqova suvlarni tozalash usullari.
 - 3.Ochiq suv havzalarida marazlashgan vodoprovod.
1. Sanitariya himoya mintaqasi-bu xo'jalik ichimlik suv havzalarini, suv qabul qilish inshootlarini maxsus ajratilgan masofa va hududlarda himoya qilishdir. Sanitariya himoya mintaqasini tashkil qilish – bu maxsus ajratilgan hududda qattiq tartib o'rnatish, ayniqsa ochiq suv havzzalari va er osti suvlarni ifloslanishdan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan rejimidir. Bunday mintaqani tashkil qilish vodaproval bosh inshootlarini ham o'z ichiga olib, suv manbalarinifovqulodda yoki atayin zararlantiruvchi holatlar oldini olish imkonini beradi.

Sanitariya himoya mintaqalarini suv manbalari va vodaproval inshootlari uchun uyushtirilganda 3 ta mintaqaga ko'zda tutiladi. 1- mintaqaga juda qattiq tartibli mintaqaga bo'lib, unda suv olish joyi, vodaproval bosh inshootlari turli ifloslanishlardan himoya qilinadi. Bu mintaqaga hududi yuza suv havzalarini, suv olish inshootlarini, daryo yoki kanallarni va ularga tutashgan

maydonlarni o'z ichiga oladi. Daryo yoki kanallarning suv olish qirg'og'ida vodoprovodning bosh inshootlari joylashtiriladi.

Suv havzasidagi suvning oqar va oqmasligiga qarab 1-mintaqaga suv satxining ma'lum qimsi ham kiritiladi. Oqadigan suv havzalari uchun suv sathi chegarasi suv oqimiga qarshi 200 mitrdan kam bo'lmasligi kerak, suv oqimi tomon esa bu chegara 100 mitrga mo'ljallanadi, suvning bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'ogigacha suv satxi 100 mitrli masofagacha olinadi. Daryo yoki kanalning kengligi 100 mitrdan kam bo'lsa, suvning butun satxi himoya mintaqasiga kiritiladi.

Er ostidan olinadigan suv manbalari uchun eng kichik suv maydonini himoya qilish mintaqasi depressiv chuqurlik maydoni hisobiga olinadi. Chunki sho'r depressiv chuqurlik atrofida er osti suvlarining ifloslanish xavfi tug'iladi. Bosimsiz er osti suvlar ximoya mintaqasi maydonining radiusi 50 m, bosimli er osti suvlar uchun -30 m bo'ladi. 1- mintaqqa hududlariga qo'yidagi talablari qo'yildi:

- 1). 1- mintaqaga qarashli maydonlar atroflama devorlar bilan berkitilishi kerak.
- 2). Uning xududi ichki ishlar vazirligi hodimlari tomonidan ko'riqlanishi, unga beruxsat, maxsus hujjatsiz hechkim qo'yilmasligi kerak.
- 3). Mintaqqa xududiga vodoprovad inshootlari uchun kerak bo'limgan qo'riliishlarni olib borish man etiladi.
- 4). Axlotxonalar qo'riliishi ko'zda tutilsa, ular temir-betondan er osti suvlarini ifloslantirmaydigan qilib quriladi.
- 5). Muhofazalnagan maydonni toza tutish, obodenlashtirish yo'llariga asfalt yotqizish, chiqindilarini o'z vaqtida olib chiqib ketish va boshqa tadbirlar o'tqazish ko'zda tutiladi.
- 6). 1-mintaqaning suvlarida baliq tutish, unga tutash maydonlarda mol boqish, einlarni zaharli himikatlar bilan ishslash man etiladi.

2-va3- mintaqalar cheklash va kuzatish maydonlarini, er osti suv manbalarini hamda ochiq suv havzalari uchun alovida hududlarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqalarni vazifasi suv olish joyigacha suv havzalari mikroqli ifloslanishining oldini olish va suv sifatini davlat standarti darajasida saqlashdir. 27-61-84 raqamli Davlat standarti – "Markazlashgan xo'jalik ichimlik suv bilan ta'minlash qoidasi" suv havzalarini cheklash va kuzatish mintaqalarining chegaralarini aniqlashdagi asosiy prinsiplari suvgaga tushgan mikroblarning daryo yoki kanal suvida nobud bo'lishidir. Bu ko'satkich katta ahamiyat kasb etib, qo'yidagi formula bilan ifodalanadi:

$$N_1 = N \cdot 10K^1$$

N_1 - ifloslangan suvdagi bakteriyalar konsentrasiyasi.

No- ma'lum vaqt o'tgandan keyin qolgan bakteriyalar konsentrasiyasi.

K^1 – bokterianing o'sish tezligi konstantasi.

Bunday suv vodoprovod inshootlarida ishlaniib o'tgach, 28-74-82 raqamli Davlat standarti - "Ichimlik suv" talabiga javob berishi kerak.

Oqmaydigan suv havzalari uchun sanitariya himoya 2- mintaqasi suv olish joyidan suv taxti bo'ylab 3-5 km masofani o'z ichiga oladi. Bunda joyning gedrologik holatlari hisobga olinadi.

2- mintaqaning yon bag'ri sarhadlari qirg'oq bo'ylab tekserda 500 dan 1000 metrgacha tog'li joy bo'lsa birinchi ko'tarilgan tepalikgacha o'z ichiga oladi. 3- mintaqqa yon bag'ri chegaralari suv chegarasidan 3-5 km maydonni tashkil qiladi.

2. Sanoat va urbanizasiya jarayonining hozirgi darajasiga suv resurslarini ifloslanishdan saqlash va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning o'zi etarli emas shu sababli iflos oqova suvlarni tozalab va zararsizlantirib, so'ngra tabiiy manbalarga oqizish kerak. Buning uchun qo'yo'yidagi usullardan foydalilaniladi.

1) Mexanik tozalash usuli. Bunda maxsus tozalash inshooti qurilib, suvda erimaydigan moddalar ushlab qolinadi. Agar suvdagi aralashmalarning hajmi 5 mm dan katta bo'lsa temir panjara yordamida, undan kichik bo'lsa temir to'rlar orqali tutib olinadi. Iflos suvlar ustida suzib yuruvchi suyuq moddalarini yog' tutqich, moy tutqich, neft tutqich, smola tutqichlar bilan ushlab

qolinadi. Shuningdek, iflos suvlar maxsus tindirgichlarda tindirilib qattiq zarrachalar cho'ktiriladi yangilari suv yuzasiga chiqarilib ushlab qolinadi.

Mexanik usul bilan maishiy xo'jalik chiqindi suvlaridagi erimay qolgan aralashmalarini 60%igacha, sanoat chiqindi suvlaridagi o'sha moddalarini 95%igacha tozalash mumkin.

2) Himyaviy tozalash usuli. Bunda iflos chiqindi suvni tozalashga unga reagentlar qo'shib, reaksiyaga kiritib, erigan va erimagan holdagi ifloslaniruvchi moddalar cho'ktiriladi yoki zararsizlaniriladi. Iflos suvlarning himyaviy tozalash usuli orqali suvdagi erimagan modallarni 95%igacha, erigan xoldagisini 25%gacha tozalash mumkin.

3) Elektroliz tozalash usuli. Bunda maxsus elektrolezlarda to'plangan iflos chiqindi suvga elektor toki yuboriladi. Natijada iflos suvdagi zararli organik moddalar emiriladi, metallar, keslotalar va boshqa anorganik moddalar esa suvdan ajratib olinadi.

4) Bilologik tozalash usuli. Bu usul bilan chiqindi suvni tozalash tabiiy va tun'iy sharoitlarda amalga oshiriladi. Tabiiy sharoitda iflos suvni biologik tozalash alohida ajratilgan erlarni sug'orish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda ajratilgan g'alla sug'oriladi, iflos suv tuproqdan feltirilanib, toza bo'lib chiqadi. 80 sm qalinlikdagi tuproq iflos suvni etarli darajada tozalash imkoniyatiga ega.

Iflos suvni sun'iy sharoitda biologik tozalash uchun maxsus beofelrli inshoot – tindirgichlar quriladi. Bunda iflos suv usti aerop sharoitda yashovchi mikroorganizmlardan iborat biologik parda bilan qoplangan erik materiallardan o'tkaziladi.

Biologik usul bilan tazalangan daryo, ko'l, suv omboriga va kanallarga tushirishdan oldin xlor suyuqligi bilan dezinfeksiya qilinadi. Bu usul bilan sanoat, kommunal maishiy chiqindi suvlarni 98 %gacha tozalash mumkin.

Ukraina olimlari sanoatdan chiqqan chiqindi suvlarni tozalashning yangi usulini – antrasit granulalari yordamida tozalash yo'llarini ishlab chiqdilar. Bu usulga ko'ra iflos sanoat chiqindi suvlar maxsus termik ishlovdan o'tgan va orasida mikroskopik bo'shliqlari bo'lgan antrasit granulalaridan (tariq donasidek maydalangan ko'mir) o'tkaziladi. Natijada suvdagi iflos moddalar o'sha granulalar ichidagi mikroskopik bo'shliqlarda ushlanib qolinadi va suv tozalanib chiqadi. Hozir Ukrainianing 5 ta viloyatida bu usul bilan yiliga 2,7 mln m³ suv tozalanib, 3 mln so'mdan ortiq foyda keltirmoqda.

So'nggi yillarda bir qator mamlakatlarda, maishiy-kommunal iflos chiqindi suvlarni tozalashda xlorelladan foydalanilmoqda. Xlorella o'sish davrida o'zidan bakterisit muddasini chiqarib iflos suvdagi kislotalik darajasini o'zgartiradi, oqibatda kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar qirilib, suv tazalanib boradi.

3. Axolini markazlashgan vodoprovod suvi bilan ta'minlash uchun ko'pincha ochiq suv havzalaridan foydalaniladi. Vodoprovod inshootlari daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar suvidan foydalanish maqsadalrida, suv manbalari qirg'oqlarida yoki ma'lum masaofa qoldirilib, aholi turar joylariga yaqinroq qilib quriladi. Vodoprovod inshootlari ikki qismidan iborat bo'ladi.

- 1) Bosh inshoot – suv olish joyi, tozalash inshootlari va nasos stansiyalari.
- 2) Suv taqsimlayligan, aholiga etkazadigan vodoprovod quvurlari, ya'ni vodoprovod tarmoqlari, rezervuarlar, suv olish kalonkalari va tarmoqdagi boshqa uskunalar.

Har qanday holatda ham suv olinadigan joy qo'yidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) Sanitariyaviy nuqtai nazardan ifloslanish xavfini yo'qligi.
- 2) Har qanday holatda vodoprovod tarmoqlariga suvning etarli miqdorda kelib turishi.
- 3) Suv olish inshootlari va suv olish joyi himoyalangan bo'lmos'.
- 4) Ochiq suv havzalaridan tanlangan suv olish joyi aholi turar joyidan, oqova suvlar tushadigan xududdan yuqoriqda bo'lishi.

5) Vodoprovod inshooti qurilayotganda shahar yoki shaharchalarning faqat hozirgi chegarasi nazarda tutilmassdan balki Bosh loyihadagi chegara nazarda tutilmog'i.

Suv olish joyi daryo qirg'og'i yuvilib ketmaydigan, chuqurligi 2,5 m dan kam bo'limgan joydan tanlanishi kerak. Shunday chuqurlik bo'lganda quvir orqali loyqa va qumlar so'rilmaydi.

Suv manbalaridan suv olish yoki qabul qilish inshootlari qo'yidagi turlarga bo'linadi:

- 1) Qirg'oqli.
- 2) O'zi oqadigan o'zanli yoki quvurlar yordamida so'rildigani.

3) Buxta, ya'ni kavishli suv oqimini sekinlashtradigan.

Xullas, suv qabul qilish inshootlarining vazifasi suv oqimi kichik suv rezervuari tashkil qilish, suvni nasoslar orqali quvirlar bilan tozalash inshootlariga chiqarib berishdir. Havuzlarda suv oz bo'lsada tinadi, suv qabul qilish inshootlari yaxshi jihozlangan bo'lsa, suvning tozalanish o'sha joydan boshlanadi.

MUSTAHKAMLASh UChUN SAVOLLAR.

- 1.Birinchi muhofaza mintaqasining maydoni va vazifalari nimalardan iborat?
- 2.Oqava suvlarni tozalashning qanday usullari mavjud?
- 3.Biologik tozalash usulining mohiyatini va ahamiyatini aytib bering.
- 4.Ochiq yuza suv havzalaridan suv olinadigan joy qanday sanitariya talablariga javob berishi kerak?

9.AMALIYOT (seminar va laboratoriya) mashg'ulotlarining ishlanmalari, ularni o'tkazish va qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Gidroekologiya fannig mazmuni, o'ziga xos xuxusiyatlari amaliy mashg'ulotda aniqlanadigan Ekologik ko'rsatkichlarning davomiyligi va boshqa xuxusiyatlarga asoslanib unga 80 minit ajratiladi va u asosan quydagicha taqsimlanadi.

- tashkiliy qism – 2 minut
- o'tilgan dars va uyda tayyorlash uchun berilgan topshiriqlarni tekshirish – 10 minut
- yangi amaliyot darsini mazmnini tushntirish – 10 minut
- amaliyot ishlanmalari – ishni bajarish tartibi bilan tanishish va mazmunini yozib olosh – 10 minut
- amaliyot ishini bajarish uchun zaruriy jihozlar bilan tanishish yg'ish va ularni ishni bajarishga tayorlash- 10 minut
- amaliyot ishini bajarish – 36 minut

amaliyot ishini bajariishi va uminig kuzatuv vaqt mobaynida qyidagi ishlarni bajarish:

- o'tilgan darslar bo'yicha talabalar bilimini aniqlash
- talabalarning darslarga nazariy tayyorgarlik bilan kelishini aniqlash
- dasslarga faol ishtirok etsh faollogini aniqlash
- yozgan konspeklaririni teshirish
- nazariy savollar, suhbatlar, kichik yozma va test materiallari asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash
- mustaqil is ucun topshirilgan referat, kocspekt yozish va boshqa uy vazifalarini bjarilish darajasini aniqlash va baholash

Bajarilgan amaliyot ishining natijalarini aniqlash, umumlashtirish va xulosalar qilish - 8 daqiqa

Uyga vazifalar berish - 4 daqiqa

10.TARQATMA MATERIALLAR

(referat mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, baholash mezonlari, horijiy manbalar)

- 1.Ergashev A. Umumiy ekologiya.-Toshkent.:O'qituvchi, 2003.
2. Ergashev A. Ergashev T.Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish.- Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.
3. Hamdamov I., Bobomurodov Z, Hamdamova E. Ekologiya.-Toshkent: 2005..
4. G'ulomov M.I. Hozirgi zamon ekologiyasi.-Buxoro: 2009.
5. Egamberdiev R. Ekologiya.-Toshkent: Noshir, 2010.
6. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. - Toshkent.: Chinor ENK,2006
7. Ergashev A. Gidroekologiya. Toshkent. 2008.
- 8.Molchanov. Ozyora Sredney Azii SGU, vyp. 3. 1929 g.
9. V.N.Mixaylov, A.D.Dobrovolskiy Obshaya gidrologiya. Moskva «Vyschaya shkola», 1991 g.
10. L.P.Shubaev, Umumiy er bilimi. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1975 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

11. V.L.Shuls. Gidrografiya Sredney Azii, Tashkent, 1958. str. 59.
12. O.P.Sheglova. Pitaniya rek Sredney Azii. Tashkent, 1960, str. 136-208.
13. A.Z.Zaxidov, A.F.Chernova. Vodnoenergeticheskie resursy rek Uzbekskoy SSR, Tashkent, 1963. str. 15.
14. V.L.Shuls. reki Sredney Azii, L., Gidrometeoizdat, 1965 g.
15. E.I.Chembarikov, B.A.Baxritdinov. O'rta Osiyoning daryo va zovur suvlari gidroximiysi. Toshkent, - «O'qtuvchi» - 1983.
16. S.D.Muraveyskiy. Reki i ozyora. Gidrobiologiya. Stok. M., 1960 g. str. 388.
17. I.A.Shiklomanov. Issledovaniya vodnyx resursov sushi, itogi, problemy, perspektivy. L., 1988. str. 152.
18. Chembarisov E.I.Baxritdinov B.A. O'rta Osiyoning daryo va zovur suvlari gidroximiysi, Toshkent, 1983.
19. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi, 1991
20. Beknazov R.U., Novikov Yu.V. Oxrana prirody. Tashkent, Ukituvchi, 1995.
21. Otaboev,Nabiev, Inson va biosfera, 1993

Elektron resurslar

1. <http://www.Environment.ru>.
2. <http://www.Ecologe.ru>.
3. <http://www.Environ.com>.
4. <http://www.Ecolog.com>.
5. <http://www.clin.procl.Com>.

«Gidroekologiya» fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

«Gidroekologiya» fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash

va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiylashtirish soatlari hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'r ganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oly ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'r ganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini ballar orqali ifodalanadi.

«Gidroekologiya» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quydagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darjasini
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshirqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.
- Talabaning fan bo'yicha reytingi quydagicha aniqlanadi:

$$R = \frac{V * O}{100}$$

- bu erda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiylashtirish o'quv yuklamasi (soatlarda); O - fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini (ballarda).
- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiylashtirish o'quv yuklamasi (soatlarda); O - fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini (ballarda).
- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiylashtirish o'quv yuklamasi (soatlarda); O - fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini (ballarda).
- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni

o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiylar bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan bal'lari yig'indisiga teng.
- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.
- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiylar bilining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmasdan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Nº	Ko'rsatkichlar		
		maks	1-ON
1			
2			
3			
	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlарining yuritilishi va to'liqligi.	15	0-15
	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-10
	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-10
Jami ON ballari		35	0-35

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Nº	Ko'rsatkichlar	JN	
		maks	
	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlарining yuritilishi va holati	15	0-15
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-10

Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-10
Jami JN ballari	35	0-35

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o’tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo’lib fan bo’yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

	Ko’rsatkichlar	YaN ballari	
		maks	O’zgarish oraliq’i
1	Fan bo’yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo’yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
	Jami	30	0-30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko’p variantli usulda o’tkaziladi. Har bir variant 5 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo’yicha tayanch so’z va iboralar asosida tuzilgan bo’lib, fanning barcha mavzularini o’z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichi 0-6 ball oralig’ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to’plashi mumkin.

Yozma sinov bo’yicha umumiyo o’zlashtirish ko’rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo’yilgan o’zlashtirish ballari qo’shiladi va yig’indi talabaning yakuniy nazorat bo’yicha o’zlashtirish bali hisoblanadi.

**11.MUSTAQIL ISh mavzulari va uni bajarish
bo'yicha uslubiy tavsiyalar
Mustaqil ish topshiriqlari.**

№	Mavzu nomi	soat
1.	Tabiatda va inson hayotida suvning ahamiyati to'g'risida.	4
2.	Suv obektlari va gidroekologik hodisalar to'g'risida.	4
3.	Ko'llar, ularning joylanishi, turlari va ahamiyati	4
4.	Daryolar va ularning joylanishi, turlari va ahamiyati.	4
5.	Daryolarning morfologiyasi va morfometriyasi.	4
6.	Suv omborlari, ularning joylanishi, turlari va ahamiyati.	4
7.	O'zbekistondagi suv omborlarining umumiy xarakteristikasi.	4
8.	Er osti suvlari va ularning ahamiyati.	4
9.	Er osti suvlarining paydo bo'lish manbalari.	4
10	Muzliklar va ularning ahamiyati.	4
11.	Ichimlik suvlarining ba'zi joylarda etishmaslik sabablari	4
12.	Amudaryo havzasidagi suv omborlari	4
13.	Sirdaryo havzasidagi suv omborlari	6
14.	Zarafshon daryosininggidroekologik xususiyatlari	6
Jami:		60

12. KURS IShLARI mavzulari va ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar

1. «Gidroekologiya» fanining o'rganish obekti.
2. «Gidroekologiya» fanining vazifalari va ahamiyati.
3. Ko'llarning fizik-geografik xarakteristikasi.
4. Ko'llarning suv balansi.
5. Ko'llarning issiqlik balansi.
6. Ko'llarning tuz balansi.
7. O'rta Osiyoning tog'li mintaqalaridagi ko'llar.
8. O'rta Osiyoning cho'l mintaqalaridagi ko'llar.
9. Ko'llarni muhofaza qilish.
10. Daryolar, ularning tarqalishi va turlari.

13. BMI mavzulari banki va uni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar

1. Ko'llar, ularning joylanishi, turlari va ahamiyatini o'rganish.
2. Daryolar va ularning joylanishi, turlari.
3. Er osti suvlari va ularning ahamiyati.
4. Muzliklar va ularning tahlili qilish.
5. Ichimlik suvlaringin ba'zi joylarda etishmaslik sabablari.
6. Amudaryo havzasidagi suv omborlarini o'rganish
7. Suv omborlari, ularning joylanishi, turlari va ahamiyati.
8. Zarafshon daryosining gidroekologik xususiyatlari

14. GLOSSARIY

A

Abiotik tendensiyalar	Inson hayat tarzining chekish, giyohvandlik, gipodinamiya va boshqalar kabi jihatlari.
Abiotik omillar	Notirik tabiatga taalluqli bo'lgan ekologik omillar: fizik(iqlimiyl, geomorfologik, tuproq, fazoviy), kimyoviy (kislotalilik, suv, havo, tuproq komponentlari va boshqalar) demografik (populyasiya darajasida organizmlar guruhlarining soni va zichligi).
Avtotroflar	Anorganik moddalardan organik birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan organizmlar. Ularga barcha yashil o'simliklar, suvo'tlari nitrifikasiya qiluvchi bakteriyalar va boshqalar, kiradi.
Avtotrof suksessiya	Sho'rlanmagan muhitda boshlanadigan va aftotrof organizmlarning vaqtinchalik va uzoq vaqt davom etadigan ustunligi bilan ajralib turadigan suksessiya. Masalan, tashlandiq maydonlarda o'rmonlarning rivojlanish.
Agroekotizim (agrobiosenoz)	Qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtirish uchun inson tomonidan doimiy ravishda bir meyorda ushlab turiladigan, mustahkam bo'lмаган sun'iy ravishda hosil qilingan ekologik tizim (dalalar, bog'lar polizlar, uzumzorlar va boshqalar).
Adaptasiya	Organizmning yashash muhiti sharoitiga moslashuv jarayoni. Bu jarayon hamma vaqt uchta asosiy omil ta'siri ostida rivojlanadi, ya'ni: irlisyat, o'zgaruvchanlik va tanlanish (tabiiy va sun'iy).
Akselerasiya	Organizmning alohida organlarini yoki qismlarini ma'lum biologik normalarga nisbatan tez rivojlanib ketishi.
Allergiya	Organizmning u yoki bu modda-allergenga nisbatan nafratli sezgirligi. Allergik kassaliklarning sababi shahar muhitida immun tizimining buzilishidir.
Alovida qo'riklanuvchi tabiiy hududlar	Biologik xilma-xillikni saqlash maqsadida alovida tabiatni muhofaza qilish yoki boshqa ahamiyati tufayli xujalikda foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan quruqlik suv va havo bo'shlig'ining bir qismi. Ularga muhofazaning alohida rejimi o'rnatiladi. Ularga buyurtmalar qo'riqxonalar, tabiiy bog'lar, botanika bog'lari va tabiiy yodgorliklar kiradi.
Amensalizm	Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosobat turi bo'lib, unga birgalikda yashayotgan turlardan biri boshqasidan zarar ham foyda ham ko'rmaydi. Masalan, qalin bargli daraxt ostida o'sayotgan yoruqliknini sevuvchi o't o'simlik yorug'lik etishmasligidan zarar ko'radi, shu bilan bir vaqtida u daraxtga foyda ham zarar ham etkazmaydi.
Anabioz	Vaqtinchalik o'lim. Organizmning vaqtinchalik holati bo'lib, unda hayotiy jarayonlar minimumgacha susaygan va barcha hayotiy belgilari yo'qolgan. Anabioz tirik mavjudotlarning eng qiyin sharoitlarda ham yashab qolish imkoniyatini oshiradi. Masalan, sovuqqonli hayvonlarning yozgi issiq vaqtlarida va sovuq qishda yashab qolishi.
Antibioz	Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari turi, bunda har ikkala o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi tomonlar bir-biriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Antisiklon	Yuqori bosim markaziga ega bo'lgan atmosfera hosilasi. Antisiklonda shamol markazdan esadi va shu bilan bir vaqtda shimoliy yarim sharda soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha va janubiy yarim sharda soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishda aylanadi.
Antropogenez	Odamning kelib chiqishi, jamiyat shakllanishi jarayonida uning tur sifatida namoyon bo'lishi haqidagi fan.
Antropogen ta'sir	Insonning iqtisodiy, harbiy madaniy va boshqa manfaatlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, tabiiy muhitda fizik, kimyoiy, biologik va boshqa o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan ta'sir.
Antropogen obekt	Inson tomonidan uning ijtimoiy extiyojini ta'minlash uchun yaratilgan va tabiiy obekt xossasiga ega bo'limgan obektdir.
Antropogen landshaft	Tabiiy landshaft bo'lib, insonning xo'jalik faoliyati natijasida shunchalik qayta tuzilganki, unda tabiiy komponentlarning aloqasi o'zgarib ketgan.
Atmosfera	Erning turli gazlar aralashmasi, suv bug'lari va changlardan tashkil topgan gaz qobig'i. Atmosferada ob-havo va iqlim shakllanadi. Atmosfera o'zini-o'zi tozalash qobiliyatiga ega.
Abadiy muzliklar	Tabiiy majmualar va resurslarga ekotizimlar muvozanatini buzilishiga olib kelmaydigan maksimal antropogen ta'sir.
Atrof muhit monitoringi	Atrof muhit holatini baxolash va kuzatishning kompleks tizimi uni turli omillar ta'siri ostida o'zgarishini bashorat qilishi.
Atrof muhit	Tabiiy muhit, tabiiy va tabiiy – antropogen, hamda antropogen obektlar komponentlarining majmuasi.
B	
Bakteriologik qurol	Ommaviy qirg'in quroli. Buning asosida turli bakterial vositalar (bakteriyalar, viruslar) va zaharlar tushuniladi. Tarqatuvchilar (xasharotlar yoki kemiruvchilar) yordamida va kukunsimon yoki suyuq xoldagi o'qorilar ko'rinishida qullaniladi. 1972 yilda BMT Konvensiyasi tomonidan taqiqlangan.
Biogeografiya	Hayvonlar va o'simliklarning Er yuzida tarqalishini o'rganuvchi fan.
Biosferada biogeokimyoiy moddalar aylanmasi	Biosfera chegarasida sodir bo'ladigan moddalar aylanmasi. Fotosintez jarayonida anorganik birikmalardan tirik modda hosil bo'lishi va organik moddalarni anorganik birikmalargacha parchalanishidan iborat.
Biogeosinoz	Tarixiy shakllangan biosenoz va abiotik muhitning ular joylashgan hudud bilan birgalikdagi majmuasi.
Bioqlimiy xopkins qonuni	Turli mavsumiy xodisalarning boshlanish muddatlari joyning kengligi va uzunligi, uning dengiz sathidan balandligiga bog'lik bo'ladi.
Biologik soatlar	Organizmlarning vaqtga qarab mo'ljal olishi, xujayralarda boradigan fizik kimyoiy jarayonlarning davriyigiga asoslangan. Biologik soatlar organizmlarda Erning elektromagnit maydonini sutkalik yoki mavsumiy o'zgarishlari davriyigiga, quyosh radiasiyasi va boshqa geofizik omillar ta'siriga sezgirlik qobiliyatini namoyon qiladi.

Biologik progress	Populyasiyalarda tug'ilishning o'limga nisbatan ustunligi, u yashash uchun kurash natijasidir.
Biologik regress	Populyasiyalarda o'limning tug'ilishga nisbatan ustunligi. Biologik regressga chalingan turlar inson muhofazasida bo'ladi: qizil kitobga kiritiladi, qo'riqxonalar, buyutmalar va boshqalarda saqlanadi.
Biologik moddalar aylanmasi	Tirik organizmlar ta'sirida kimyoiy elementlarni bir turdan boshqa turga aylanish va ko'chishining siklik jarayonlari. Havoda moddalar aylanishida 98,3% suvda – 1,7% moddalar qatnashadi.
Biotik ifloslanish	Insonning xo'jalik faoliyatiga zarar etkazuvchi hayvonlar yoki o'simlik larning tarqalishi.
Biom	O'simliklar turlarining ustunligi bilan aniqlanadigan (nina bargli o'rmon, tropik o'rmon) va geografik holati bilan xarakterlanadigan ekologik tizim.
Biosenozni tiklash	O'n yillar mobaynida bir necha bosqichda sodir bo'lgan mustahkam ekologik tizimning tabiiy rivojlanishi. Misalan, archa o'rmonlari yong'indan yoki kesilishdan so'ng taxminan 100 yil davomida qayta tiklanadi.
Biosfera	Erning tirik organizmlar yashaydigan tashqi qobig'i. U tirik moddalarni (o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar), organomineral mahsulotlarni (torf, neft, toshkumir) biokos moddalarni (tirik organizmlar yordamida hosil qilinadi), fazoviy moddalarni va turoq qatlarni o'z ichiga oladi. Biosferaning chegarasini muhitning tirik organizmlar mavjudligini cheklaydigan omillar aniqlaydi. Biosfera to'g'risidagi qonunni akademik V.I. Vernadskiy yaratgan va rivojlanтирган.
Biosfera qo'riqxonalari	Biosfera jarayonlarini o'rganishda foydalilanildigan tabiiy quriqxonalarning bir qismi. Dunyoda 300 dan ortiq, Rossiyada 20ta atrofida, O'zbekistonda esa 111 ta biosfera ko'riqxonalari faoliyat ko'rsatib, ularning hammasi YuNESKO ning tabiiy muhit o'zgarishlarini kuzatish bo'yicha qabul qilgan yagona dasturi bilan bog'liq.
Biota	Ma'lum bir yashash muhitidagi (havo, suv, tuproq) barcha organizmlar. Biota flora (barcha o'simlik organizmlari) va faunadan (barcha hayvon organizmlari majmuasi) tashkil topgan.
Bioteknologik jarayonlar	Inson tomonidan o'z hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan ozuqa mahsulotlari, hodisalar va samaralarni mikroorganizmlar yordamida yaratilishi.
Biotik omillar	Organizmlarning bir-biriga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ekologik omillar. Ular tur ichidagi va turlararo omillarga bo'linadi.
Biotox	Ma'lum bir biosenoz bilan band bo'lgan, bir xil relief, iqlim va tuproq sharoitlariga ega bo'lgan suv yoki quruqlikning bir qismi.
Biosenoz	Muhitning bir xil sharoitida yashayotgan o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar populyasiyalarining majmuasi.
Boqimandalik	Xo'jayindan qolgan ovqatlarni iste'mol qilish. Komensalizmning bir turi. Misol tariqasida yirik yirtqichlar (misalan, sher va giena) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni keltirish mumkin.
Botanika bog'lari va dendrariyalar	Tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar bo'lib, ularning vazifasiga biologik xilma-xillikni saqlash va o'simliklar olamini boyitish maqsadida hamda ilmiy, o'quv va madaniy-oqartuv maqsadlarida daraxtlar va bo'talar kolleksiylarini yaratish kiradi.

Buyurtma	Maxsus ajratilgan hudud bo'lib, ko'rirkxonadan farqli ravishda unda vaqtincha biron-bir tabiiy resurs turlaridan (foydali qazilma, o'simlik hayvon) foydalanish taqiqlanadi. Buyurtmalarning o'rmon, ixtiologik, ornitologik va boshqa turlari mavjud. Buyurtmalar hayvonlar populyasiyasining soni tiklangandan so'ng, landshaftlar va boshqalar qayta tiklangandan so'ng yopiladi.
Biogeosenozlar almashinuvi	Ekologik tizimlarning tabiiy rivojlanishi, unda muhitning tabiiy omillari ta'siri ostida bir biogeosenoz boshqasi bilan almashinadi (botqoqlik o'rniда o'tloq paydo bo'lishi) Biogeosenozlar almashinuvi inson ta'sirida (o'rmonlarni kesish, botqoqliklarni quritish) yoki tabiiy ofatlar (yong'in, suv bosishi, zararqonandalarning ko'payib ketishi) natijasida ham sodir bo'lishi mumkin.
	Biosfera komponentlari o'rtasida atomlarning biogen oqimi ularni yagona moddiy tizimga birlashtiradi, unda hatto bирgina bug'imning o'zgarishi ham boshqa barchasining sezilarli o'zgarishiga olib keladi.
Biosenozning sun'iy tiklanishi	Ilk biosenozni qayta tiklash bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar majmuasi. Masalan, ma'lum hududdan yo'qolib ketgan hayvonlarni qaytarish, daraxtlar ko'chatlarini ekish.
V	
Valeologiya	Insonning sog'ligi bilan, uni boshqarish usullarini ishlab chiqishi bilan shug'ullanuvchi fan.
Viruslar	Faqat mikroskop yordamida ko'rish mumkin bo'lgan xujayrasiz hayotiy shakllar. Ma'lum bir xujayralar ichiga kirib olishga moslashgan bo'lib, faqat ular ichida ko'payadi. Viruslarni o'rganuvchi fanga virusologiya deyiladi.
G	
Genotip	Ma'lum bir organizm yoki xujayrada jamlangan barcha irlar xususiyatlari majmuasi.
Gauze prinsipi	Agar ikki tur sonining o'sishi bir hil hayotiy muhim resurs tomonidan chegaralangan bo'lsa ular bir hil chegaralangan hududda mavjud bo'la olmaydi.
Genofond	Ma'lum bir populyasiyadagi hamma individlar genlarining majmuasi.
Geterotrof suksessiya	Geterotrof organizmlar tomonidan istemol qilinadigan organik moddalarni doimiy ravishda yo'qitilishi bilan xarakterlanadigan suksessiya.
Geterotroflar	Tayyor organik moddalar bilan oziqlanadigan organizmlar. Ularga odam, hamma hayvonlar, hamda zambrug'lar kiradi.
Gigiena	Sog'lom hayot tarzi tug'risidagi fan. Odamning sog'ligiga, mexnatga layoqatliligi va hayotining davomiyligiga muhitning turli omillari (tabiiy omillar, maishiy sharoit va b.q) ta'sirini o'rganadi.
Gidrosfera	Erdagi barcha suv obektlarining majmuasi. U er osti va er osti gidrosferalariiga bo'linadi.
Gomeostaz	Biologik tizimlarning (organizmlar, populyasiyalar va ekotizimlar) ichki muhitini xossasi va tarkibining doimiyligini saqlash va o'zgarishlariga qarshilik ko'rsatish xususiyati.
D	

Davlat ekologik ekspertizasi	Davlat tabiatni muhofaza qilish organlari komissiyasining materiallarini tekshirish. Faoliyatning ma'lum turini ekologik talablarga javob berishini baxolaydi.
Darmondorilar	Kam miqdorda organizm hayot faoliyati va modda almashinish jarayoni uchun zarur bo'lgan organik birikmalar, ularning ko'p bo'lishi va etishmasligi kasallikka olib keladi.
Dezinseksiya	Kimyoiy vositalar yordamida kasalliklar tarqatuvchi, zararli hasharotlarni (chivinlar, pashshalar, bitlar, qandalalar va kanalar) yuqotish. Hozirgi vaqtida qushlar, baliqlar, yirtqich hasharotlar va boshqalar yordamida dezinseksiya qilish keng tarqalgan.
Dizinfeksiya	Kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar yoki yuqumli kassaliklar tarqatuvchilarni maxsus vositalar yordamida yo'qotish yoki zararsizlantirish.
Dezodorasiya	Organik moddalarning chirishi natijasida hosil bo'lgan yoqimsiz hidrlarni maxsus eritmalar bilan tozalash va ishlov berish yordamida yo'qotish.
Demografik jadval	Yosh bo'yicha o'limning taqsimlanish xususiyati to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lgan jadval. Inson hayotining o'rtacha davomiyligini bashorat qilish uchun foydalaniadi.
Dunyo Okeani biomassasi	Er gidrosferasining asosiy qismida yashaydigan barcha organizmlar yig'indisi.
E	
Er biomassasi	Er sayyorasidagi barcha tirik moddalar yig'indisi. Er biomassasining 97% ini o'simliklar, 3% ini hayvonlar tashkil qiladi.
Er yuzasi	Er qobig'ining yuqori qismi, uning chegarasida foydali qazilmalarni qazib olish mumkin. Er yuzasi mineral resurslar va energetik zahiralar manbaidir, hamda odamlar yashash muhitining bir qismi bo'lgan osti inshootlari (metropolitenlar va b.q) er yuzasi boyliklarining kamayib borishini asosiy va yo'lovchi qazilmalarni to'lik to'xtatish prinsipiiga amal qilgan holda to'xtatish mumkin. Bu er yuzasini asossiz qazishlarni qisqartiradi, agar er yuzasidan qazib olishni 1 % ga oshirilsa, qo'shimcha masalan, 10 mln.t.ko'mir yoki neft qazib olish mumkin.
Erlarni sug'orish	Sug'orish tizimi yordamida tuproqning suv rejimini o'zgartirishni o'z ichiga olgan meliorativ tadbir.
Erlarni quritish	Kanallar qazish va quvurlar yotqizish yordamida grunt suvlarini va er osti suvlarini chiqarish yo'li bilan tuproq holatini yaxshilashga qaratilgan meliorativ tadbir.
Yong'in	Ekologik omil. O'zining ekologik ta'siriga ko'ra yong'in yuqori va qo'yli kismlarga bo'linadi. Yuqori yong'inlar butun o'simliklar qoplami va katta miqdordagi hayvonlarni yo'q qiladi. U sodir bo'lishi uchun bir necha o'n yillar kerak bo'ladi. Qo'yli yong'inlar bakteriyalar faoliyatini kuchaytiradi va mineral moddalarni o'simliklar uchun oson o'zlashtiriladigan yangi ozuqa shakliga aylantiradi. Ba'zi o'simliklar ko'payishi uchun yong'in talab qilinadi, masalan, ba'zi bir qarag'aylarning urug'lari to'plangan shishlari faqat yuqori haroratda eriydi va undan urug'lari uchib chiqadi.

Yorug'lik	Erdagi energiyaning birlamchi manbai. Fotosintezda qatnashadi, shu tarzda quyonsh energiyasi o'simliklar orqali boshqa organizmlarga o'tkaziladi. Shu bilan birga yorug'likning signal xususiyati ham muhim ahamiyatga ega. Asosiy signal vazifasini fotodavr ya'ni yorug' kunning uzunligi o'taydi.
Jamoalar mahsuldorligi	Organizmlar jamoalarining, hamda ular alohida elementlarining yangi biomassa yaratish qobiliyati.
Jamoalar tuzilmasi	Tabiiy ekotizimlar qanuniyatlarini tushinish uchun ahamiyatli bo'lgan sistematik holati, energiya va moddalarning ko'chishidagi roli, oziq zanjiridagi o'rni yoki boshqa belgilari bilan bir-biridan farq qiladigan turli organizmlar guruhlarining nisbati.
	Er atmosferasini hosil qiluvchi gazlar (azot, kislород, karbonat angidrid va boshqa gazlar) aralashmasi. Erni sovuqdan va quyosh nurlari oqimidan saqlaydi, tabiiy muhitning hayotiy muhim komponenti. Odam havosiz o'rta hisobda besh daqiqagacha chiday olishi mumkin.
I	
Idioadaptasiya	Organizmlarning atrof muhitni aniq bir sharoitidagi ma'lum bir hayot tarziga xususiy moslanishi. Misol tarzida qushlarning patlanishi, boshqa hayvonlarda turli tana shakllari, o'simliklarda changlanishga moslanish va boshqalarни keltirish mumkin.
Ifloslanish turlari	Ifloslanishning qo'yidagi turlari mavjud: tabiiy ifloslanish – vulqon otilishidan hosil bo'lgan changlar, chang bulutlari; fizik ifloslanish-radiasiya, shovqin; kimyoiy ifloslanish – kuchli zaxarli organik moddalar, texnik chiqindilar va qishloq xo'jalik oqova suvlari.
Ifloslanish	Atrof muhitga har qanday qattiq, suyuq va gazsimon moddalar, mikroorganizmlar yoki energiyaning (tovush, shovqin, nur) inson va hayvonlar salomatligi uchun ekotizim holati uchun, zararli bo'lgan miqdorda tushishi.
Immunitet	Organizmning yuqumli kasallikkarni qabul qilmaslik qobiliyati. Immunitet ikki hil bo'ladi: 1. Tug'ma immunitet – ya'ni, ona organizmdan o'tadi. 2. Ortirilgan immunitet – ya'ni, kasallik yuqtirilgandan so'ng hosil bo'ladi.
Ishlab chiqarishni ekologizasiyalash	Tabiiy resurslardan foydalanishga va atrof muhit sifatini saqlashga imkon beradigan tejamkor va kam chiqimli texnologiyalarni qayta ishlash va boshqa qarorlarni amalga joriy qilish.
Ijarachilik	Bir turning boshqa bir tur tanasi yoki uyasidan boshpana yoki uya sifatida foydalanish. Misol tariqasida meduzalarning ipli soyaboni ostiga yashiringan ba'zi bir baliqlarni keltirish mumkin. Ijarachilik usimliklarda ham keng tarqalgan
Ifloslanish	Atrof muhitga har qanday qattiq, suyuq va gazsimon moddalar, mikroorganizmlar yoki energiyaning (tovush, shovqin, nur) inson va hayvonlar salomatligi uchun ekotizim holati uchun, zararli bo'lgan miqdorda tushishi.
Iqlim	Ma'lum joyda yil davomida ob-havoning navbatma-navbat almashinishi. Iqlim joyning geografik kengligiga, er yuzasining xususiyatlariiga bog'liq bo'ladi. Ma'lum bir joyning iqlimi qanday bo'lishi uning okeanga yaqinligiga bog'liq bo'ladi.
	Y

Yo'l qo'yiladigan chiqindi chiqarish	Ma'lum bir tashkilot tomonidan vaqt birligi davomida atmosferaga chiqarishga (yoki suv xafzasiga tashlashga) ruxsat beriladigan maksimal miqdordagi ifloslovchi modda, bunda ushbu moddaning miqdori uning ruxsat etilgan konsentrasiyasidan oshmasligi kerak.
	K
Karst	Gips, ohaktosh, toshko'mir kabi tog' jinslarining suvda erishini o'z ichiga oladigan geologik hodisa. Bunda er osti bo'shlig'i (masalan, g'orlar) va er yuzasining cho'kishi hosil bo'ladi. Rossiyada karstlar masalan, shimoliy kavkazda va rus tekisligining markaziy qismida tarqalgan.
Kanserogen moddalar	Organizmga ta'sir ko'rsatganda, unda xavfsiz va xavfli o'simtalar hosil qilishga qodir bo'lgan kimyoviy birikmalar.
Kommensalizm	Organizmlar o'rtaсидаги экологик муносабатлар турни бо'либ, unda bir tur boshqasiga foyda ham zarar ham keltirmasdan o'zi biron bir ustunlikka yoki foydaga ega bo'ladi. Masalan, itlar o'simliklarning tikanli, yoki ilmoqli urug'lari yoki mevalarini tarqatuvchi bo'lib hizmat qiladi, lekin o'zi undan foyda ham zarar ham ko'rmaydi. Kommensalizm ijarrachilik, boqimandalik va sotrapiznichestvo kabi turlarga bo'linadi.
Konsumentlar	Tayyor organik moddalarni iste'mol qiladigan organizmlar. Ular o'txo'r (mollar), etxur yoki yirtqich (sher) va hammaxo'r (odam) kabi turlarga bo'linadi.
Kislotali yomg'irlar	Oksidlangan (pH 5, 6 dan past) yog'inlar: yomg'ir yoki qorni ifodalovchi ibora. Oltingugurt ikki oksidi va azot oksidlaridan iborat bo'lgan sanoat chiqindilarini atmosferaga chiqarishda hosil bo'ladi, atmosferada bu moddalar suv bug'lari bilan birikib oltingugurt va azot kislotalari hosil qiladi. Muhitning oksidlanishi muhim ekologik muammollardan biridir.
L	
Landshaft	Tabiiy hududiy majmua, u erda turli tabiiy komponentlar (relef, tog' jinslari, iqlim, suv tuproq, hayvonot va o'simliklar dunyosi) o'zaro bog'langan va o'zaro munosabatda bo'lib joyning ma'lum bir turini hosil qiladi, insonning xo'jalik faoliyati natijasida hosil bo'lgan landshaftlar antropogen landshaft deyiladi.
Limitlovchi omillar	Organizmning extiyojiga nisbatan ko'p yoki kam bo'lgan omillar ular rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
Litosfera	Erning er pusti qismini o'z ichiga oladigan qattiq qatlami. Er pusti tog' jinslaridan tashkil topgan va inson uchun muhim resurs bo'lib hisoblanadi, chunki unda foydali qazilmalar, tabiiy qurilish materiallari va yoqilg'i – energetik xom ashyo mavjud
M	
Magnit bo'roni	Quyosh faolligi davrida hosil bo'ladigan er magnit maydonining kuchli o'zgarishi. U yurak qantomir va boshqa kassaliklarga chalingan odamlarda tez namoyon bo'ladi. Shuningdek hayvonlar, qushlar xasharoitlarga ham ta'sir qiladi. Inson ham Erning magnit maydoniga o'zgartirish kiritishi mumkin. Bunday ta'sirning asosiy manbai elektr uzatish liniyalari va radiotelevizion stansiyalar tomonidan hosil qilinadigan elektromagnit maydoni hamda fazoviy raketalar faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Maishiy chiqindilar	Maishiy sharoitda hosil bo'ladi, odatda qattiq moddalar (qog'oz, shisha, plastmassa va boshqalar) va qolgan oziq ovqat mahsulotlaridan tashkil topadi. Suyuq (chiqindi suvlar) va gazsimon (turli gaz chiqindilar) moddalar bo'lishi ham mumkin.
Minimum qonuni	Bunda hosildorlik (mahsulot) minimum holatda bo'lgan omilga bog'liq bo'ladi. (masalan, agar tuproqda fosfor miqdori minimal darajada bo'lsa bu hosildorlikni pasaytiradi.)
Madaniy landshaft	Insonning xo'jalik faoliyati davomida uning o'z extiyojlarini qondirish uchun ongli ravishda o'zgartirilgan landshaft (buyurtmalar milliy bog'lar, alohida sihatgohlar va b.q). Antropogen landshaftlardan yuqori iqtisodiy samaradorligi va inson hayoti uchun optimal muhit bilan farq qiladi.
Me'moriy-rejalashtirish tadbirlari	Aholi yashash joylarida atrof muhitni ifloslantirish manbalariga aylanishi mumkin bo'lgan tashkilotlarni to'g'ri joylashtirish. Bunda shamol yo'naliши, tashkilotlarni qurish uchun ajratilgan hudud refezi va boshqalar hisobga olinadi. Shovqin ifloslanishini oldini olish uchun shovqindan muhofaza qilingan binolar quriladi, ularning xonalarida normal tovush rejimi ta'minlanadi.
Minimum qonuni	Bunda hosildorlik (mahsulot) minimum holatda bo'lgan omilga bog'liq bo'ladi. (masalan, agar tuproqda fosfor miqdori minimal darajada bo'lsa bu hosildorlikni pasaytiradi.)
Muz davri	Erning tarixiy geologik bosqichi, bu davr davomida iqlimning keskin sovushi kuzatilib muzliklar hosil bo'lishiga olib keladi. Iqlimning bunday og'ishi yuzlab, minglab, millionlab yillar davom etishi mumkin. So'nggi muz davri taxminan 10 ming yil oldin tugagan.
Mavsumiy marom	Organizmlarning yil fasllari almashinishiga ko'rsatadigan reaksiysi. U fotodavriylik tomonidan boshqariladi.
Kam chiqimli texnologiya	Bu texnologiya yordamida qattiq, suyuq va gazsimon chiqindilarni eng kam miqdorda chiqishiga erishish mumkin.
Xalqaro atrof muhitni muhofaza qilish obektlari	Xalqaro hududiy chegaralarni qamrab olgan (amosfera havosi, dunyo okeani, fazo) va xalqaro chegaralarni kesib o'tadigan (hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari va b.q) obektlar.
Tuproq meliorasiyasi	Tuproq umumdorligini yaxilashga qaratilgan tadbir. Gidrotexnik meliorasiya – sug'orish, quritish, sho'r tuproqni yuvish; fizik meliorasiya – qo'mlash, loyqalash va shu kabilar; kimyoviy meliorasiya – gipslash, oksidlash va b.q.
Ko'chish	Organizmlarning bir joydan boshqasiga ko'chishi. Mavsumiy ko'chish bir yilda, sutkalik ko'chish bir kunda takrorlanadi.
Mikrobiologik ifloslanish	Ekotizimlarga ular uchun xos bo'limgan, biotik tuzilmalar yashash sharoitiga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi organizmlarning kiritilishi. Yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi bilan ifloslanish eng xavflidir. OITS – ilgari ma'lum bo'limgan eng xavfli virusli kasallikdir.
Mikroelementlar	Organizm uchun juda kam miqdorda hayotiy zarur bo'lgan kimyoviy elementlar. Ularga temir marganes, kobolt, vanadiy, ftor, molibden, bor, rux, natriy, mis elementlari kiradi. Organizmda ularning etishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi kasallikka olib keladi.
Sovuqqa chidamlilik	Organizmlarning past salbiy xaroratga chidamlilik hususiyati.

Mutasiyalar	Organizmda tabiiy va sun'iy omillar ta'siri ostida yuzaga keladigan genetik o'zgarishlar. Mutasiyalar tirk tabiatda irlsiy o'zgaruvchanlikning asosi bo'lib hisoblanadi. Mutasiyalarni chaqiruvchi omillarga mutagenlar deyiladi.
Mutualizm	Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turi bo'lib, unda har ikkala turning ham ishtirok etishi zarur. Masalan, kedr yong'oqlari bilan oziganuvchi kedrovkalar, bu daraxt urug'larini yagona tarqatuvchisi bo'lib hisoblanadi.
N	
Suv bosishi	Suv sathi ko'tarilishi oqibatida quruqlikning katta qismini suv ostida qolishi bilan bog'lilik bo'lgan tabiiy ofat. Er yuzasining deyarli z/n qismida suv bosish xavfi mavjud.
Milliy bog'	Tabiiy komplekslar saqlanib qolgan, muhim ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan, insonlarning dam olishi uchun foydalilanligidagi hudud. Har qanday sanoat korxonalaridan to'lig'icha ozod qilingan. Rossiyada 30 dan ortiq milliy bog'lar bor. Ulardan eng taniqlilari "Sochi", "Valday", "Bug'i orol" milliy bog'laridir.
Neyston	Ummonlar, dengizlar, ko'llar va suv omborlarining turli xil hayotiy shakllar bilan to'lgan yuqori qatlami. Bu qatlamda yashovchilar uchun eng asosiy xavf dengiz va ummonlarga neft qazib olishda va neft tashuvchi tankerlar halokati vaqtida to'kiladigan neft maxmulotlaridir. Bunday xalokatlar oqibatida har yili 1 mln.ga yaqin suvda suzuvchi qushlar qirilib ketmoqda.
Neytralizm	Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turi bo'lib, unda har xil turlarning ikki populyasiysi bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, masalan: bir o'rmondagи bug'i va olmaxon, qurbaqa va o't o'simliklar. Bu ancha kamyob o'zaro munosabatlardir, chunki hamma turlar o'rtasida bevosita yoki bilvosita o'zaro ta'sirlar mavjud.
Noosfera	Biosfera rivojining yangi bosqichi, unda insonning ongli faoliyati uning rivojlanishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi. Bu tushuncha biosfera evolyusiyasiga inson ta'sirini baholash tufayli paydo bo'lgan.
	O'simliklar va hayvonlar organizmda sodir bo'ladigan bir qator fiziologik jarayonlar, bunda kislород yutiladi, karbonat angidrid va organizm hayot faoliyatini taminlaydigan suv va energiya ajraladi. Aerob va anaerob nafas olish farqlanadi. Aerob nafas olish – bu fotosintezga teskari jarayon bo'lib, unda gazsimon oksidlovchi kislород o'ziga vodorodni biriktirib oladi. Anaerob nafas olish kislорodsiz muhitda sodir bo'ladi, bunda oksidlovchi kislород o'ziga vodorodni biriktirib oladi.
Noqulay sharoitdan qochish	Yashab qolish usuli. Ancha qulay yashash joyini izlash faolligida namoyon bo'ladi. Bu faqat makonda harakatlanishga qodir bo'lgan harakatchan hoyvonlar uchun xosdir. Masalan, ba'zi bir hayvonlar uya va in qurib, unda o'ziga ancha qulay bo'lgan mikroiqlim yaratadi, qushlar uzoqlarga uchib ketadi.
O	

Modda va jnergiya almashinuvchi	Organizm va tashqi muhit o'rtasida doimiy ravishda sodir bo'ladigan almashinuv. Organizmlarning muhit funksiyasi va hayotning muhim belgilardan biri. Bu jarayon organizmga ozuqa va suv kirishi bilan boshlanadi va hosil bo'lgan parchalanish mahsulotlarining organizmdan chiqarilishi bilan tugaydi. Almashinuv jarayonida organizm xujayra va to'qimalar tarkibiy qismlarini yangilash uchun, o'z hayot faoliyatini va moddalarini tiklash uchun zarur bo'lgan energiyani oladi.
	Hayot sharioti turli tuman bo'lib, biron-bir omil boshqasini almashtira olmaydi. Masalan, biron-bir boshqa omil suvning o'rnni bosa olmaydi.
Cheklovchi omil	Muhitning organizm chidamlilik chegarasidan chiquvchi omili. Ularga harorat, yorug'lik, havo, tuproq va boshqalar kiradi.
Ozon tuynug'i	Ma'lum balandlikdagи atmosfera ozon qatlamida ozon miqdori kam bo'lgan (50 % gacha va undan ko'proq kamaygan) katta bo'shlirkni xarakterlovchi ibora. Ozon katlamining siyraklashishi jiddiy ekologik xavf bo'lib hisoblanadi, chunki u atmosferaning barcha tiriklikni ultrabinafsa nurlardan himoya qilish qobiliyatini susaytiradi.
Ozuqa tarmog'i	Ekologik tizimlardagi o'zaro munosobatlar, bunda ko'pchilik komponentlar turli obektlar bilan oziqlanadi va o'zlari ham ekotizimlarning har xil a'zolari uchun ozuqa bo'lib hisoblanadi.
Oziq zanjiri	O'zaro aloqador bo'lgan turlar zanjiri, uning har bir navbatdagi xalqasi keyingisi uchun ozuqa bo'ladi.
Optimum qonuni	Har qanday ekologik omil organizmga ko'rsatadigan ijobjiyy ta'sirining ma'lum chegarasiga ega bo'ladi.
Ob-havo	Ma'lum joyda kunning ma'lum vaqtidagi atmosfera holati. Ob-havo parametrlariga atmosfera bosimi shamol tezligi va yo'nalishi, havo namligi va harorati kiradi.
Ontogenez	Organizmda butun hayot davri davomida sodir bo'ladigan barcha morfologik, fiziologik va biokimyoiy o'zgarishlar ketma - ketligi.
Xavfli chiqindilar	Tarkibiga biron bir xavfli xossaga ega bo'lgan (zaharlilik, yuqumlilik, portlovchi va b.q) va atrof tabiiy muhit hamda inson salomatligi uchun xavfli miqdorda bo'lgan modda kiradigan chiqindi. Rossiyada barcha qattiq chiqindilar umumiy massasining 10 % xavfli hisoblanadi (masalan, shishatola, asbestos chiqindilar, ishlatilgan gudron kislotali chiqindilar qoldig'i, ishlatilgan radiotexnik uskunalar).
Ko'chki	Tog' jinslarining qiyalik bo'ylab pastga qarab o'z og'irligi va tashqi kuch (seyslik yoki silkinish) ta'siri ostida siljishi. Ko'chki tuproq qoplamiga, tog' jinslari massivlarining qurishiga va odamlar o'llimiga olib keladi. Qora dengiz qirg'oqlarida, Qrim va Kavkazda, Volga voxasi va boshqa daryolarda, hamda tog'li rayonlarda har yili ko'chkilar bo'lib turadi.
Organizm	Har qanday tirik mavjudot notirk tabiatdan ma'lum xossalaring to'plami bilan (xujayra tuzilishi va moddalar almashinishi) ajralib turadi, harakatlanish, o'sish, rivojlanish va ko'payish xususiyatlari ega. Shuningdek organizmga irsiylanish va moslanish xususiyatlari ham xosdir.

Tabiiy muhitni muhofaza qilish	Atmosfera, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq, suv va er yuzasini saqlashga yo'naltirilgan davlat va jamiyat tadbiri. Muhofazaning asosiy prinsipi qo'yidagilar: tabiatdan oqilona foydalanish; atrof muhitga etkazilgan zararni qoplash va tabiatdan foydalanish; davlat ekologik ekspertizasining majburiyligi; atrof muhit holati haqida ishonchli ma'lumot olish uchun har bir kishining haqli ekanligiga amal qilish.
P	
Paleontologiya	Erning butun geologik o'tmishi davrida hayvonlar va o'simliklarning qazilma qoldiqlari haqidagi va tirik tabiatning rivojlanish tarihi haqidagi fan.
Issiqxona samarasi	Atmosferada issiqxona gazlarning to'planishi jarayonini ifodalovchi ibora. Ular: uglerod ikki oksidi, metan, azot oksidlari, ozon va boshqa gazlardir. Bu gazlar (asosan SO ₂). Er yuzasidan va atmosferadan o'tadigan uzun to'lqinli issiqlik nurlariga tusqinlik qiladi, bu gazlar bilan to'yingan atmosfera havosi xuddi issiqxona toshi kabi ta'sir ko'rsatadi: ya'ni er yuzasiga katta miqdorda issiqlik o'tkazadi, lekin Er yuzasidan ajralib chiqadigan issiqliknii tashqariga chiqarmaydi. Bunday holning sodir bo'lishiga atmosferaning texnogen ifloslanishi sabab bo'ladi.
Suv ko'tarilishi	Grunt suvlari sathining kritik nuqtagacha ko'tarilishi. U er osti suv inshootlaridagi nosozliklar, jarliklarning tekislanishi, hududning asfaltlanishi va boshqa antropogen ta'sirlar oqibatida yuzaga keladi. Uning natijasida Rossiya da 700 dan ortiq shaharlar shu jumladan Sankt – Peterburg, Moskva, Volgograd va Novosibirsk shaharlarini suv bosgan.
Maydonnig ximoya chizig'i	Inson tomonidan maydonlarni shamol eroziyasidan himoya qilish, suv rejimini yaxshilash, qo'shlar va hasharotlar uchun qulay yashash muhitini yaratish maqsadida ekilgan daraxtlar va bo'talar qatori.
Populyasiya	Ma'lum maydonni egallagan va biologik sikllarning umumiyo maromiga ega bo'lgan bir tur individlarining guruhi. Populyasiya muhit o'zgarishiga o'z genofondini qayta qurish orqali javob beradigan evolyusiya jarayonining elementar birligi bo'lib hisoblanadi.
Ikki muhit doimiyligi	G'ayritabiyy shirin hayotda yashab qolish usuli. U tashqi omillarning o'zgarishidan qat'iy nazar organizm ichki muhitining xossasi va doimiy tarkibini saqlab turishdan iborat. Bunday qarama-qarshilik katta energetik chiqim va organizm ichki va tashqi tuzilishida maxsus moslanishlarni talab qiladi.
Moddalar oqimi	Kimyoviy elementlar va ular birikmalari shaklidagi moddalarni produsentlardan redusentlarga o'tishi.
Energiya oqimi	Kimyoviy bog'lamlardan iborat bo'lgan organik birikmalar (ozuqa) shaklidagi energiyaning oziq zanjiri bo'ylab bir trofik darajadan boshqasiga o'tishi.
Ekologik piramidalar qoidasi	Yuqori energetik darajalarning har birida to'planib boradigan energiya miqdorining jadal kamayib borish qonuniyati.
Chidamlilik chegarasi	Bu shunday chegaraki uning ortida organizmnning yashashi mumkin emas (muzli cho'llar, atmosferaning yuqori qatlamlari). Barcha organizmlar uchun har bir ekologik omil bo'yicha o'z yashash chegarasi bo'ladi.

Ruxsat etilgan miqdor (REM)	Tabiiy muhitning sanitariya – ekologik sifat normativi. Suv yoki havo muhitidagi yoki tuproqdagagi ifloslantiruvchi moddalarning inson salomatligiga ta'sir ko'rsatmaydigan va uning avlodlarida salbiy oqibatlar keltirib chiqarmaydigan miqdori.
Ekologik tizimlar mahsuldarligi	Fotosintez va xemosintez jarayonlarida hosil qilinadigan, keyinchalik ozuqa sifatida foydalinish mumkin bo'lgan kimyoviy moddalarni hosil qilishda nur energiyasini o'zlashtirish tezligi.
Produsentlar	Organik moddalar hosil qiladigan va keyinchalik undan barcha organizmlar oziqlanadigan organizmlar. Bularga asosan yashil o'simliklar kiradi. Ular oziq zanjirining birinchi halkasini tashkil qiladi.
Sanoat zonasasi	Turli hil sanoat obektlari joylashgan hudud. Atrof muhitni ifloslantiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi.
Sanoat ishlab chiqarish chiqindilari	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yoki ish bajarishda hosil bo'lgan va o'zining dastlabki istemol xossasini to'liq yoki qisman yo'qotgan xom ashyo va materiallar qoldig'i. Chiqindilar qattiq (yog'och va boshqa materiallar), suyuq, (oqova suvlar, ishlatalgan organik erituvchilar va boshqalar) va gazsimon (avtoulov chiqindi gazlari va b.q) kabi turlarga ajratiladi.
Protokooperasiya	Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning har ikkala tur uchun foydali bo'lgan, lekin ularning yashab qolishi uchun majburiy bo'lмаган тuri. Masalan, botqoqlik o'simliklarining asalarilar tomonidan changlatilishi.
R	
Radioativ chiqindilar	Tarkibida radioaktiv izotoplar konsentrasiyasi ruxsat etilgan miqdordan ko'p bo'lgan yadro energetikasi, harbiy sanoat, sanoat va sog'liqni saqlash tiziminining ba'zi sohalaridan chiqadigan suyuq, qattiq yoki gazsimon chiqindilar. Oziq zanjiri bo'ylab harakatlanishi davomida bu radioaktiv elementlar hayotiy funksiyalarni tuzatib bo'lmaydigan buzilishlariga, butun organizmning nobud bo'lishiga olib keladi. Ularning ba'zilari million yillar davomida o'zining halokatli zaharlilagini saqlab qoladi.
Redusentlar	Organiq qoldiqlarni parchalab ularni anorganik moddalarga aylantiruvchi organizmlar. Ular, asosan mikroorganizmlar va zamburg'lardir.
Rekultivasiya	Tuproq unumdarligi va o'simliklar qoplamini mun'iy ravishda qayta tiklash va Erni ekologik xavfsiz holatga keltirish. Erning bunday buzilishlari tog'qon sanoati ishlari, yo'llar va boshqa qurilish ishlari natijasida hosil bo'lishi mumkin. Neft maxsulotlari bilan ifloslangan erlar, gaz va boshqa shu kabi moddalar bilan ifloslansan tuproqlar ham rekultivasiyaga muhtoj.

Rossiyaning ekologik muammollarini	Bunday muammolardan birinchi navbatda qo'yidagilarni ko'rsatib o'tish kerak: <ul style="list-style-type: none"> o'rmonlar maydoninig kamayib ketishi. uning oqibatida yog'ochlarning sifati yomonlashadi va mo'ynali hayvonlarning soni kamayadi; neft va gaz konlaridan ongsiz ravishda foydalanish, uning oqibatida atrof muhit ifloslanmoqda, hayvonlarning ko'chish yo'llari to'sib quyilmoqda va transportlar bilan tundraning ulkan maydonlari buzilmoqda. Hamma joyda tuproq erozoyasining sodir bo'lishi, tundra o'rmon va suv ekotizimlarining buzilishi. Inson yashash muhiti sifatining pasayishi uning oqibatida kasalliklarning ortishi. Atom elektrostansiyalari loyihalarining ishonchsizligi, ishlatalgan radioaktiv yoqilg'ilar saqlash joylarda halokat havfli. Katta shaharlarda sanoat korxonalarining ko'pligi va uskunalarining eskirganligigi (bu shu shaharlarda va unga tutash tumanlarda ekologik halokat zonasiga olib kelmoqda). Baykal, Ladoga ko'llari va Volga daryosi ekotizimlarining buzilishi.
Resirkulyasiya	Ba'zi bir resurslar turlaridan ikkilamchi foydalanish. Bu faqat iqtisodiy tomondan foydali bo'lib qolmasdan atrof muhit ifloslanishini kamaytirishga ham qulay imkoniyat yaratadi.
S	
Sanitariya nazorati	Gigiena tomonidan ishlab chiqilgan, inson salomatligini yaxshilash va hayotini uzaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalda qo'llash. Sanitariya nazorati sanitariya – epidemiologiya stansiyasi tomonidan amalga oshiriladi.
Suvning qurishi	Ma'lum hudud chegarasida er osti suvlari zahiralarining kamayib ketishi yoki er osti suvlari oqimining pasayib ketishi.
Sanitariya himoya zonasi	Odamlarni ishlab chiqarish omillarining zararli ta'siridan himoya qilish uchun aholi yashaydigan yoki sanoat tashkilotlari joylashgan binolarni sanoat ifloslovchi manbalardan ajratib turuvchi oraliq maydon.
	Faqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning bo'lmasligi emas, balki to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy sog'lom holat. Rossiya ekologik holatning yomonlashib borishi tufayli va ijtimoiy nosog'lom muhit ta'siri ostida 70% aholi ijtimoiy va ruhiy emosional tushkunlik holatida qolgan.
Suksessiya	Tabiiy omillar yoki inson faoliyati ta'siri natijasida yashash muhitining bir joyida jamoalarning nomavsumiy paydo bo'lish va yo'qolish jarayonlari. Avtotrof va geterotrof suksessiyalar mavjud.
Simbioz	Ikki tur o'rtasidagi bir-biri uchun foydali bo'lgan o'zaro aloqalarning turli shakllari bo'lib ularning yaqindan birga yashashini ko'zda tutadi. Masalan, lishayniklar – bu zamburg'lar va suv o'tlarning yaqindan birga yashashi bo'lib uning hisobiga lishayniklar eng qiyin sharoitda ham yashab qolishga va yuqori xilma – xillikka, 20 ming dan ortiq turga erishdi.

Suv	Rangsiz, ta'mi va hidи bo'lмаган суyuqlык. Сув табиатда енг көп таржалған мадда болып, үсіз организмлардың яшеші мүмкін емес. У организм шүаярларының тарқыбына кирады (инсон танасында 65% да яғни сұдан иборат) абиотик экологик омыл, көпчілік оғындық және ғылыми сұндырылған мүхиттегі болып саналады.
Suv ombori	Daryo о'zanida амалда тұрган сувға ега болған, сун'иы рашыда hosil qilingan сув havzasi. Одатда дарыода дамба hosil qilib yoki erni kovlab hosil qilinadi. Chuchuk сув manbai болып hisoblanadi, erlarni sug'orish, baliq ko'paytirish және mikroiqlimmi yaxshilash uchun foydalaniлади.
Hamtavolik	Bir hil resurslarning turli маддалари yoki qismlarini istemol qilish. Yuksak оғындықтар және тупроқ бактериялари ортасыда муносабат буга мисол болып хизмат qiladi. Тупроқ бактериялари chiriyotган оғындық qoldiqlaridagi органик маддаларни qayta ishlaydi оғындықтар esa bunda hosil болған tuzlarni istemol qiladi. Kommensalizmga qaralsin.
Ijtimoiy ekologiya	Jamiyat tuzilmalarының atrof табиияттың және ijtimoiy мүхиттегі aloqasını органувчи fanlar majmui.
Ozuqa tarmog'i	Ekologik тизимларының озареттескендегі муносабаттар, бұнда көпчілік компоненттер түрлі обекттер мен мүхиттегі озиғанады және олардың әмбебаптылығынан залежи жасайды.
Stenotop organizmlar	Ekologik омылдар та'sirining жуда тор доирасыда яшешінде жағдай болып организмдар. Sharoitning жуда кам озареттескендегі мүхиттегі оғындықтарының оғындықтарынан залежи жасайды.

T	
Texnogen ekologik halokat	Texnik qurilmalar va inshootlardagi (AES, tankerlar va b.q.) halokatlar, bularning oqibati atrof tabiiy muhitda salbiy o'zgarishlarga, organizmlarning ommaviy qirilib ketishiga va yirik iqtisodiy zararga olib keladi.
Tabiiy resurslar kadastro	Tabiiy resurslarning ma'lum bir turini xarakterlovchi ma'lumotlar ro'yxati. Miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi, ijtimoiy – iqtisodiy xususiyatlarni ham qamrab olishi mumkin. Er kadastro, hudud kadastro, o'rmon va suv kadastro, tibbiy-biologik kadastr va boshqalar ajratiladi.
Tirik mavjudotlar resurslari	Organizmlar tarkibiy qismlari, ular hayot faoliyati energiyasi, ular hayotiy sikllarining ma'lum fazalari o'tadigan joy haqidagi ma'lumotlar majmuasini ifodalovchi ibora. Almashinmaydigan, almashinadigan va o'zaroalmashinadigan resurslar ajratiladi.
Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi	Inson va atrof muhitning dialektik birligi. Inson Er biomassasining bir qismi sifatida o'z evolyusiyasi davomida atrof muhitga bevosita bog'liq bo'lgan. Asta-sekin insonning o'zi muhitning kuchli omiliga aylangan. (Antropogen omilga qaralsin). Uning tabiatga ta'siri ijobjiy va salbiy bo'lishi mumkin.
Tashqi muhit	Organizm mavjud bo'la oladigan barcha tirik va notirik tabiat sharoitlari. U alohida organizm va butun populyasiyalar holatiga, rivojlanishiiga ko'payishiga ta'sir ko'rsatadi.
Tabiiy muhit	Yashash muhitni va inson ishlab chiqarishi faoliyatining tabiiy tarkibiy qismi.

Tirk modda	Erdagi hamma organizmlar, ular o'xhash kimyoviy elementlar to'plamiga ega bo'ladi.
Tabiiy antropogen obekt	Insonning hujalik yoki boshqa faoliyati natijasida o'zgartirilgan tabiiy obekt yoki inson tomonidan yaratilgan va tabiiy obekt xossasiga ega bo'lgan obekt.
Tabiatda og'ish hodisasi	Erning har bir nuqtasida yorug'liq, namlik va issiqlikning davriy o'zgarishi. Sutkalki (tabiatda kun va tunning almashinishi bilan bog'liq); ko'p yillik (iqlim o'zgarishi bilan bog'liq) og'ish xodisalari ajratiladi.
Tur hayotining maksimal davomiyligi	Katta miqdorda organizmlar uchun hayotiy zarur bo'lgan elementlar. Fosfor va azot, hamda uglerod, kislorod, kalsiy, kaliy, magniy, oltin gugurt elementlari asosiy ahamiyatga ega.
Tabiiy resurslar	Tabiiy boyliklar manbai: unga foydali qazilmalar va minerallar, tuproq, suv havzalari, hayvonot va o'simliklar olami, sog'lomlashdirish zonalari va boshqalar kiradi. Tabiiy resurslar insoniyat tomonidan o'zining moddiy extiyoji uchun o'zining mavjudligini ta'minlovchi sifatida va hayot sifati darajasini oshirish uchun butun hayoti davomida foydalaniadi.
Tabiiy obekt	O'zining tabiiy xossasini saqlab qolgan tabiiy ekologik tizim, tabiiy landshaft va ularning tarkibiy elementlari.
Tabiiy landshaft	Tabiiy omillar ta'siri ostida shakllangan va inson faoliyatida o'zgartirilmagan landshaft. Unda geokimyoviy, elementlar va muhofaza qilinadigan landshaftlar ajratiladi.
Tashkilotning ekologik pasporti	Tashkilotning tabiiy resurslardan foydalanishi va uning atrof muhitga texnogen ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan hujjat. Unda asosan tashkilot va uning atrofidagi ekologik holat bashorat qilinadi va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning ijrosi nazorat qilinadi. Ekologik pasportlar shaharlarni atrof muhitga texnogen ta'sir darajasining jadallahushi bo'yicha ularni keyinchalik rayonlashtirish uchun o'tkaziladigan "Ekologik pasportlashtirishi" jarayoniga asos bo'lib hisoblanadi.
Tabiiy resurslarning qurishi	Tabiiy resurslardan foydalanish normalarining inson extiyojiga to'g'ri kelmasligi. Tabiiy resurslar ikkiga bo'linadi. 1. Tugamaydigan tabiiy resurslar – quyosh energiyasi va u tomonidan hosil qilinadigan tabiiy kuchlar (shamol, to'lqin va b.q.) – ular tugamaydigan miqdorda mavjud. 2. Tugaydigan tabiiy resurslar – suv, havo, tuproq, hayvonlar va o'simliklar – ular miqdor jihatidan chegaralangan. Ba'zi bir tugaydigan tabiiy resurslar ba'zida inson yordamida qayta tiklanishi mumkin; qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarga masalan, neft, gaz va qazilma metallar kiradi.
Tabiatdan foydalanish	Tabiiy resurslar va tabiiy sharoitning har hil turlaridan foydalanish hisobiga jamiyatning moddiy va madaniy extiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy – ishlab chiqarish faoliyati. U tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash; tabiiy muhitni saqlash va undan foydalanish; tabiiy tizimlarning ekologik muvozanatini tiklash va ularni rasional o'zgartirish; odamlar tug'ilishi va sonimi tartibga solish kabi jahatlarni o'z ichiga oladi.

Tabiiy yodgorliklar	Ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli bo'lgan tabiiy obektlar (ma'lum hudud uchun xos bo'lgan), bular manzaralari daraxtlar, qadimiy xiyobonlar, g'orlar, chorvoqlar bo'lishi mumkin.
Tuproq meliorasiyasi	Tuproq umumdorligini yaxilashga qaratilgan tadbir. Gidrotexnik meliorasiya – sug'orish, quritish, sho'r tuproqni yuvish; fizik meliorasiya – qo'mlash, loyqalash va shu kabilar; kimyoviy meliorasiya – gipslash, oksidlash va b.q.
Tabiatda og'ish hodisasi	Erning har bir nuqtasida yorug'liq, namlik va issiqlikning davriy o'zgarishi. Sutkalik (tabiatda kun va tunning almashinishi bilan bog'liq); ko'p yillik (iqlim o'zgarishi bilan bog'liq) og'ish xodisalari ajratiladi.
Tabbiy muhit komponentlari	Tuproq, er usti va er osti suvlar, atmosfera havosi, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqa organizmlar, hamda er atmosferasining ozon qatlami va er atrofidagi fazoviy bo'shliqdan tashkil topgan bo'lib, ular hammasi birqalikda Erda hayot muvjud bo'lishi uchun qulay sharoitni ta'minlaydi.
Tabiiy ekotizim	Tabiiy muhitning obektiv tarzda mavjud bo'lgan qismi, u hududiy chegarasiga ega bo'lib, unda tirik va notirik elementlar yagona birlik sifatida o'zaro ta'sir ko'rsatadi va bir-biri bilan modda va energiya almashinish bo'yicha bog'langan bo'ladi.
Tabiatda geologik (katta) moddalar aylanmasi	Moddalarни biosfera va Erning chuqur gorizontlari o'rtasida qayta taqsimlaydigan aylanmasi. Quyosh energiyasini Erning eng chuqur qatlamlaridagi energiyasi bilan o'zaro ta'siriga asoslangan.
Tuproq umumdorligi	Tuproqning o'simliklarni ozuqa moddalari, havo, biotik va fizik-kimyoviy muhit bilan ta'minlash xususiyati. U qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi va yovvoiy o'simliklar shakllarining biogen mahsuldarligiga ta'sir qiladi.
Tuproq degradasiyasi	Gumus qatlaming kamayishi va hosildorligining pasayishi bilan birga boradigan tuproq sifatining asta-sekin yomonlashuvi. Degradasiya tuproqqa mineral o'g'itlarning haddan tashqari ko'p solinishi, tuproq unumdar qatlaming emirilishi, botqoqlanish va boshqalar natijasida kelib chiqadi.
Turlar xilma-xilligini saqlash	Populyasion turlar tarkibini muhofaza qilishga, turlar sonini ular mavjud bo'lismeni ta'minlaydigan darajada saqlab turishga qaratilgan tadbirlar majmui (u siyosiy va diniy bo'lishi mumkin).
	Insonning tabiiy muhitga sanoat korxonalari chiqindilarini chiqarish, suv va tuproqni chiqindilar, pestisidlar, radioaktiv moddalar va boshqalar bilan ifloslantrish kabi salbiy ta'sirlarga qarshi kurashga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasi.
Trofik tuzilma	Ma'lum jamoa turlari o'rtasidagi barcha trofik (oziq) aloqalarining sxemasi.
U	
Urbanizasiya	Shaharlarning o'sish va rivojlanish jarayoni, mamlakatda, mintaqada, dunyoda shahar aholisining o'sishi, shahar algomeratlarining megapolislarga aylanishi. Shaharlar sun'iy, inson yashaydigan negativ muhitga aylanadi: aholi tig'izlidan, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar miqdorining oshishi, muhitning ifloslanishi, shovqinning ko'payishi oqibatida shaharliklar salomatligi darajasi pasayadi. 2007 yilda Er yuzidagi urbanizasiyalashgan hududning umumiyl maydoni hayot kechirish mumkin bo'lgan quruqlik hududining 20 % ni tashkil qildi.

O'rmon	Atrof tabiiy muhitning muxim tarkibiy qismi. U asosiy kislorod manbai bo'lib hisoblanadi, flora va faunaning genefondini saqlaydi, iqlimi yumshatadi, tuproqni suv va shamol eroziyasidan ko'chish va boshqa noxush jarayonlardan ximoya qiladi; ular egallagan hududda suv rejimini boshqaradi; insonnig ruhiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi sanitariya – gigienik sharoit yaratadi. Shuningdek o'rmon yog'och manbai sifatida bebaho tabiiy resurslardir. Rossiya eng katta yog'och zaxirasiga ega: undagi o'rmonlarning umumiy maydoni butun dunyo o'rmon resurslarining qismiga teng.
Talofat keltirib chiqaruvchi jarayonlar	Inson faoliyati natijasida hosil bo'lgan va tabiiy muhitga iqtisodiy va ekologik talofat keltiruvchi geologik jarayonlar: ko'chki, karst, prosadki va erosti suvi sathining ko'tarilishi.
F	
Tur hayotining fiziologik davomiyligi	Organizmning faqat fiziologik imkoniyatlari bilan belgilanadigan hayot davomiyligi. U nazariy jihatdan mumkin bo'ladi.
Filtrlovchi oziqlanish	Suvda muallaq turuvchi zarrachalarни saralash bilan boradigan oziqlanish. Oziqlanish uchun yaroqli bo'lgan zarrachalar o'zlashtiriladi, yaroqsizlari suv tubiga cho'kadi. Shu tariqa suvning biologik o'zini tozalashi amalga oshadi.
Fotodavriylik	Organizmning ma'lum joyda va yilning ma'lum vaqtida har doim bir hilda boradigan mavsumiy o'zgarish, kun uzunligiga javob reaksiyasi, u organizmlarga yilning har hil vaqtiga moslashishga imkon beradi.
Fotosintez	Faqat yashil o'simliklar uchun hos bo'lgan murakkab jarayon, uning natijasida karbonat angidrid va suvdan quyosh nuri ishtirokida organik modda hosil bo'ladi va erkin kislorod ajralib chiqadi.
Fotokimyoviy smog	Smog yozda avtomobillardan chiqadigan chiqindi gazlar bilan to'yingan havoga quyosh radiasiyanining faol ta'siri ostida sodir bo'ladi. Masalan, 1971 yilda Tokioda fotokimyoviy smog 28 ming odamning zaharlanishiga olib kelgan.
Fazoviy axlatxona	Erning birinchi sun'iy yo'ldoshi orbitaga chiqarilgandan so'ng 4500 dan ortiq fazoviy uskunalar olib chiqilgan, shulardan 450 tasi faoliyat kursatmoqda, 1500 tadan ortiqrog'i esa shunchaki o'z orbitasi atrofida aylanib yuribdi. Bir – biri bilan va boshqa fazoviy jismlar bilan to'qnashib bu uskunalarning qoldiqlari parchalamoqda. Olimlarning hisoblashlaricha hozir Er atrofida 10000 dan ziyod yirik qoldiqlar va millionlab mayda qoldiqlar aylanib yuribdi. Bunday fazoviy axlatxona uchiriladigan fazoviy uskunalar uchun juda xavflidir.
Fazoviy monitoring	Erning sun'iy yo'ldoshlari yordamida fazodan muhit holatini kuzatish. Katta hududdagi ma'lumotlarni olishga imkon beradi, bu esa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan dovullar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlarni oldindan bashorat qilishda muhim o'rinn tutadi.
X	

Kimyoviy qiro	Ommaviy qirg'in quroli. Jangovar zaharlovchi moddalar – gazlar, suyuqliklar va qattiq moddalar yordamida butun biotalarni zaharlab ta'sir ko'rsatadi. Raketalar, minalar, bombalar yordamida yoki samolyotlardan purkab qo'llaniladi. Kimyoviy quollar katta miqdorda Vietnamdag'i urushda qo'llanilgan, unda 4 yil ichida 10 ming odam o'lgan va bir milliondan ortiq odamlar nogiron bo'lib qolgan.
Hududning ekologik sig'imi	Tabiiy muhitning biron-bir antropogen ta'sirni ekotizimning asosiy funksiyasini buzmasdan o'tkazishga bo'lgan potensial imkoniyati.
Yirtqichlik	Organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari tipi, unda bir tur vakillari boshqa tur vakillari uchun ozuqa bo'lib hizmat qiladi. Yirtqichlik faqat hayvonlar va o'simliklar o'rtasida ham keng tarqagan aloqa shaklidir, chunki, o'txurlik ham o'ziga xos yirtqichlikdir.
Ch	
Odam	Er yuzidagi organizmlar rivojlanishining yuqori bosqichi. U o'ziga xos intellektga, nutqqa, ijodiy qobiliyatga, mehnat qurollari yaratish qobiliyatiga va ma'naviy ongga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Odamning DNK mollekulalaridagi ginetik dasturi uning eng qimmatli tabiiy resursi bo'lib hisoblanadi.
Chegaralararo ifloslantirish	Bir mamlakat hududidan boshqa mamlakat hududiga o'tadigan ifloslantirish. Masalan, 1994 yilda Rossisiyaning Evropa qismiga uning geografik holati tufayli Germaniya, Ukraina va boshqa mamlakatlardan 1,2 mln.t. oltingugurt birikmalari kirib kelgan, shu vaqtida Rossiyadan boshqa mamlakatlarda undan 6,5 marta kam ifloslanish o'tgan.
Insoniyat	Organizm uchun ahamiyati jahatidan optimaldan eng ko'p og'uvchi omil hisoblanadi.
Qora ro'yxat	Qirilib ketgan o'simlik va hayvonlar turlarining nomi yozilgan ro'yxat nomi. Ba'zi bir tabiatda yo'qolib ketgan o'simliklar botanika bog'larida, hayvonlar esa muzeylarda qotirlig'an holda saqlangan.
Sh	
Shovqin ta'siri	Zararli fizik ta'sir shakli. Ovoz tebranishlari tabiiy darajasining oshishi natijasida hosil bo'ladi, inson uchun jiddiy fiziologik oqibatlarga olib keladi. Shovqin natijasida oromning buzilishi odatda antropogen shovqin manbalari (transport, maishiy uskunalar, sanoat korxonalar) ta'sirida hosil bo'ladi. Bunda odamda toliqish kuchayadi, aqliy faoliik va ishlab chiqarish imkoniyati pasayadi, asab kasalliklari paydo bo'ladi.

	Organizmning rivojlanmasligi bir qator omillardan birining etishmasligi yoki ortiqchaligi bilan aniqlanadi, uning darajasi o'sha organizmning chidamlilik chegarasiga yaqin kelib qolgan bo'lishi mumkin. Bu ikki chegara tolerantlik chegarasi deyiladi. Masalan, agar ma'lum bir organizm -5°S dan $+25^{\circ} \text{S}$ oraliq'ida haroratda mavjud bo'la olishga qodir bo'lsa demak uning tolerantlik diapazoni shu harorat chegarasida yotadi.
--	---

E	
Evolyusiya	Tirik tabiat taraqqiyotining irliyat, o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlanishi asoslangan qaytmas jarayoni. Sopryajennaya evolyusiya – bu bir organizmning boshqasiga ko'rsatadigan evolyusion bosim, bunda har bir organizmning evolyusiyasi u yoki bu darajada boshqasining evolyusiyasiga bog'liq bo'ladi. Evolyusiya uch milliard yildan ortiq vaqt oldin boshlangan va bizning davrimizda ham davom etib kelmoqda.
Evritop organizmlar	Muhit sharoiti turlicha bo'lgan joylarda yashovchi va ekologik omillar o'zgarishining kuchli ta'siriga chiday oladigan organizmlar. Ularga begona o'tlar, qishloq ho'jalik ekinlarining zararkunandalari kiradi.
Edafik omillar	O'simliklar o'sishining tuproq sharoiti. Asosiy edafik omillar tuproqning harorati, namligi, tuzilishi va sho'rланishi bo'lib hisoblanadi.
Hududning ekologik sig'imi	Tabiiy muhitning biron-bir antropogen ta'sirni ekotizimning asosiy funksiyasini buzmasdan o'tkazishga bo'lgan potensial imkoniyati.
Ekologik nisha	Turning tabiatdagi o'rni, u turning makondagi holati va jamoadagi funksional rolini o'z ichiga oladi, yashashning abiotik sharoitiga munosabati. Ekologik nishani yashash joyi bilan adashtirish mumkin emas, chunki u organizm shunchaki egallab turgan fizik makon emas, balki uning jamoadagi ekologik funksiyalari bilan aniqlanadigan o'rnidir. Asosiy nisha – unda tur yoki populyasiya raqobat kurashida engib chiqishga qodir bo'ladi.
Ekologik moyillik	Organizmlarning muhit omillari ta'siriga chidamlilik darajasi.
Ekologik tizim	Bir butun bo'lib faoliyat yuritadigan organizmlar va ularning yashash muhiti. Masalan, daryo – bu suvda yashovchi organizmlar, suvning fizik va kimyoiy xossalari, suv tubi relefining xususiyatlari, suv tubi tuprog'ining tuzilishi va tarkibi, suv yuzasida o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi atmosfera havosi va quyosh radiasiyasidan tashkil topgan tizim. Ekotizim tabiiy (ko'l) va sun'iy (akvarium) bo'lishi mumkin.
Ekologik taxmon	Avtotrof va geterotrof organizmlarni vazn birligidagi nisbatining grafik ko'rinishi. Masalan, ko'pchilik biosenozlarda o'simliklar biomassasi hayvonlar biomassasidan ko'p bo'ladi, o'tho'r hayvonlar biomassasi esa yirtqich hayvonlar biomassasidan har doim ko'p bo'ladi – bu biomass taxmonini tashkil qiladi. Miqdor taxmoni har bir trofik darajadagi individlar sonini, energiya taxmoni esa – individlarda jamlangan energiya nisbatini ifodalaydi.
Ekologik omillar	Tashqi muhitning organizmlar bilan o'zaro munosabatda bo'luchchi har qanday elementi. Ular abiotik, biotik davriy (iqlim va gidrografik), nodavriy (vulqonlar otilishi) kabi turlarga bo'linadi.

Ekologik urush	O'z raqibiga uning yashash muhitiga ta'sir ko'rsatish vositasida zarar etkazishi. Bu suvni, havoni yoki tuproqni zaharlash, flora va faunani yuqotish bo'lishi mumkin. U halqaro huquqlar bilan taqiqlangan.
Ekologik tur hosil bo'lishi	Ma'lum tur doirasida yangi ekologik nisha populyasiyalarini o'zlashtirish natijasida yoki hayot tarzida tafovutlar hosil bo'lishi natijasida yangi turlar paydo bo'lishi.
Ekologik belgilar	Joyning tabiatni bilan muomila qilish qoidalari to'g'risida ogohlantiruvchi belgilar va plakatlar, masalan: "Gullarni yig'ish taqiqlanadi" va b.q.
Ekologik menedjment	Ekologik dasturni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.
Ekologik nazorat	Atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik havfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'yiladigan ekologik talablarga amal qilishni tekshirish. Ekologik nazoratning uchta shakli ajratiladi: ogohlantiruvchi (oqibatni oldini olish), jazolovchi (majburlash va jazolash) va ma'lumot beruvchi (ekologik ma'lumotlarni yig'ish).
Ekologik inqiroz	Ekotizimlar ichidagi aloqalarning buzilishi, hamda inson faoliyati natijasida noosferada sodir bo'ladian, insonni tur sifatida mayjud bo'lishini xavf ostida qoldiradigan qaytmas hodisalar. Xavflilik darajasiga qarab ekologik inqiroz noqulay ekologik holat, ekologik halokat va ekologik ofat kabi turlarga bo'linadi.
Ekologik monitoring	Atrof muhit holatini kuzatish, baholash va bashorat qilish tizimi. Ekologik nazoratni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Kuzatishlar er usti suvlarida (og'ir metallar, neft mahsulotlari pestisidlar ustidan), atmosfera havosida (ozon, chang, azot, aerozollar ustidan), biotoda (azot, fosfor, og'ir metallar, radionuklidlar ustidan) o'tkaziladi.
Ekologik tavakkal	Atropogen yoki boshqa ta'sirlar natijasida atrof muhitda sodir bo'ladian har qanday, hatto eng kichik salbiy o'zgarishlarni baholash. Bunda qo'yidagilar hisobga olinadi: tabiiy muhitdagi yo'qotishlarni qayta tiklanishning shartligi, minimalligi va mumkinligi; ekologik samara va zararga nisbatan inson salomatligiga zararining yo'qligi.
Ekologik huquq	Huquqning jamiyat va tabiat o'rtaсидаги о'заро та'sirga asos soluvchi sohasi. Ekologik huquqning manbalari: konstitusiya; tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlar va kodeksler; ekologiya va tabiatdan foydalanish masalalariga bag'ishlangan prezident farmonlari va farmoyishlari; vazirliklar va idoralarning normativ dalolatnomalari.
Ekologik halokat zonasasi	Hududning shunday qismiki, unda atrof muhitda tuzatib bo'lmas o'zgarishlar sodir bo'lgan, oqibatda aholi salomatligi yomonlashgan, flora va faunaning parchalanishi, ekotizimning buzilishi sodir bo'lgan. Bu zona davlat ekologik ekspertizasi asosida ajratiladi. Rossiyada Chernobil AES halokati ta'siridagi, Qolmiq va Kuzbassning cho'l rayonlaridagi hududlar ekologik xalokat zonasasi deb e'lon qilingan.
Ekosfera	Global ekologik tizim bo'lib, uning tarkibi va tuzilishi organizmlarning planetar majmuasi tomonidan aniqlanadi va nazorat qilinadi.
Endemiklar	Faqat kichik geografik oblastlarda tarqalgan hayvonlar va o'simliklar turlari.

Ya	
Ya dro quroli	Ommaviy qirg'in quroli katta quvvati bilan xarakterlanadi. Halokatli ta'siri atrof muhitga tulqin kuchi, yorug'lik nurlanishi, kuchli radiasiya va radioaktiv zararlanish ta'sirlari bilan aniqlanadi. To'lqin kuchi daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlaydi, odamlarda ichki organlari yorilib ketadi va suyaklari sinadi. Yorug'lik nurlanishi tananing ochiq joylarini va ko'z qorachig'ini kuydiradi. Nur radiasiyasi esa nurlanish kasalligini keltirib chiqaradi.
	Organizmlarning yashab qolishga bo'lgan intilishi bilan izohlanadigan strategiya. Bu strategiyaning xilma-xilligi evolyusion tanlashning ikki tipi bilan aniqlanadi. Birinchisi populyasiya o'sish tezligining oshishiga qaratilgan, ikkinchisi esa ma'lum sondagi individlarning yashab qolish qobiliyatini oshishiga qaratilgandir (raqobatdoshlikka tanlov).
Hayvonot dunyosi	Ma'lum bir hududda tarqalgan va tabiiy erkin eshash holatida bo'lgan hamma yovvoiy hayvonlar turlari va individlarning majmuasi. Hayvonlarning asosiy ekologik vazifasi moddalar va energiyaning biotik aylanmasida ishtirok etishi bo'lib, bu tabiiy ekotizimlarning eng muhim komponenti va qimmatbaho biologik resursidir.
Qo'riqxona	Ma'lum bir hududning o'z chegarasidagi hamma tabiiy obektlari bilan bирgalikdagи qismi bo'lib, insонning xo'jalik faoliyati uchun foydalanishdan umuman holi bo'ladi va davlat muhofazasi ostida bo'ladi. Bunday hududlarda yirtqich hayvonlarni ushslash va otish, meva, zambrug' va gullarni yig'ish taqiqlanadi. Rossiyada 90 tadan ortiq ko'rirkxonalar mavjud bo'lib, ularidan eng kattasi (maydoni 1500 ga. dan katta). Taymir va Ust-Lensk qo'riqxonalaridir.
Qizil kitoblar	O'simliklar hayvonlar va boshqa organizmlarning yo'qolib ketayotgan, noyob va yo'qolib ketish xavfli ostida turgan turlarining ro'yxatini o'z ichiga olgan kitob. Qizil kitoblarning bir necha variantlari mavjud. Bular halqaro, federal va viloyat qizil kitoblaridir.
Qishqi tinim	Kup yillik o'simliklarning moslanish xususiyati. U o'sishning tuxtashi va barg to'kilishi yoki er ostki novdalarining (o'tchil hayotiy shakkarda) qurishida namoyon bo'ladi.

15. ILOVA

15.1. Ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan darsliklar, o'quv qo'llamalar

1. G'ulomov M.I. Hozirgi zamon ekologiyasi. - Buxoro: 2009.
 2. Egamberdiev R. Ekologiya.-Toshkent: Noshir, 2010.
 3. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. - Toshkent.: Chinor YeNK,2006
 4. Shilov I.A. Ekologiya.- Vysshaya shkola, 2003.
 5. Akimova T.A., Xaskin V.V. Ekologiya, - M.: YuNITI, 2003.
 6. Peredelskiy L.V., Korobkin V.I., Prixodchenko O.E. Ekologiya.-M.: Prospekt,2007.
 7. Ergashev A. Umumiylar ekologiya. Toshkent.O'qituvchi, 2003.
 8. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya biosfera va tabiatni muhofaza qilish.- Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.
- ### **15.2. Uslubiy qo'llamalar, uslubiy ko'rsatmalar**
9. Bobonazarov G'. Populyasiyalar ekologiyasidan ma'ruzalar. Qarshi: «Nasaf», 2003.
 10. Halimov F.Z., Niyazova O.B. Populyasiyalar ekologiyasi fanidan ma'ruzalar matni. 2004.
 11. Niyazova O.B. Populyasiyalar ekologiyasi. O'quv - uslubiy majmua-2011 yil. 140 bet.
 12. Halimov F.Z. Populyasiyalar ekologiyasi fanidan Amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2008.

15.3. Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallari

1. <http://www.Environment.ru>.
2. <http://www.Ecologe.ru>.
3. <http://www.Environ.com>.
4. <http://www.Ecolog.com>.
5. <http://www.clin.procl.Com>.